Fanning vazifasi - zamonaviy tarjimachilikda tarjimon mutaxassisligiga qo'yiladigan talablar, tarjima ishini to'g'ri tashkil qila olish, zamonaviy o'zbek-ingliz tarjimachiligida tarjimon etikasi va muallif oldidagi huquq va burchlarini aniq anglay olish ko'nikmalarini, tarjima metodlarini o'quv jarayonida tatbiq eta olishdan iborat.

“Mutaxassislikka kirish”fani bo'yicha talaba quyidagi malaka va ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak:

- G'arb va Sharq tarjima maktablari Bobil, Bag'dod, Rim, Venetsiya tarjima maktablari haqida ma'lumot bera oladi;
- tarjima nazariyasining fan sifatida o'qitilishi, jahon tajribasida, O'zbekistonda; tarjima fani bilan bevosita bog'liq fundamental fanlari bilan bog'liqligini ko'rsatib bera oladi;
- zamonaviy tarjimashunoslikdagi yangicha nazariyalari haqida ma'lumotlarga ega bo'ladi;
- tarjima jarayoni va tarjimonning vazifalari, tarjimonning burchlari va muallif bilan ko'rinmas raqobati haqida tasavvurga ega bo'ladi;
- tarjima ishini tashkil qila oladi, nashriyotlar va badiiy asar mualliflari, gazeta va jurnallar bilan hamkorlik qila oladi;

- yaxshi tarjimonning sifatlari, professional mahorati haqida to‘la tasavvurga ega bo‘ladi;
- tarjima uchun kerakli materiallar, tarjimon qurollaridan foydalana oladi;
- badiiy tarjimada qo‘l keladigan eng yetakchi elektron resurslar, tarjimonlar portallari, forumlar, she‘riy teskari lug‘atlardan foydalana oladi;
- tarjima adabiyotini tanlash, xorijiy kitobxon auditoriyasi va ehtiyojlarini o‘rganish;
- tarjima uchun ma‘lum adabiyot va mavzu tanlab olingach, shu adabiyotga tegishli ma‘lumotlar: tarixiy, geografik, lisoniy, maishiy kabi bilim, ko‘nikma va malakaga ega bo‘ladi.

Kursning tematik tarkibi

№	Mavzu	Ma‘ruza	Seminar	Mustaqil
1	Tarjima tarixi: G‘arb va Sharq tarjima maktablari	2	2	2
2	Jahon oliy ta‘lim tizimida tarjima nazariyasining fan sifatida o‘qitilishi	2	2	2
3	Tarjima jarayoni va tarjimonning sifatlari	2	2	2
	Joriy nazorat(JN)			
4	Tarjimon etikasi	2	2	2
5	Tarjimonning mahorati	2	2	2
6	Tarjima ishini tashkil qilish	2	2	2
	Oraliq nazorat(ON)			
7	Tarjimonning qurollari	2	2	2
8	Badiiy tarjima uchun munosib adabiyotni tanlab olish va baholash	2	2	2
	Joriy nazorat(JN)			
9	Tanlangan material uchun ma‘naviy bilimlarni yig‘ish	2	2	2
10	Keys study		2	2
	Yakuniy nazorat			
	1-semestr bo‘yicha jami	18	20	20

	Umumiy	18	20	20
Ta'lim berish va o'qitish uslubi:	Ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar, mustaqil ishlar (keys study, master klasslar)			
Mustaqil ishlar:	O'quv loyihalar, guruhli taqdimot, referatlar, krossvordlar, keyslar			
Maslahatlar va topshiriqlarni topshiriq vaqti	Kunlar	Vaqti	Auditoriya	
1. Oktabr	Dushanba-chorshanba	14:00	311	
2. Noyabr	Seshanba-payshanba	14:00	311	
3. Dekabr	Juma-shanba	14:00	311	

Bilimlarni baholash usullari va tartibi:

Reyting nazorati va baholash mezonlari

Reyting nazorati jadvali

No	Reyting nazorati shakli/Maksimal ballari	1-JN	MT	2-JN	MT	ON	YN	Ballar yig'in disi
1	Maksimal ball	20		20		30	30	100
2	Shakli	Yozma		Yozma		Yozma	Yozma	
3	Muddati (haftalarda)	6		12		15	19	

“Mutaxassislikka kirish” fani bo'yicha joriy nazoratni baholash mezonlari

Joriy nazoratni bir semestrda 2 marta yozma tarzda o'tkazish ko'zda tutilgan. Har bir joriy nazorat uchun maksimal 20 ball qo'yiladi. Jami umumiy 40 ballni tashkil etadi.

35-40 ball olishning tartibi quyidagicha:

1. Talaba ko‘zda tutilgan 2 joriy nazoratda qatnashsa.
2. Talaba o‘z vaqtida mustaqil ta‘limda o‘zlashtirishi kerak bo‘lgan topshiriqlarni bajarsa.

3. Ko‘zda tutilgan barcha amaliy mashg‘ulotlarda berilgan savollarga batafsil, to‘liq javob bersa.

29-34 ball olishning tartibi quyidagicha:

4. Talaba ko‘zda tutilgan 2 joriy nazoratda qatnashsa.

5. Ikki joriy nazorat savollarining ayrimlariga etarlicha javob bersa.

6. Talaba o‘z vaqtida mustaqil ta‘limda o‘zlashtirishi kerak bo‘lgan topshiriqlarning 80 % ini bajarsa.

7. Ko‘zda tutilgan barcha amaliy mashg‘ulotlarda berilgan 20 savoldan 16 tasiga to‘liq javob bersa.

8. Talaba berilgan adabiyotlarni o‘zlashtirishda va amaliy mashg‘ulotlardagi savollarga javob berishda faol ishtirok etsa.

22-28 ball olishning tartibi quyidagicha:

9. Talaba ko‘zda tutilgan 2 joriy nazoratda ishtirok etsa;

10. Joriy nazorat savollarining ayrimlariga qisman javob bersa;

11. Talaba o‘z vaqtida mustaqil ta‘limda o‘zlashtirishi kerak bo‘lgan topshiriqlarning 50%ini bajarsa;

12. Ko‘zda tutilgan barcha amaliy mashg‘ulotlarda berilgan 20 savoldan 10 tasiga to‘liq javob bersa;

13. Talaba berilgan adabiyotlarni o‘zlashtirishda va amaliy mashg‘ulotlardagi savollarga javob berishda etarlicha ishtirok etmasa.

0-21 ball olishning tartibi quyidagicha:

14. Talaba ko‘zda tutilgan joriy nazoratning 1 tasida qatnashsa;

15. joriy nazorat savollarining ko‘p qismiga javob bera olmasa;

16. Ko‘zda tutilgan barcha amaliy mashg‘ulotlarda berilgan topshiriqlarning ayrimlarini bajarsa;

17. Talaba berilgan adabiyotlarni o‘zlashtirishda va amaliy mashg‘ulotlardagi savollarga javob berishda qoniqarsiz ishtirok etsa.

“Mutaxassislikka kirish” fani bo‘yicha oraliq nazoratni baholash mezonlari

Oraliq nazorat bir semestrda 1 marta: yozma ish tarzida o‘tkazilishi ko‘zda tutilgan. Oraliq nazorat uchun maksimal 30 ball qo‘yiladi.

26-30 ball olishning tartibi quyidagicha:

18. Talaba berilgan vaqtda barcha savolga to‘g‘ri va to‘liq javob bergan bo‘lsa.

19. Javoblarni yozishda tavsiya etilgan adabiyotlardan foydalangan bo'lsa.

20. Fan bo'yicha istiloh va atamalarni to'g'ri qo'llasa.

21. Yozma ishda imlo xatoliklariga yo'l qo'ymasa.

22. Shaxsiy fikr va mulohazalarga ega bo'lsa.

23. Javoblar to'liq xulosalangan bo'lsa.

24. Javoblar hajmi talabga javob bersa.

22-25 ball olish tartibi quyidagicha:

25. Talaba berilgan vaqtda ko'zda tutilgan savollarga asosan to'g'ri javob bergan bo'lsa.

26. Javoblarni yozishda tavsiya etilgan adabiyotlardan kam foydalangan bo'lsa.

27. Fan bo'yicha istiloh va atamalarni qisman qo'llasa.

28. Yozma ishda imlo xatoliklariga yo'l qo'ymasa.

29. Shaxsiy fikr va mulohazalari etarli bo'lmasa.

30. Javoblar xulosalangan bo'lsa.

31. Javoblar hajmida mutanosiblik saqlanmagan bo'lsa.

17-21 ball olish tartibi quyidagicha:

32. Talaba berilgan vaqtda ko'zda tutilgan savollardan ayrimlariga to'g'ri javob bergan bo'lsa.

33. Javoblarni yozishda tavsiya etilgan adabiyotlardan qisman foydalangan bo'lsa.

34. Yozma ishda imlo xatoliklariga yo'l qo'ysa.

35. Shaxsiy fikr va mulohazalari yetarli bo'lmasa.

36. Javoblar hajmida mutanosiblik saqlanmagan bo'lsa.

0-16 ball olish tartibi quyidagicha:

37. Talaba berilgan vaqtda ko'zda tutilgan savollarga yaxshi javob bermagan bo'lsa.

38. Javoblarni yozishda tavsiya etilgan adabiyotlardan foydalanmagan bo'lsa.

39. Yozma ishda imlo xatoliklariga ko'p yo'l qo'ysa.

40. Shaxsiy fikr va mulohazalarga ega bo'lmasa.

41. Javoblar xulosalanmagan bo'lsa.

42. Talaba mavjud adabiyotlardan ko'chirgan bo'lsa;

1. mavzuga aloqasi bo'lmagan, o'qituvchini chalg'itish uchun fikrlar yozsa;

2. umuman savollarga javob bera olmasa.

“Mutaxassislikka kirish” fani bo‘yicha yakuniy nazoratni baholash mezonlari

Yakuniy nazorat bir semestrda 1 marta yozma o‘tkaziladi. Yakuniy nazoratda 3 ta savol bo‘lishi ko‘zda tutilgan. Yakuniy nazorat uchun maksimal 30 ball qo‘yiladi.

26-30 ball uchun talabaniy faoliyati quyidalarga javob berishi lozim:

3. talaba javob berishi kerak bo‘lgan 3 ta savolga hajman to‘liq javob yozgan bo‘lsa;
4. mavzu to‘liq yoritilgan bo‘lsa;
5. berilgan savollarga javob yozishda izchillik va mantiqiylik kuzatilsa;
6. istiloh va atamalarni qo‘llashda xatoliklar bo‘lmasa;
7. savollarga javob yozishda talabaniy mustaqil yondashuvi sezilib tursa;
8. yozilgan matn imlo xatolari va uslubiy g‘alizliklarga ega bo‘lmasa;
9. shaxsiy fikr va mulohazalarga ega bo‘lsa;
10. javoblar to‘liq xulosalangan bo‘lsa

22-25 ball uchun talabaniy faoliyati quyidagi talablarga javob berishi lozim:

11. talaba javob berishi kerak bo‘lgan 3 ta savoldan 2 tasiga to‘liq 1 tasiga qisman javob yozgan bo‘lsa;
12. mavzu atroflicha yoritilgan bo‘lsa;
13. talaba savollarga javob yozishda mavzuga doir istiloh va atamalarni to‘g‘ri qo‘llay bilsa;
14. mavzuga doir adabiyotlar bilan tanish bo‘lsa;
15. yozilgan matnda juz‘iy bo‘lmagan ba‘zi imloviy xatolar bo‘lsa;
16. shaxsiy fikr va mulohazalarga ega bo‘lsa;
17. javoblar yetarlicha xulosalangan bo‘lsa.

17-21 ball uchun talabaniy faoliyati quyidagi talablarga javob berishi lozim:

18. talaba javob berishi kerak bo‘lgan 3 ta savoldan 2 tasiga to‘liq 1 tasiga kam javob yozgan bo‘lsa;
19. mavzu qisman bo‘lsada yoritilgan bo‘lsa;
20. nazorat ishida ba‘zi savollarga javob to‘liq bo‘lmasa;
21. imloviy va uslubiy xatolarga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa;

- 22.javoblar hajmida mutanosiblik saqlanmagan bo'lsa;
- 23.shaxsiy fikr va mulohazalarga etarli bo'lmasa;
- 24.javoblar yetarlicha xulosalanmagan bo'lsa.

0-16 ball bilan quyidagi hollarda talabaniy yakuniy nazorat ishlari baholanadi:

- 25.talaba javob berishi kerak bo'lgan 3 ta savoldan 1 tasiga to'liq 1 tasiga kam javob yozgan bo'lsa;
- 26.mavzu yoritilmagan bo'lsa
- 27.imloviy va uslubiy xatolar ko'p kuzatilsa;
- 28.yozilgan matn nazorat talablariga javob bermasa;
- 29.shaxsiy fikr va mulohazalarga ega bo'lmasa;
- 30.javoblar xulosalanmagan bo'lsa;
- 31.talaba mavjud adabiyotlardan ko'chirgan bo'lsa;
- 32.mavzuga aloqasi bo'lmagan, o'qituvchini chalg'itish uchun fikrlar yozsa;
- 33.umuman savollarga javob yozmasa.

Baholash usullari	Testlar, yozma ishlar, og'zaki so'rov, prezentatsiyalar	
Fan bo'yicha talabalar bilimni nazorat qilish va baholash	<p style="text-align: center;">Nazorat shakllari</p> <p>Baholash turlari fan xususiyatidan kelib chiqqan holda so'rovlar, og'zaki savol-javob, yozma ish, test yoki boshqa ko'rinishda o'tkazilishi mumkin.</p> <p style="text-align: center;">Fan bo'yicha talabalar bilimni baholash mezonini</p>	
	Ball	Talabaniy bilim darajasi
	86-100 ball	<p>-talaba mashg'ulotlarga doimo tayyorlangan, juda faol, dasturiy materiallarni yaxshi biladi, xulosa va qarirlar qabul qila oladi, ijodiy fikrlaydi, bilimlarni amaliyotda qo'llay oladi;</p> <p>- talab ijodoiy masqalalarni hal qilish mobaynida tegishli biulimlarni qo'llash</p>

		<p>doirasini maqsadga muvofiq tanlab, yechimini topishga xizmat qiluvchi yangi usul va yoʻnalishlarni topa oladi, oʻquv materialining mohiyatini tushunadi;</p> <p>-talaba taqdim etilgan oʻquv masalarini yechish yoʻllarini izlaydi va turli materiallarni biladi, aytib bera oladi hamda tasavvurga ega boʻladi.</p>
	<p>71-85 ball</p>	<p>-Talaba oʻrganilayotgan hodisalar aloqadorligini bilish hamda obyektни tavsiflay olish koʻnikmasiga ega boʻlishi bilan birgalikda, qoʻyilgan masalalrانی sabab-oqibat aloqadorligini ochib bergan holda yecha oladi, oʻrganilayotgan nazariy bilimlarni amaliyot bilan bogʻlay oladi va mustaqil mushohada qila oladi;</p> <p>- bilim va koʻnikmalar mazmunini tatbiq qila olish mahorati, bir tipdagi masalalarni yecha olish, yozib olish va eslab qolish faoliyatini amalga oshiradi, bilimlarni amaliyotda qoʻllay oladi;</p> <p>-talaba mashgʻulotlarga</p>

		tayyorlangan, dasturiy materiallarni biladi, mohiyatini biladi va tasavvurga ega.
	55-70 ball	-talabning eshitganlari, ularga berilgan namunalar, taqdim etilgan algoritmlar va ko'rsatmalar asosida topshiriqlarni bajara oladi, mohiyatini tushunadi; -talaba qator belgilar asosida ma'lum obyektning farqlay bilish bilan birgalikda unga ta'rif bera oladi va o'quv materialini tushuntirib bera oladi va tasavvurga ega.
	0-54 ball	-talaba tasavvurga ega emas; -talaba dasturiy materiallarni bilmaydi.
Fanga doir video ma'ruzalar, video roliklar:		
Glossariylar:		
Axborot resurs baza:		

ASOSIY QISM

Fanning nazariy mashg'ulotlari mazmuni

1-modul. Tarjima tarixi: G'arb va Sharq tarjima maktablari

Yer yuzidagi ilk tarjimalar Qur'on, Bibliya tarjimalari. Yer yuzidagi ilk tarjimalarga bo'lgan ehtiyoj. Ilk tarjima asarlarning shakl va mazmuni. Bobil, Bag'dod, Rim, Venetsiya tarjima maktablarida amalga oshirilgan tarjima ishlari. Qadimda tarjimaning davlat boshqaruvidagi roli.

2-modul. Jahon oliy ta'lim tizimida tarjima nazariyasining fan sifatida o'qitilishi

O'zbek tarjimashunosligi asoschilari, o'zbek tarjimashunosligidagi qarashlar, tarjima maktablari va o'zbek tarjimachiligi namoyondalari. O'zbek tiliga rus tili orqali tarjimalar tahlili: yutuq va nuqsonlar. Asliyatdan uzoqlashuv omillari, bevosita va vositachi til orqali tarjimalar; jahon tajribasida badiiy tarjimaning akademik dissiplina sifatida o'qitilishi va fanning boshqa fanlar bilan bog'liqligi.

3-modul. Tarjima jarayoni va tarjimonning vazifalari

Tarjima jarayoni va tarjimonning vazifalari, tarjimonning burchlari va muallif bilan ko'rinmas raqobati. Tarjimonga qo'yiladigan malaka talablari; tarjimonning muallif bilan ko'rinmas raqobati. Tarjimonning o'zini tutishi va imidji. Tarjima ijodiy faoliyat sohasiga kiradi. Shu jarayonda tarjimonning lisoniy va ma'naviy bilimlari matnda o'z ifodasini topadi. Tarjimon avvalo tilni yaxshi bilishi, boshqa xalqlarning, xususan, tarjima qilinayotgan asar mansub xalqning adabiyoti, tarixi, madaniyati va mentalitetini chuqur o'rgangan bo'lishi lozim. Tarjimonga qo'yiladigan talablardan yana biri filologik bilimlarining yuqori darajada bo'lishidir. Uning o'z ona tilini va uning o'ziga xos xususiyatlarini yaxshi bilishi, fonetika, grammatika, leksikologiya va stilistika masalalarini teran tushunishi, shuningdek, adabiyot nazariyasi, badiiy ifoda usullarini chuqur o'zlashtirgan bo'lishi tarjima matnning talab darajasida ishlov berilishini ta'minlaydi. Shundagina tarjimon til normalarini buzmasdan, asliyat matni shakliga putur yetkazmasdan uning mazmunini to'liq uzatishi, muallif maqsadi

va g'oyasini aniq yetkazishi mumkin. Binobarin, tarjima san'at hisoblanadi. U nafaqat bilim, balki katta mehnat va fidoiyligni talab qiladi.

4-modul. Tarjimon etikasi

Tarjima ishini tashkil qilish nashriyotlar va badiiy asar mualliflari, gazeta va jurnallar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish. Tarjima ishini boshlash va yakuniga yetkazish bilan bog'liq tashkiliy jarayonlar.

5-modul. Tarjimonning mahorati

Yaxshi tarjimonning sifatlari, tarjimonning fundamental bilimlari. Tarjimonning matnni tushunish, muallifning maqsadini anglash mahorati. Tarjimonning matnni qayta yaratish mahorati.

6-modul. Tarjima ishini tashkil qilish

Tarjimonning muallifga nisbatan hurmati "Tarjimonning ko'rinmaslik nazariyasi"; tarjimonning madaniyati, muallif oldida hurmat saqlay bilishi; tarjimon va muallif uslubi; tarjimonning professional etikasi va o'zini tutishi.

7-modul. Tarjimonning qurollari

Tarjima uchun kerakli materiallar va ulardan foydalanish. Tarjima ishi uchun sharoit hamda tarjimonning qurollari. Badiiy tarjimada qo'l keladigan eng yetakchi elektron resurslar, tarjimonlar portallari, forumlar, she'riy chappa lug'atlardan foydalanish masalasi.

8-modul. Badiiy tarjima uchun munosib adabiyotni tanlab olish va baholash

Tarjima adabiyotini tanlash, xorijiy kitobxon auditoriyasi va ehtiyojlarini o'rganish. Xorijiy bestsellerlar va klassik adabiyotda so'nggi yillarda eng ko'p o'qilgan asarlar ro'yxatini shakllantirish.

9-modul. Tanlangan material uchun ma'noviy bilimlarni yig'ish

Tarjima uchun ma'lum adabiyot va mavzu tanlab olingach shu adabiyotga tegishli ma'lumotlar: tarixiy, geografik, lisoniy, maishiy va hkz ba'zasini shakllantirish va o'rganib chiqish. Asliyatda bayon etilayotgan voqelik, turli narsa-hodisalarning tasviri va obrazlarini bor murakkabligi bilan imkon qadar to'g'ri tarjima qilish uchun tarjimon, tabiiyki, original asarda tasvirlangan voqelikka doir bilimlarga ega

bo'lish.

Seminar mashg'ulotlari

Seminar mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Ma'ruza mashg'ulotlarida olgan bilim va ko'nikmalarni misol va masalalar yechish bilan mustahkamlaydilar hamda yanada boyitadilar. Bunga jamoa bo'lib mashq qilish yo'li bilan va mustaqil ishlash yo'li bilan erishiladi. Mustaqil ishlashda darsliklarni, o'quv qo'llanmalarni, uslubiy qo'llanmalarni, tarqatma va ko'rgazmali ashyolarni ahamiyati kattadir.

Talaba seminar mashg'ulotlarda taqdimot (prezentatsiya) shaklida ma'ruzada keltirilgan mavzular doirasida savollarga javob beradi. O'z fikrini bayon qilishda prezentatsiya doirasida turli materiallardan foydalanadi.

Seminar mashg'ulotlarining taxminiy ro'yxati

1. Tarjima ishini loyihalashtirishning xorijiy usullari.
2. Tarjima amaliyotidagi tarjimonning bilimlari.
3. Tarjima dasturlari va elektron lug'atlar bilan ishlash amaliyoti.
4. Badiiy tarjima uchun asar tanlash va baholash.
5. Tarjima ishi uchun asar asliyatiga xos fon bilimlarini yig'ish va ma'lumotlarni tahlil qilish.

Laboratoriya ishlarini tashkil etish bo'yicha tavsiyalar

Mazkur fan bo'yicha laboratoriya ishlari namunaviy dasturda ko'zda tutilmagan.

Kurs ishini tashkil etish

Mazkur fan namunaviy dasturida kurs ishi nazarda tutilmagan.

Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni

Talaba "Mutaxassislikka kirish" fanidan mustaqil ta'limni tashkil etishda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan xolda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi va joriy nazorat sifatida baholanadi:

9) **mavzular bo'yicha konspekt (referat, takdimot) tayyorlash.** Nazariy materialni puxta o'zlashtirishga yordam beruvchi bunday usul o'quv materialiga diqqatni ko'proq jalb etishga yordam beradi. Talaba konspekti turli nazorat ishlariga tayyorgarlik ishlarini osonlashtiradi, vaqtni tejaydi;

10) **o'qitish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimlari bilan ishlash.** Talabalar ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar davomida olgan bilimlarini o'zlashtirishlari, turli nazorat ishlariga tayyorgarlik kurishlari uchun tavsiya etilgan elektron manbalar, innovatsion dars loyihasinamunalari, o'z-o'zini nazorat uchun test topshiriqlari v.b;

11) **fan bo'yicha qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlash.** Mustaqil o'rganish uchun berilgan mavzular bo'yicha talabalar tavsiya etilgan asosiy adabiyotlardan tashqari qo'shimcha o'quv, ilmiy adabiyotlardan foydalanadilar. Bunda rus va xorijiy tillardagi adabiyotlardan foydalanish rag'batlantiriladi;

12) **INTERNET** tarmog'idan foydalanish. Fan mavzularini o'zlashtirish. Kurs ishi, bitiruv malakaviy ishlarini yozishda mavzu bo'yicha INTERNET manbalarini topish. Ular bilan ishlash nazorat turlarining barchasida qo'shimcha reyting ballari bilan rag'batlantiriladi;

13) mavzuga oid masalalar. Keys-stadilar va o'quv loyihalarini ishlab chiqish va ishtirok etish;

14) amaliyot turlariga asosan material yig'ish, amaliyotdagi mavjud muammolarnng yechimini topish. Hisobotlar tayyorlash;

15) ilmiy seminar va anjumanlarga tezis va maqolalar tayyorlash va ishtirok etish;

16) mavjud laboratoriya ishlarini takomillashtirish. Masofaviy (distansion) ta'lim asosida mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha metodik ko'rsatmalar tayyorlash va h.k.

Uyga berilgan vazifalarni bajarish. Yangi bilimlarni mustaqil o'rganish. Kerakli ma'lumotlarni izlash va ularni topish yo'llarini aniqlash, Internet tarmoqlaridan foydalanib ma'lumotlar to'plash va ilmiy

izlanishlar olib borish. Ilmiy to‘garak doirasida yoki mustaqil ravishda ilmiy manbalardan foydalanib ilmiy maqola (tezis) va ma’ruzalar tayyorlash kabilar talabalarning darsda olgan bilimlarni chuqurlashtiradi. Ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi. Uy vazifalarini tekshirish va baholash amaliy mashg‘ulot olib boruvchi o‘qituvchi tomonidan, konspektlarni va mavzuni o‘zlashtirish darajasini tekshirish va baholash esa ma’ruza darslarini olib boruvchi o‘qituvchi tomonidan har darsda amalga oshiriladi.

Mustaqil ishni tashkil etish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatma va tavsiyalar, keys- stadi, vaziyatli masalalar to‘plami ishlab chiqiladi. Unda talabalarga asosiy ma’ruza mavzulari bo‘yicha amaliy topshiriq. keys-stadilar yechish uslubi va mustaqil ishlash uchun vazifalar belgilanadi.

Tavsiya etilgan mustaqil ish mavzulari

24. O‘rta Osiyodagi tarjima maktablari haqida taqdimot tayyorlash.
25. O‘rta Osiyodagi ilk tarjima asarlari haqida ma’lumotlar to‘plash.
26. O‘zbek va ularning tarjimalari haqida taqdimot tayyorlash.
27. O‘zbekistondagi tarjimachilik tarixi haqida ko‘rgazmali portfolio tayyorlash.
28. Ingliz tilida yaxshi sifatlarga ega professional tarjimon CV (ma’lumotnoma) sini tayyorlash.
29. Guruhdoshingiz bilan tarjimonga ish beruchi tashkilot rahbari sifatida og‘zaki intervyu so‘rovnoma o‘tkazish.
30. Tarjimon etikasining buzilishi holatiga oid muammoli vaziyat yarating va uning echimi haqida axborot tayyorlang.
31. Tarjima ishini loyihalashtiring.

Dasturning informatsion – metodik ta’minoti

Mazkur fanni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan.

- Mutaxassislikka kirish fani ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;
- O'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda aqliy hujum, "bumerang", guruhli fikrlash pedagogik texnologiyalarini qo'llash nazarda tutiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Asosiy adabiyotlar

1. Baker Mona. Translations Studies. University of Manchester, 2009. 1571 pp
2. Douglas Robinson. An Introduction to the Theory and practice of translation. Second Edition. 2003 New York. 318 pp.
3. Nancy Matis. How to manage your translation projects/Translation of French book: Comment gerer vos projects de traduction.(c)Edi.pro.2010. 211 pp.
4. G'afurov I. Tarjimashunoslik mutaxassisligiga kirish. T., 2008. 232 b.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. G. Odilova, U. Mahmudova. O'zbek tarjimonlari va badiiy tarjimalar. Toshkent, 2012. 119 b.
2. Lawrence Venuti. The translators Invisibility. London & New York. 2004. 366 pp.

Internet saytlari

9. <http://webcache.googleusercontent.com/search?q=cache:JiVGDDOwUwsJ:www.englishspace.com/+&cd=1&hl=ru&ct=clnkwww.yourengr.narod.ru>
10. http://www.translation.net/languages/english_translation_software.html
11. https://translate.google.com/translate?hl=ru&sl=en&u=http://www.translationzone.com/&prev=searchwww.translator_tips.Com
12. teneta.rinet.ru/rus/pe/parshin-and_teoria-i-praktika-perevoda.htm
13. <http://www.translatortips.net/tranfreearchive/tf07.htmlwww.google.ru>

II. O'QUV-METODIK MATERIAL

1-Ma'ruza

Tarjima tarixi

Reja:

1. Yer yuzidagi ilk tarjimalar Qur'on, Bibliya tarjimalari.
2. Yer yuzidagi ilk tarjimalarga bo'lgan ehtiyoj.
3. Ilk tarjima asarlarning shakl va mazmuni.
4. O'rta Osiyodagi ilk tarjimalar.
5. Babil, Bag'dod, Rim, Venetsiya tarjima maktablarida amalga oshirilgan tarjima ishlari. Qadimda tarjimaning davlat boshqaruvidagi roli.

Tayanch so'z va iboralar: *tarjima, qadimiy tarjima maktablari, tarjimaning rivojlanish bosqichlari, turkiy, forsiy adabiyotdan tarjimalar*

Qadimdan tarjima nafaqat muloqot vositasi, balki davlat va jamiyatni boshqarish quroli sifatida siyosiy ahamiyat kasb etgan. Bibliya tarjimasini ming yillar mobaynida tarjima haqidagi sharqona qarashlar va nazariyalar o'rtasidagi tushunmovchilik va muammolarga sabab bo'lib keldi. XV yangicha islohotlarga sabab bo'ldi. Oddiy hayotga moslashgan kishilar ongi Bibliya va boshqa yuksak uslubdagi diniy va ruhiy kamolotiga bag'ishlangan adabiyotlar tarjimasidan so'ng, kishilar dunyoqarashida o'zgarish sodir bo'ldi, yangi mamlakatlar va milliy madaniyatlarni kashf eta boshladi. Yevropada Uyg'onish davri yuzaga keldi¹.

Diniy matnlar tarjimasini tarjima tarixida nihoyatda muhim o'rin tutgan. G'arbda tarjima tarixidagi eng yirik loyiha bu qadimiy Bibliyaning eng birinchi nusxasini grek tiliga tarjima qilishga qaratilgan edi. Mazkur yirik loyihaga yetmishdan ortiq olimlar jalb etildi. Mazkur tarjima ishi Bibliyaning boshqa tillarga tarjimalari uchun asos bo'lib xizmat qildi.

Arablar Greklar bilan olib borgan jang-u jadallar oqibatida falsafiy va ilmiy adabiyotni ham o'rgandilar, o'rta asrlarda grek tilidan arabchaga o'girilgan yirik adabiyot lotin tiliga tarjima qilindi. Mazkur tarjimalar Ispaniyadagi Kordoba maktabida amalga oshirilgan bo'lib, arab uyg'onish davriga poydevor bo'lib xizmat qildi. V asrda arab yozuvi kashf etilganidan so'ng arab tiliga tarjima ishlari avj oldi. Eron, Gretsiya, va Xitoy o'rtasidagi diplomatik va siyosiy yozishmalar arab tiliga tarjima qilindi. Bog'doddagi yirik islom markazlari Al-Azar, Al-Nizomiya, Al-Karounda grek va fors mumtoz asarlari Xitoy va Hind qo'lyozmalari tarjima qilinib ilmiy o'rganildi. Natijada arab madaniyati Grek va Eron madaniyatiga nisbatan yaqin Sharq an'analarini o'zida ko'proq aks etdi.

O'rta Osiyodagi ilk tarjimalar qadimiy Eron hududida amalga oshirilgan bo'lib, Avestoning eski eroniy tildan o'rta forsiy (pahlaviy) tiliga tarjimasini edi. Eng yirik tarjima maktabi esa qadimiy grek mumtoz adabiyoti namunalarini arab tiliga tarjima qilish bilan shug'ullangan Bag'dod tarjima maktabidir. Keyingisi esa

¹ O.Mo'minov, O.Sunnatov. History of translation. Tashkent. 2008. -P.17.

İspaniyadagi Toledo maktabi bo'lib, arab tilidagi ilmiy ishlarni g'arbiy Yevropa tillariga tarjima qilish bilan shug'ullangan. VIII asr oxiri va IX boshlarida Bag'dod tarjima maktabi O'rta Osiyo va Eronlik faylasuf olim va tarjimonlarni o'z bag'riga jamlagan ilm maskaniga aylandi. IX asrda Halifa Horun ar-Rashid va o'g'li al-Ma'mun tomonidan turli sohada faoliyat yurituvchi olimlar to'planib, Bag'dodda "Bayt ul-Hikma" akademiyasi tashkil etildi. Sharqning yuzlab olimlari faoliyat yuritgan mazkur akademiyada ilmiy tadqiqot laboratoriyalari, 400 mingdan ortiq kitobdan iborat kutubxona, madrasa va qiroatxonalar hamda tarjimonlar uchun maxsus xonalar mavjud edi. Mazkur dargohda tarjimonlar g'arbiy adabiyotlarni arab tiliga tarjima qilardilar. Bu davrda asosan qadimgi vavilon, grek, misr, fors va hind tilidan arab tiliga ilmiy va badiiy adabiyotga oid nodir qo'lyozmalar tarjima qilingan. Al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oni, Ahmad Javhariy, Ahmad ibn Abdulla Marvazi, Yahyo ibn Muhammad Sag'ani kabi olimlar Gippokrat, Ptolemeyning yirik ilmiy asarlarini arab tiliga tarjima qilganlar. Bu davrda arab tilida yaratilgan nodir ilmiy asarlar, xususan, algebra faniga oid Al-Xorazmiy yaratgan meros G'arbiy Yevropada tarjimaning xizmati o'laroq mashhurlik qozondi va asli arab tilidan olingan "Algebra" fanining yaratilishiga sabab bo'ldi.

XIV-XV asrda Xorazm tarjima maktabiga asos solindi. Bu maktab vakillari tomonidan – Narshaxiyning "Tahkik ul-viloyat", Nizomiy Ganjaviyning "Husrav va Shirin", She'roziyning "Guliston", Ali Yazdiyning "Zafarnoma", Nizomiyning "Mahzan ul-asror", Muhammad Solihning "Shayboniynoma", Firdavsiyning "Shohnoma", Nasihatul-mulk" asarlari, "Qobusnoma" turkiy tilga tarjima qilindi. Farobiy, Ibn Sino, Beruniy kabi qomusiy olimlar hind, arab, fors, grek, sug'd, yahudiy tillaridan turkiy tilga ilmiy va badiiy adabiyotlarni tarjima qildilar.

O'zbekistonda badiiy tarjimaning rivojlanish bosqichlarini quyidagi davrlarga ajratib chiqish mumkin:

I-VIII asr – Avesto tarjimasi

IX asr - Bag'dod tarjima maktabi

(Al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oni, Ahmad Javhariy, Ahmad ibn Abdulla Marvazi, Yahyo ibn Muhammad Sag'ani)

X asr – Xorazm tarjima maktabi (Farobiy, Ibn Sino, Beruniy)

XI-XIII – Kalila va Dimnaning turk tiliga tarjimasi

(Amir Shayx Ahmad), Mahmud Qoshg'ariyning "Devon-u lug'ati turk" asarida turkiy so'zlarning arab tilidagi izohlarini ko'rsatib bergan yirik lug'atning yaratilishi, Abulqosim Mahmud bin Umar Zamaxshariyning arabcha-forscha lug'ati - "Muqaddimatul adab" asarining dunyoga kelishi.

XIV-XV – fors va arab tilidan turkiyga tarjimalar (Haydar Horazmiy, Mavlono Lutfiy, Alisher Navoiy)

XVI-XVII – fors va arab tilidan turkiy tilga tarjimalar (**Binoiy, Xislat, Muhammad Darveshali Buxoriy, Dilovarxo'ja, Muhammad Temur**),

Shuningdek, A.Navoiyning “Majolis un-nafois”, Boburning “Boburnoma” asarlari fors-tojik tiliga tarjima qilindi.

XVIII-XIX – Turkiy adabiyotga forsiydan tarjimalar(Muhammadrizo Ogahiy, Haydar Xorazmiy, Tabibiy, Mirzo, Habibiy).

XX – Jahon adabiyotidan o‘zbek tiliga tarjimalar (Cho‘lpon, Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Mirzakalon Ismoiliiy, Oybek, H.Olimjon, Abdulla Qahhor, Mirtemir, Qodir Mirmuhammedov, Vahob Ro‘zimetov, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Ibrohim G‘afurov, Nizom Komilov, Ozod Sharafiddinov, Amir Fayzulla, Ahmad Otaboev va boshql.).

XI asr – O‘zbek adabiyotidan va o‘zbek adabiyotiga bevosita tarjimalar (Begoyim Holbekova, Qosimboy Ma‘murov, A‘zam Obidov, Alisher Otaboev, Garri Dik, A‘zam Obidov, Hafiza Qo‘chqorova, Saodat Kamilova, Mahmuda Sayidumarova va boshq.)

Nazorat uchun savollar:

1. O‘rta Osiyodagi ilk tarjimalar qaysi hududda amalga oshirilgan?
2. Ispaniyadagi Toledo tarjima maktabi nima maqsadda tashkil qilingan?
3. IX asr Bag‘dod tarjima maktabi vakillari kimlar?
4. Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘ati turk” nomli turkiy so‘zlarning arab tilidagi izohlarini ko‘rsatib bergan yirik lug‘at nechanchi asrda yaratilgan?
5. O‘rta Osiyoda tarjima tarixini davriylashtirib ko‘rsatib bering

Mustaqil ish topshiriqlari:

- 1.O‘rta Osiyodagi tarjima maktablari haqida taqdimot tayyorlang.
2. O‘rta Osiyodagi ilk tarjima asarlar haqida ma‘lumotlar to‘plang.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O.Mo‘minov,O.Sunnatov. History of translation. Tashkent.2008.
2. Susan Bassnet. Translation studies. 3rd edition. Taylor & Francis e-Library, 2005.188 pp.

O'zbekiston va Jahon oliy ta'lim tizimida tarjima nazariyasining fan sifatida o'qitilishi

Reja:

1. O'zbek tarjimashunosligi asoschilari, o'zbek tarjimashunosligidagi qarashlar, tarjima maktablari va o'zbek tarjimachiligi namoyondalari.
2. O'zbek tiliga rus tili orqali tarjimalar tahlili yutuq va nuqsonlar.
3. Asliyatdan uzoqlashuv omillari, bevosita va vositachi til orqali tarjimalar.
4. Jahon oliy ta'lim tizimida badiiy tarjimaning akademik disiplina sifatida o'qitilishi tajribasi

Tayanch so'z va iboralar: *vositachi til orqali tarjima, asliyat, Amerika adabiyotidan tarjima, rus adabiyotidan tarjima, asliyatdan tarjima, akademik disiplina.*

Tarjima ishlarining O'zbekistonda borishi haqida so'z borsa eng avval tarjimachilik va tarjimashunoslik istilohlarining mazmunini aniqlashtirib olish zarur.

Tarjimachilik – tarjima qilish jarayonlari, bosqichlari, yutuq va nuqsonlari, tarjimonlar haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Tarjimashunoslik – tarjima nazariyasi va amaliyotini akademik fan sifatida qabul qilish bosqichlaridan tortib, mazkur fanni ilmiy tadqiq qilish, fanning nazariyasi va amaliyoti muammolari, fanning tadqiqotchi olimlari va ularning konsepsiyalarini o'z ichiga oladi.

O'zbek tarjimachiligi

Tarjimashunos olimi N.Vladimirovning ta'kidlashicha – o'zbek kitobxonlarini rus va jahon adabiyoti bilan tanishtirgan ilk ro'znoma “Turkiston viloyatining gazetisi” bo'lib, 1888-yildayoq uning sahifalarida yozuvchi va shoirlar ularning hayoti va ijodiga oid qisqacha ma'lumotlar, bosilib chiqa boshladi. Bu ma'lumotlar mazkur gazetaning “Har turlik xabarlar” sahifasida berib borilar edi. XIX asrning 80-90 yillarida “Turkiston viloyatining gazetisi” rus adabiyoti bilan o'zbek kitobxonlarini ilk bora tanishtirgan ro'znomalardan hisoblangan. “Turkiston viloyatining gazetisi” ro'znomasi sahifalarida rus yozuvchilarining yubileylari, tug'ilgan kunlarini nishonlash rasmiy tusga kirgan². Chop etilgan tarjimalarda tarjimonlarni tarjimon emas, balki “ag'daruvchi”, “o'giruvchi”, “cheviruvchi” deb atashgan. 1883-1890 yillarga qadar gazeta sahifalarida Jukovskiy, Gogol, Turgenev, Tolstoy, Mayakovskiy, Fet, Pushkin, Krilov ijodidan tarjimalar nashr etildi. O'sha davr tarjimashunosligiga baho berar ekan, olimi N.Vladimirova shunday deydi: “Inogda original peredayotsya verno, esli ne schitat dobavleniy.(-194.B)”. O'sha davr tarjimachiligining boshida Fitrat, Sattorxon, Ibrat, Mulla Abdullalar turganlar. 1911-yilda ingliz yozuvchisi Daniel Defoning

² Н.В.Владимирова. Развитие Узбекской прозы XX века и вопросы художественного перевода. отв. ред. Н.Ф.Каримов. – Ташкент: – Фан, – 2011. – Б.191.

rus tili orqali o'zbek tiliga o'girilgan "Robinzon Kruzo hikoyasi" jahon adabiyotidan o'zbek tiliga tarjima amaliyotini boshlab bergan o'ziga xos voqealardan biri bo'lgan.

1920-yillarda tarjimalar nafaqat mazmun, balki hajm va struktura jihatdan ham usliyatga yaqinlashib bordi. O'sha davrlarda bayoniy tarjima ancha urf bo'lgan. U paytdagi tarjimalar haqida so'z borar ekan, tarjimaning asosiy tamoyili etib mazmunni yetkazib berish tanlanganligini ta'kidlash mumkin. 1920-yillarda kitobxonlar uchun yaxshi badiiy asar bu hamma uchun tushunarli bo'lgan asar hisoblangan. Shu sababdan ham mutarjimlar asarni o'zbekchalashtirib, o'zbek tilida oson tushuntirishga intilganlar. Natijada chop etilgan ilk badiiy tarjimalarda badiiy intepretatsiya izidan chiqqan va turli koloritlar qorishib ketgan. Masalan, 1927-yilda Mopassan ijodiga bo'lgan qiziqish kuchayadi. Parda Tursun va Ma'ruf Hakim tomonidan qilingan tarjimalar keyinchalik Y.Po'latov, B.Ermatov va boshqa olimlar dissertatsiyalarining obyekti bo'lib xizmat qildi. Mazkur tadqiqotlarda tarjimalarda milliylikning buzilib ketishi masalalari jiddiy tanqid ostiga olinadi. Tarjimonlar ro'yxatiga A.Ayub, O.Hoshimov, S.Siddiq, S.Valiev kabi tarjimonlar qo'shila bordi. Tarjimonlar ichida Said G'ani Valiev va Abdulla Qodiriy tarjimalari tanqidchilar tomonidan ijobiy qarshi olingan. 1920 yilda deyarli jurnallarning har bir nomerida Chexov hikoyalari tarjimasini bosilib turgan. Vaziyat taqozosidan respublikada eng yetakchi gazeta va jurnallar – "Turkiston" ("Qizil O'zbekiston"), "Alanga", "Mushtum", "Inqilob", "Er yuzi", "Maorif va o'qituvchi" larda A.Qodiriy, Cho'lpon, N.Alimuhamedov, A.Qahhor, A.Rahimi, M. Ismoilov kabi tarjimonlarning Chexov ijodidan tarjimalari muntazam bosilib turdi. Tarjimon yozuvchilar asosan o'sha davr mafkurasiga mos, nashr etishda muammosiz olqishlanadigan asarlarni birin-ketin tarjima qila boshladilar. SHu sababdan bu yillarda chet el adabiyotidan ko'ra rus adabiyotidan ko'proq tarjima qilish urfga kirdi.

XX asrning 50-yillarida o'zbek tarjimonlarining Amerika adabiyotidan tarjima qilish ishlari qizg'in tus oldi. Tarjimalar rus tilidagi variantlarga asoslandi. Bu davrda Amerika adiblarining ko'plab hikoyalari tarjimalari respublika gazeta va jurnallarida chop etildi. SHuningdek, 1958 yili Fattoh Abdullaev tarjimasida Jek Londonning hikoyalar to'plami, 1959 yili bir guruh tarjimonlar tomonidan Mark Tvenning "Hikoya va pamfletlari" nashr qilindi. 1960 yili Mark Tvenning "Tom Soyerning boshidan kechirganlari" va "Gaklberri Finning boshidan kechirganlari" kabi sarguzasht asarlarini Odil Rahimiy o'zbek tiliga o'girdi.

60-yillarda Jon Ridning "Dunyoni titratgan o'n kun" asari Malik Rahmon, Bicher Stounning "Tom tog'aning kulbasi" asari SHarif Rizo tarjimasida o'zbek kitobxonlariga taqdim etildi. Keyinroq O.Genrining "So'nggi yaproq" to'plami V.Abdullaev va T.Pidaev tarjimalarida, Jek Londonning "Hayotga muhabbat" hikoyalar to'plami F.Abdullaev tarjimasida chop qilindi. Edgar Poning "Tilla qo'ng'iz" hikoyalar to'plami H.Ro'zimetov, Jek Londonning "Qish haqidagi qissa" hikoyalar to'plami bir guruh tarjimonlar, Mark Tvenning "SHahzoda va gado" kitobi Nurbek, "Janna D'ark" esa R.Komilov tarjimasida, E.Xemingueyning "Ch

ol va dengiz” asari I.G‘afurov tarjimasida nashr etildi.

She‘riy tarjima sohasida esa 30-yillardan boshlangan harakat 50-60 yillarga kelib ancha susaydi. Xususan, ingliz tilidan bevosita o‘giradigan tarjimonlarning yo‘qligi, tarjima tanlovi erkinligini chegaralab qo‘ydi.

V. Shekspir sonetlarini o‘zbek tiliga o‘girish ishlari 1964 yildan boshlab rivojlandi. Bu ishning boshida turganlardan biri atoqli adib, shoir va dramaturg M.Shayxzodadir. U 1964-1966 yillarda Shekspirning bir qancha sonetlarini o‘zbek tiliga mahorat bilan tarjima qildi. Shekspir tavalludining 400 yillik yubileyi munosabati bilan Maqsud Shayxzoda uning 5-, 11-, 13-, 17-, 18-, 21-, 22-, 25-, 29-, 49-sonetlari tarjimasiga qo‘l urdi. Ularning ayrimlari “Sharq yulduzi” jurnalida, ba‘zilari respublika gazetalari sahifalarida, qolganlari shoirning olti tomlik asarlaridan joy oldi. Shuningdek, turli matbuot nashrlarida Yusuf Shomansur, Zohidjon Obidov va Shunqor tomonidan amalga oshirilgan tarjimalar e‘lon qilindi³. Yusuf Shomansur V.Shekspir sonetlari tarjimalari bilan shug‘ullanishda muntazam davom etdi va 1978-yili G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti orqali o‘zi tarjima qilgan 154 sonetni ilk bor to‘liq holatda nashr ettirdi. Ushbu sonetlar to‘plami Shekspir ijodining turli qirralari bilan o‘zbek kitobxonlarini tanishtirish ishlarida mamlakatimiz tarjimonlari qo‘shgan katta va benazir ulush bo‘lganligini alohida qayd etmoq lozim. To‘plamdagi sonetlar S.Marshakning bevosita ingliz tilidan qilgan o‘girmasi asosida bajarilgan. Tan olmoq lozimki, rus tili mustaqillikkacha o‘zbek xalqini jahon madaniyati bilan tanishtirish ishlarida ko‘prik vazifasini o‘tadi. Jahon adabiyoti durdonalari ruscha nashrlardan o‘zbek tiliga o‘girildi. “Yaqin vaqtlar ichida bevosita roman-german tillaridan tarjima qilishga ko‘chish ishi real vazifa bo‘lishi qiyin. Shuning uchun bu ishda tarjimaning boshqa vosita va imkoniyatlaridan foydalanish mumkin. Shunday imkoniyatlardan biri – taglamadir (podstrochnik)”, – degan edi taniqli tarjimashunos G‘.Salomov⁴. Darhaqiqat, o‘sha yillar tarjimashunosligi uchun bilvosita tarjima sohani rivojlantirish uchun yagona imkoniyat edi. Tarjimonlar taglamaga suyanib tarjima qilishga kirishdilar. Ammo xorijiy til mutaxassislarining adabiy jarayonlardan uzoqligi va yetarli darajada adabiyot bilan bog‘liq bilim va tushunchalarga ega emasligi soha rivojiga jiddiy to‘sqinlik qilardi. Shunday bo‘lsa-da, G‘arb adiblari asarlarini bevosita til, ya‘ni rus tili orqali tarjima qilish ancha muvaffaqiyatli kechdi. Bu ishning tashabbuskorlari va ijrochilari o‘zbek shoirlari va adiblari bo‘ldi. V.Shekspir, F.Shiller, V.Tell, G.Mann, A.Zegers, aka-uka Grimmlar, F.Volf, I.R.Berxer kabi qator G‘arb adabiyoti namoyandalari asarlarining ruscha tarjimalari o‘zbek tiliga o‘girildi. Shuni aytish kerakki, shu davrlarda G‘arb lirikasini bilvosita rus tili orqali bo‘lsa ham o‘zbek tiliga o‘girish ishlari rus adabiyoti targ‘iboti kabi qizg‘in kechmagan. O‘zbek shoir-tarjimonlarining bu sohadagi faoliyati, asosan, dramalar tarjimasini bilan

³ Бу ҳақда қаранг: Бақоева М.Кўрсатилган манба. – Б. 30.

⁴ Саломов Ғ. Адабий аъъана ва бадиий таржима. – Тошкент: Фан, 1980. – Б. 57

cheklanganligini ko'rish mumkin. V. Shekspirning "Hamlet", "Qirol Lir", "Otello", "Romeo va Juletta" fojialari, "Ikki veronalik" va "Qish ertagi" komediyalari kabi bir qator asarlari, Fridrix Shillerning "Makr va muhabbat" va "Qaroqchilar" dramasi, "Vilgelm Tell", "Mariya Styuart" tarixiy tragediyasi rus tilidan o'zbekchaga o'girildi. Shu tariqa taglama tarjimachiligida bilvosita va bevosita tarjima shakllari rivojlana boshladi.

O'z navbatida o'zbek adiblarining ijod mahsullarini ham bevosita rus tiliga tarjima qilish boshlanib, u orqali sobiq Ittifoq o'lkalariga o'zbek adabiyotini tanishtirishda katta qadam tashlandi. Rus tili orqali yozuvchilarimiz asarlari ingliz, fransuz, nemis va boshqa tillarga tarjima etildi⁵.

Tarjimashunoslarning fikricha, sobiq Ittifoq davrida o'zbek tilidan rus tiliga taglama asosida amalga oshirilgan tarjimalarning ko'pchiligi muvaffaqiyatli chiqqan. Bunga sabab, tarjimonlarning muallif yashagan muhit va millat mentalitetidan yaqin xabardorligi bo'lgan, desak xato bo'lmas. Zero, rus tarjimonlari shoirlarimiz ijodidan, xalqimiz turmush tarzi va ma'naviy tafakkuridan yaxshigina xabardor bo'lganlar.

O'zbek tarjimashunosligi

XX asr boshlarida O'zbekistonda tarjima tarixi shunisi bilan xarakterlanadiki, tarjima va asliyat adabiyoti bir-biridan ajralmagan holatda tarjimon yozuvchining uslubini hosil qilib kelgan, ya'ni, bir tarjimonga tegishli turli yozuvchilar ijodiga mansub asarlarning turkum tarjimalarida bir xil uslub sezilib turgan. SHu jarayonda tarjima nazariyasi va amaliyoti masalalari maydonga kela boshladi. O'sha yillardagi tarjimalarni tahlil qila turib tarjimachilikda ta'bnig, badiiy tafakkur va professionalizmning shakllanish yillari bo'lgan deyish mumkin. Tarjimonlar evolyusion bosqichni boshdan o'tkazganlar. Dastlab maqsad shunchaki tarjima ma'nosini uzatish qilib olingan bo'lsa, keyingi yillarga kelib tarjimada badiiylik, uslub, so'z tanlashga e'tibor qaratila boshlandi. Rus olimlari A.Fyodorov, V.Komissarov, L.Barxudarovlarning tadqiqotlaridan kelib chiqib, o'zbek tiliga tarjima nazariyasi va amaliyoti masalalarini fan sifatida shakllantirgan olim G'aybullo Salomov edi.

O'zbek tarjimachiligining rivojiga ulkan xissa qo'shgan tarjimonlar bilan bir qatorda bu sohaning jonkuyarlari xisoblangan tarjimashunos olimlar maydonga kela boshladi.

Tarjimashunoslarning bir guruhi (J.Sharipov, Y.Po'latov, M.Rasuliy, N.Vladimirova) o'z tadqiqotlarida O'zbekistonda badiiy tarjima tarixini tadqiq etgan bo'lsalar, keyingi guruh olimlar (G'.Salomov, N.Komilov, H.Karomatov, K.Karomatova, N.Vladimirova, K.Tojiev, K.Jo'raev, M.Xolbekov, A.Abdullajonov, L.Xo'jaeva, S.Shukurullaeva, F.Salimova, Y.Egamova, N.Otajonov, R.Fayzullaeva, I.G'afurov, E.Ochilov, M.Javbo'riev, S.Jabborov, O.Rustamov, R.Karimov, S.Ochilovlarning) tarjima prinsiplarining evolyutsion shakllanib borishi nazariy asoslari, qiyosiy tarjimashunoslik ilmi takomiliga oid yirik ilmiy tadqiqotlar yaratdilar. Keyingi davrlarda tarjima usuli va uslublarining

⁵ Шарипов Ж. Бадий таржима ва мохир таржимонлар. – Тошкент: Фан, 1972. – Б. 200.

nazariy aspektlari, tarjima badiiyati va tarjimon mahorati haqida Q.Musaev, D.G'ulomova, M.Baqoeva, S.Sirojiddinov, N.Isamuhamedova R.Karimov, S.Q.Abilov, G.Odilova, O'.H.Yusupova, M.V.Akramjanova, D.N.Turg'unpo'latova kabi tarjimashunoslarning tadqiqotlari yuzaga keldi.

2008-yilda Prezidentimiz I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida badiiy tarjimaga alohida e'tibor qaratib, "ilgari o'zbek adabiyoti namunalarini boshqa tilga tarjima qilish asosan rus tili orqali amalga oshirilardi. Bu borada qilingan katta ishlarni munosib baholagan holda, endilikda adabiyotimizning eng yetuk asarlarini bevosita ona tilimizdan G'arb va Sharq tillariga tarjima qilishga qaratilgan ishlarni kuchaytirishimiz zarur"⁶ deb bergan ko'rsatmalaridan so'ng o'zbek adabiyotidan chet tillariga bevosita tarjima ishlari davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Zero, bugungacha adabiyotimizning 10% ham xorijiy tillarga tarjima qilinmagan. Bu esa o'zbek xalqining badiiy kamoloti, ma'naviyati haqida jahon ommasi ongida bu xalq adabiyoti haqida keng tasavvur hosil bo'lmaganidan dalolat beradi.

Keyingi yillarda o'zbek adabiyotidan va o'zbek adabiyotiga bevosita tarjima sohasida dadil qalam surayotgan Begoyim Xolbekova, Qosimboy Ma'murov, A'zam Obidov, Dinara Sultonova Alisher Otaboev, Mahmuda Saydumirova, Hafiza Qo'chqorova, Saodat Kamilova kabi tarjimonlarni tilga olishimiz mumkin. Umuman olganda 2000 yillarga kelib, O'zbekistonda bevosita tarjima maktabi mexanizmi shakllandi. Olib borilayotgan ishlarga tarjimashunos olimlar bilan bir qatorda "Jahon adabiyoti", "O'zbekiston adabiyoti va san'ati", "Yer yuzi", "Yoshlik", "Filologiya masalalari" kabi ilmiy va adabiy nashrlarning ham hissasi katta. Ushbu gazeta va jurnallarda bosilayotgan maqola va taqrizlar badiiy tarjimalar sifatining oshishiga xizmat qilmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekiston oliy o'quv yurtlarida tarjimon kadrlarni tayyorlashga ham katta e'tibor qaratildi. Tarjimashunoslik va badiiy tarjima fanlari bo'yicha yangi o'quv dasturlari yaratilib, zamonaviy tarjimashunoslik talablari darajasida o'qitish yo'lga qo'yildi.

Jahon oliy ta'lim tizimida badiiy tarjimaning akademik fan sifatida o'qitilishi tajribasi

Qadimdan tarjima faqatgina diniy va siyosiy matnlarni o'girish uchun emas, balki insonlar o'rtasida muloqot quroli sifatida ham muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Taraqqiyot jadallik bilan rivojlanib borar ekan, bu jarayonda tarjimaga bo'lgan ehtiyoj tabiiy ravishda oshib boradi. 2008-yilda Yevropadagi tarjima industriyasi iqtisodiy ko'rsatkichi 5.7 million evro deb baholandi.

Tarjima akademik fan sifatida XII asrning ikkinchi yarmida o'rganila boshlandi. Ingliz tilli davlatlar orasida bu fan 'translation studies' (tarjimoni o'rganish yoki tarjimashunoslik) nomi bilan ataladi. Asli nemis bo'lgan amerikalik

⁶Karimov I. Юксак маънавият – энгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – Б. 139.

olim J.S.Xolms (1924–1986) 1972-yilda chop etilgan, biroq 1988-yilgacha keng omma hukmiga havola etilmagan ilmiy tadqiqotida mazkur fanning tarjima va tarjima qilish fenomeni doirasidagi muammolarni o‘rganadigan mustaqil akademik fan ekanligini ta’kidlaydi⁷.

Tarjimashunoslik tarixida tarjimaning fan sifatida shakllanishi evolyutsion rivojlanib bordi Y.G.Nayda, Yakobson, Peter Nevmark, Alan Daff, Alan Malley, Alfred Kurilla, Shvetser.A.D, Barhudarov L.S, Komissarov kabi xorij olimlarining tadqiqotlari va bu fanning nazariy asoslari tizimlashtirish jarayonida muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qildi.

1995-yilga kelib Meri Snel Xornbey (Translation Studies: An Integrated Approach) Tarjimashunoslik: Integrallashgan yondashuv kitobida tarjimashunoslikning nazariy aspektlarini belgilab beradi⁸. Taniqli tarjimashunos olimi Mona Beker *Routledj tarjima ensiklopediyasida* mazkur fan haqidagi turli xil keng va umumiy qarashlarni aniq va optimal tizimga solib ko‘rsatib beradi⁹. Mazkur ensiklopediyaning 2008-yil nashr chop etilgan qayta nashrida esa olimi tarjimashunoslik fanining boshqa fanlar bilan uzviy bog‘liqligi, fan sifatida aspektlarga bo‘lingungacha bo‘lgan evolyutsion bosqichlarini ko‘rsatib berdi.¹⁰

Ingliz tarjimashunosi Robinson, badiiy tarjima kasb sifatida daromadli soha hisoblanmaydi va Buyuk Britaniyada badiiy asar tarjimonlarining to‘liq ish kunida bandligini ta’minlay oladigan ishchi o‘rinlarning yo‘qligi sabab, ba’zi tarjimashunos olimlar bu sohani o‘qitish uchun moliyaviy asos yo‘qligini e’tirof etishayotganligini ochiq tan oladi¹¹. Britaniya mualliflar huquqlarini himoya qilish jamiyatining xabar berishicha, bugungi kunda Buyuk Britaniyada nashriyotlarida chop etilayotgan kitoblarning 3% nigina tarjima adabiyotlar tashkil etmoqda¹². Xo‘sh, unda badiiy tarjima dunyoning eng taraqqiy etgan davlatlari ta’lim tizimi e’tiboridan butunlay chetda qoldimi? Boshqa tarafdin, bugungi kunda Angliyada badiiy tarjimini qo‘llab-quvvatlovchi fondlar chet tillaridan ingliz tiliga badiiy tarjimalarni amalga oshirayotgan tarjimonlarni moliyaviy rag‘batlantirish, kitoblarni nashr etish va taqdirlash ishlari bilan shug‘ullanmoqdalar:

The Oxford-Weidenfeld Translation Prize

The Times Stephen Spender Prize for Poetry Translation

The Corneliu M Popescu Prize for Poetry in Translation

The John Dryden Translation Competition.

Shuningdek, Amerika va Angliyadagi (ALTA, ATISA, <https://www.bridportprize.org.uk/>) turli tarjimonlar asotsiatsiyalari ham aynan

⁷ Holmes 1988b/2004: 181

⁸ Mary Snell-Hornby .Translation Studies: An Integrated Approach.1995.

⁹ Mona Baker and Malmkjær .The Routledge Encyclopedia of Translation 1998: xiii.

¹⁰ Baker and Saldanha 2009: Copyright Taylor & Francis xxii.

¹¹ Robinson, Douglas Becoming a Translator. An Introduction to the Theory and Practice of Translation, London/New York: Routledge. 2003. –P.59-60.

¹² <http://www.societyofauthors.org/translation-faqstda>

mustaqil tashkilot sifatida yillik a'zolik badallari va turli xil fondlar ko'magida badiiy tarjima bo'yicha yillik konferensiya va seminarlar o'tkazish, shu sohaning yangidan yangi nazariy va amaliy jihatlarini qamrab olayotgan ilmiy maqola va tezislar to'plamlarini chop etish, badiiy asar tarjimonlarining yirik loyihalarini moliyalashtirish bilan shug'ullanib kelmoqdalar. Garchi so'nggi 15 yil ichida Angliyada badiiy tarjimani asosiy akademik fanlar qatorida o'qitilishiga katta e'tibor qaratilgan bo'lsada, endilikda bu ehtiyojga qarab amalga oshirilmoqda. YA'ni, etakchi oliy o'quv yurtlarida yozgi(3-4 haftalik) pullik malaka oshirish kurslari tashkil etilgan. U erda talabalar, shu sohaga qiziquvchi yoki aynan badiiy tarjima faoliyati bilan (noshirlik industriyasida litsenziyalar olish maqsadida) professional shug'ullanishni istagan da'vogarlarining o'z arizalari va mablag'lari hisobidan sohaning etakchi professorlari ma'ruzalari, etuk tarjimonlarning haftalik master-klass darslari tashkil etilgan. Pullik kurslar yakunida esa tinglovchilarga shu fandan malaka oshirganligi to'g'risidagi sertifikatlar taqdim etiladi.

Garchi bugungi kunda ham turli fondlar rahnamoligigida qo'llab-quvvatlanayotgan xorijlik tarjimonlarning ishlari yuksak bahoni olayotgan bo'lsada, Angliyada badiiy tarjimaning akademik ditsiplina sifatida yo'qolib ketish havfi katta ekanligi haqidagi yirik tahliliy maqola Guardian (*Friday 16 November 2007*) onlayn versiyasida e'lon qilingan edi. Maqola muallifi mazkur ro'znoma muxbiri Richerd Li sarlavhaning o'zidayoq (Lost: Translation - Yo'qolgan: Tarjima) muammoning nechog'lik dolzarb ekanligini o'quvchiga etkaza olishga harakat qilgan.

Richerd Lining ta'kidlashicha, Germaniyada bir yilda nashr etilayotgan tarjima adabiyoti 13%, Fransiyada 27%, Ispaniyada 28%, Turkiyada 40% va Sloveniyada 70% ni tashkil etayotgan bir paytda Angliya va Amerikada bu ko'rsatkich bor yo'g'i 2-3% ni tashkil etmoqda. Endilikda xorijiy mualliflarning o'z asarlarini chet tilida yozayotganliklari va ba'zi nashriyot agentliklarning hattoki, "tarjima" degan so'zni kitob muqovasidan olib tashlayotganliklari aynan haridorlar talabi bo'lib, xorijiy mualliflar asarining ingliz tilidagi tarjimasidan ko'ra usha muallifning o'zi ingliz tilida yozgan asariga talab yuqori ekanligi aytiladi ¹³.

Demak, 90% adabiyoti chet tillariga tarjima qilingan, dunyoda tahminan 430million kishi asosiy til sifatida, 505 million kishi ikkinchi til sifatida so'zlashadigan ingliz tili vakillarini hamon badiiy tarjima fanini o'qitish muammosi tashvishgan solayotgan ekan. O'zbekistonda bu borada qilinishi kerak bo'lgan ishlar ko'lami qanchalik keng ekanligini tasavur qilish mumkin. Xorijlik olimlar badiiy tarjima sohasida to'plangan ko'p yillik tajriba va maktabning yo'q bo'lib ketishi, "badiiy asar tarjimoni" kasbining iste'moldan butunlay chiqib ketishi havfi haqida bong urishmoqda. Ko'p yillik tanaffusdan keyin endigina yangidan rivojlanish bosqichini boshdan kechirayotgan zamonaviy o'zbek tarjimashunosligini esa boshqa masala – har tomonlama etuk va professional mahoratga ega bo'lgan badiiy asar tarjimonlarini etishtirish masalasi qiziqtiradi. Sababi, O'zbekistonda o'zbek adabiyotidan chet tiliga bevosita tarjima qilinayotgan asarlar yiliga xorijda o'ta ayancli deya e'tirof etilayotgan 2-3%

¹³ Richard Lea. Lost: translation <http://www.theguardian.com/books/2007/nov/16/fiction.richardlea>

mustaqil tashkilot sifatida yillik a'zolik badallari va turli xil fondlar ko'magida badiiy tarjima bo'yicha yillik konferensiya va seminarlar o'tkazish, shu sohaning yangidan yangi nazariy va amaliy jihatlarini qamrab olayotgan ilmiy maqola va tezislari to'plamlarini chop etish, badiiy asar tarjimonlarining yirik loyihalarini moliyalashtirish bilan shug'ullanib kelmoqdalar. Garchi so'nggi 15 yil ichida Angliyada badiiy tarjimoni asosiy akademik fanlar qatorida o'qitilishiga katta e'tibor qaratilgan bo'lsada, endilikda bu ehtiyojga qarab amalga oshirilmoqda. YA'ni, etakchi oliy o'quv yurtlarida yozgi(3-4 haftalik) pullik malaka oshirish kurslari tashkil etilgan. U erda talabalar, shu sohaga qiziquvchi yoki aynan badiiy tarjima faoliyati bilan (noshirlik industriyasida litsenziyalar olish maqsadida) professional shug'ullanishni istagan da'vogarlarining o'z arizalari va mablag'lari hisobidan sohaning etakchi professorlari ma'ruzalari, etuk tarjimonlarning haftalik master-klass darslari tashkil etilgan. Pullik kurslar yakunida esa tinglovchilarga shu fandan malaka oshirganligi to'g'risidagi sertifikatlar taqdim etiladi.

Garchi bugungi kunda ham turli fondlar rahnamoligida qo'llab-quvvatlanayotgan xorijlik tarjimonlarning ishlari yuksak bahoni olayotgan bo'lsada, Angliyada badiiy tarjimaning akademik ditsiplina sifatida yo'qolib ketish havfi katta ekanligi haqidagi yirik tahliliy maqola Guardian (*Friday 16 November 2007*) onlayn versiyasida e'lon qilingan edi. Maqola muallifi mazkur ro'znoma muxbiri Richerd Li sarlavhaning o'zidayoq (Lost: Translation - Yo'qolgan: Tarjima) muammoning nechog'lik dolzarb ekanligini o'quvchiga etkaza olishga harakat qilgan.

Richerd Lining ta'kidlashicha, Germaniyada bir yilda nashr etilayotgan tarjima adabiyoti 13%, Fransiyada 27%, Ispaniyada 28%, Turkiyada 40% va Sloveniyada 70% ni tashkil etayotgan bir paytda Angliya va Amerikada bu ko'rsatkich bor yo'g'i 2-3% ni tashkil etmoqda. Endilikda xorijiy mualliflarning o'z asarlarini chet tilida yozayotganliklari va ba'zi nashriyot agentliklarning hattoki, "tarjima" degan so'zni kitob muqovasidan olib tashlayotganliklari aynan haridorlar talabi bo'lib, xorijiy mualliflar asarining ingliz tilidagi tarjimasidan ko'ra usha muallifning o'zi ingliz tilida yozgan asariga talab yuqori ekanligi aytiladi ¹³.

Demak, 90% adabiyoti chet tillariga tarjima qilingan, dunyoda tahminan 430million kishi asosiy til sifatida, 505 million kishi ikkinchi til sifatida so'zlashadigan ingliz tili vakillarini hamon badiiy tarjima fanini o'qitish muammosi tashvishgan solayotgan ekan. O'zbekistonda bu borada qilinishi kerak bo'lgan ishlar ko'lami qanchalik keng ekanligini tasavur qilish mumkin. Xorijlik olimlar badiiy tarjima sohasida to'plangan ko'p yillik tajriba va maktabning yo'q bo'lib ketishi, "badiiy asar tarjimoni" kasbining iste'moldan butunlay chiqib ketishi havfi haqida bong urishmoqda. Ko'p yillik tanaffusdan keyin endigina yangidan rivojlanish bosqichini boshdan kechirayotgan zamonaviy o'zbek tarjimashunosligini esa boshqa masala – har tomonlama etuk va professional mahoratga ega bo'lgan badiiy asar tarjimonlarini etishtirish masalasi qiziqtiradi. Sababi, O'zbekistonda o'zbek adabiyotidan chet tiliga bevosita tarjima qilinayotgan asarlar yiliga xorijda o'ta ayanchli deya e'tirof etilayotgan 2-3%

¹³ Richard Lea. Lost: translation <http://www.theguardian.com/books/2007/nov/16/fiction.richardlea>

tilni ham tashkil etmaydi. Qilinayotgan tarjimalar asosan zamonaviy adabiyotidan o'girilgan bo'lib, asosan mualliflarning o'z sa'yi-harakatlari evaziga bajarilmoqda. SHu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 13 maydagi "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida"gi PF-4797-son Farmoni asosida "O'zbek-ingliz tarjima" fakulteti tashkil etildi. Ilmiy, badiiy va boshqa sohalardagi adabiyotlarni o'zbek tilidan ingliz va boshqa xorijiy tillarga, shuningdek, jahon tillaridan ona tilimizga yuksak sifat va mahorat bilan tarjima qiladigan tarjimonlar tayyorlash vazifalari belgilab berildi. Mazkur tarixiy farmon o'zbek tarjimashunosligida yangi bosqich yasadi desak mubolag'a bo'lmaydi. Sababi, o'zbek-ingliz tarjima nazariyasi va amaliyoti yo'nalishining o'quv rejasini ishlab chiqishda dunyoning etakchi oliy o'quv yurtlarida shu yo'nalishda o'qitiladigan fanlar va mavzularga muvofiq keluvchi dasturlar ishlab chiqildi.

Nazorat uchun savollar:

1. O'zbekistonda ilk tarjima qachon va qaerda nashr etilgan?
2. Ilk o'zbek tarjimonlaridan kimlarni bilasiz?
3. "Tarjimachilik" va "Tarjimashunoslik" istilohlarini izohlab bering.
4. 1920 yilda amalga oshirilgan tarjimalarda qanday o'zgarish sodir bo'ldi?
5. XX asrning 50-yillarida o'zbek tarjimonlari orasida qaysi xalq adabiyotidan tarjima qilish urfga kirdi?
6. Ilk o'zbek tarjimashunos olimlaridan kimlarni bilasiz?
7. Horijiy tarjimashunos olimlarning ishlarini sanab bering.

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. O'zbek tarjimonlari va ularning tarjimalari haqida taqdimot tayyorlang.
2. O'zbekistonda tarjimachilik tarixi haqida ko'rgazmali portfolio tayyorlang.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Douglas Robinson. An Introduction to the Theory and practice of translation. Second Edition. 2003 New York. 318 pp.
2. Nancy Matis. How to manage your translation projects/Translation of French book: Comment gerer vos projets de traduction.(c)Edi.pro.2010. 211 pp.
3. G'afurov I. Tarjimashunoslik mutaxassisligiga kirish.T., 2008. 232 b.

TARJIMA JARAYONI VA TARJIMONNING SIFATLARI

Reja:

1. Tarjima jarayoni
2. Tarjimaga ichki va tashqi yondoshuv
3. Professional tarjimonga xos sifatlar
4. Tarjimonning bilimlari

Tayanch soʻz va iboralar: *tarjima, asliyat tili, tarjima tili, ichki yondashuv, tashqi yondoshuv, tarjimonga xos sifatlar, professional mahorat, yaxshi tarjimon sifatleri, tarjimon bilimlari.*

Ingliz tilida ilk bor 1340 yilda qoʻllangan “translation” tarjima istilohi qadimgi fransuz tilidan yanayam aniqrogʻi lotin tilidagi “translatio” (uzatish) soʻzidan olingan boʻlib, uzatmoq, olib oʻtmoq etkazib bermoq degan maʼnolarni anglatgan. Bugungi kunda tilda “tarjima” soʻzi quyidagi maʼnolarni anglatadi:

1. **Muayyan fan sohasi yoki fenomen** (men tarjimani universitetda oʻqiganman)

2. **Mahsulot** yaʼni tarjima qilingan matn (ular maʼruzaning arab tiliga tarjimasini chop etishdi)

3. **Tarjimani ishlab chiqarish jarayoni yohud tarjima qilish** (tarjima xizmati) Ikki turli til orasida asliyat tili (asliyat tili yoki AT) da yozilgan (asliyat matni yoki AM) matni boshqa tildagi (tarjima matni yoki TM) boshqa til (TT-tarjima tili) dagi yozma shakldagi matnga oʻtkazish jarayoni:

Asliyat matni (AM) Tarjima matni (TM)

Asliyat tili (AT) Tarjima tili.

Tarjima tushunchasi turli guruhdagi kishilar oʻrtasida har xil tushuniladi. Tarjimon boʻlmagan kishilar uchun bu shunchaki oddiy matn, tarjimonlar uchun esa bu jarayon hisoblanadi. Bu ichki (internal) va tashqi (external) yondoshuv tarjimon va tarjimon boʻlmagan kishilarning mazkur istilohga boʻlgan munosabatida aks etadi:

Ichki yondashuv (internal)

Tarjimon tarjimaning murakkab jarayon ekanligini xis etadi. Tarjimada asliyatga yaqinlashuv omillarini biladi. Tarjima jarayonida yuzaga keladigan muammolarni bartaraf eta oladi. Hech qaysi tarjima yuz foiz asliyatga muqobil emasligini tushunadi.

Tashqi yondashuv (external)

Tarjimon boʻlmagan shaxs (tarjima tili oʻquvchisi yoki biror asarni tarjima qildirayotgan mijoz yoki kitob savdosi bilan shugʻullanuvchi) tarjimaga tashqaridan qarab, qanday amalga oshirilganini bilmasdan baho beradi.

Ichki internal yondoshuvda yaʼni biz buni soddaroq qilib aytatdigan boʻlsak, “**tarjimonlar nigohi**” dan qaraganda tarjima deganda keng qamrovli jarayon tushuniladi yaʼni: tarjimon boʻlish, mahsus tarjimalar uchun takliflar olish,

ma'lumotlarni ilmiy tadqiq qilish, jamoa bilan ishlash(shu sohaga aloqador ekspertlar bilan maslahatlashish), so'zlarni tarjima qilish, iboralar va registr so'zlarni tarjima qilish yo'llari ustida ishlash, mazkur matnga oid ekstralingvistik ma'lumotlarni to'plash, tarjimani tahrir qilish, yakunlangan ishni ish beruvchi yoki mijozga topshirish, yakunlangan ish uchun mijozdan xizmat haqi olish. Bu jarayonda tarjima qilinayotgan matn ham ishning muhim qismi hisoblansa-da, tarjima deganda birgina matnning o'zi emas, ko'p bosqichli bir jarayon hamda shu jarayonning ajralmas qismi bo'lgan ma'lum matn tushuniladi.

Tashqi eksternal yondoshuv ya'ni, "**notarjimon nigohi**" bilan qaraganda, tarjima matni bir mahsulot sifatida baholanadi. YA'ni, notarjimon buyurtmachi o'zi buyurtma bergan tayyor mahsulotni tarjima deb hisoblaydi va mahsulotni sotib oladi. Ko'p xolatlarda notarjimon buyurtmachilarni internal yondoshuv jarayonlari qay darajada aniq va haqqoniy amalga oshirilganligi emas, balki buyurtma o'z belgilangan muddatida bajarilganligi va uni sotish(kitob savdosi bilan shug'ullanuvchilarda), marketing masalalari ko'proq qiziqtiradi. Zero, notarjimon ishga tashqi baho bera oladi xolos. Ichki mazmun internal yondoshuv bu o'rinda mavhumligicha qoladi. Demak, yuqoridagi ikki yondoshuvdan kelib chiqib, tarjimaga quyidagicha ta'rif berish mumkin:

Tarjima qilish: jarayon (tarjima qilish ob'ektning moddiyligi emas, balki faoliyat hisoblanadi);


Tarjima: tarjima jarayoni mahsuli (masalan: tarjima qilingan matn);

Tarjima: deb tarjima jarayoni va uning mahsulini qamrab oladigan mavhum konseptga ham aytiladi.

Tarjima turlari

Tarjima og'zaki va yozma turdagi matnlarni qamrab oluvchi umumiy istiloh hisoblanadi. YOzma tarjima (Translation) yozma matnlarni, og'zaki tarjima(Interpreting) og'zaki axborotlarni bir tildan ikkinchi tilga uzatishdir.

Biz tanlagan mutaxassislik ya'ni **badiiy asar tarjimoni** yozma tarjimaning bir tarmog'i bilan shug'ullanuvchi shaxs hisoblanadi:



Badiiy asar tarjimoni tarjima sohalari ichida eng murakkab kasb egasidir. Sababi, unda iqtidoriga qarab nasriy yoki she'riy asarni tarjima qila olish qobiliyati tabiatan mavjud bo'lishi kerak. Quyida **1.Umumiy yaxshi tarjimonga xos sifatlarni; 2.Badiiy asar tarjimoniga xos sifatlarni sanab o'tamiz:**

1. Yaxshi tarjimonga xos umumiy sifatlarni nimalardan iborat?

- chet tilini chuqur bilish;
- professionalizm;
- tarjima qilinayotgan mavzuni tushuna olish;
- bir tilda ifodalangan g'oyani ikkinchi tilda asliyatga yaqin holda uzatishga qodir bo'lish;
- TTda o'rtachadan yuqori yozish qobiliyatiga ega bo'lish;
- keng qamrovli bilim;
- ikki til madaniyatidan to'la habardorlik;
- aql teranligi;
- mayda detallarga e'tibor va hissiy sezuvchanlikning yuqoriligi;
- tarjima sohasidagi mahsus istilohlarni tushunish, malaka va tajribaga ega bo'lishlik;

2. Badiiy asar tarjimoniga xos maxsus sifatlarni nimalardan iborat?

- keng dunyoqarash;
- olam lisoniy manzarasini anglash;
- she'riy yoki nasriy matn yarata olish;
- asliyat ruhiyatiga kira olish;
- asliyat ruhiyatini qayta yarata olish;
- muallif uslubini aniqlash va qayta yaratish;
- sabr-toqat va ishni oxiriga etkaza olish;
- madaniyatlararo muloqotda vujudga keladigan to'siqlarni bartaraf eta olish;
- asliyat matniga xos ma'noviy (ekstralingvistik) bilimlarga ega bo'lish;
- matnni tahrir qila olish.

Demak, sanab o‘tilgan sifatlar ichida birinchi turkum umumiy tarjimonning sifatleri bo‘lsa, har ikkala turkum sifatlar badiiy asar tarjimonida bo‘lishi shart. Quyida tarjimonga xos umumiy va mahsus sifatlardan kelib chiqib tarjimonning umumiy bilimlariga tavsif beramiz:

1. Professional mahorat: Tarjimonda etika ya’ni kasb odobi bo‘lishi nihoyatda muhimdir. Tarjimon qaysi narsani tarjima qilish va keragida qanday tarjima buyurtmasini rad etishni yaxshi bilishi kerak (bu masalaga 4-ma’ruzada alohida to‘xtalamiz).

2. Jamoada ishlay olish mahorati: Kishilar tarjima yakka tartibda amalga oshiriladigan ish deb o‘ylaydilar. Biroq, tarjimon ish jarayonida turli soha vakillari bilan muloqotga kirishadi va virtual jamoa tashkil topadi. Ba’zida yirik loyihalarni amalga oshirishda loyiha rahbarlari tarjimonlar guruhini shakllantiradilar. Ba’zan esa tarjima xizmatlari uchun mijozlarni jalb qilish kerak bo‘ladi. Marketing va reklamani kirishimli kishilargina amalga oshira oladilar. SHu sabab tarjimonda kirishimlilik va tashkilotchilik qobiliyati bo‘lishi ham muhim sanaladi.

3. Mayda detallarga e’tibor va hissiy sezuvchanlikning yuqoriligi: Agar siz imloviy xatolarga bee’tibor bo‘lmasangiz, gap mazmuniga qarab tushib qolgan so‘z, ibora yoki harflarni o‘tkir nigoh bilan payqash qobiliyatiga ega bo‘lsangiz, bu kasb aynan siz uchun. Sababi, asliyatdagi matnni chop etish jarayonida sodir etilgan imloviy, uslubiy va juz’iy xatoliklar tarjima matniga ham ko‘chib o‘tishi mumkin.

4. Adaptatsiya va moslashuvchanlik: tarjimonlik tez-tez o‘zgarib turadigan kasb. Tarjimon bo‘lib ishga joylashgan kishi, ish hajmi va turiga qarab, o‘z ishini muntazam ravishda o‘zgartirib turishiga to‘g‘ri keladi. Tarjimon buyurtmadan kelib chiqib zudlik bilan ishlash uslubini o‘zgartirishi – kopirayterlik (nusha ko‘chiruvchi), transkripsiyalovchi (lug‘at va qomuslar tuzishda), muharrir va nashrga tayyorlovchi xizmatlarni ham bajara olishi kerak.

5. Vaqtni to‘g‘ri taqsimlay olish: tarjima belgilangan vaqtda tugallanishi qat’iy bo‘lgan xizmat turi hisoblanadi. Mijozning hurmati va ishonchiga sazovvor bo‘lish uchun belgilangan vaqtda buyurtmani bajarish lozim. Agar tarjimon o‘z vaqtini to‘g‘ri taqsimlay olmasa, har qancha mahoratli bo‘lmasin, mijoz oldida o‘z hurmatini yo‘qotishi mumkin

6. Yozish mahorati: bu eng muhim faktorlarda biridir. Tarjimon bu salkam professional yozuvchi. Agar bu badiiy bo‘lsa badiiy uslubda, ilmiy matn bo‘lsa ilmiy uslubda, publitsistik bo‘lsa, publitsistik uslubda matnni qayta yarata olgan tarjimongina o‘z ishining ustasi sanaladi. Buning uchun u tarjima va asliyat tilining lug‘at boyligi, grammatikasi va uslubini mukammal bilishi kerak. Chet tili tarjimonlari uchun esa talaffuz sofligi ham mijozlar oldida ijobiy yoki salbiy tasavvur hosil qiladigan nihoyatda muhim faktor hisoblanadi.

7. Umumiy bilim: umumiy bilim tarjimon uchun muhim sanaladi. Agar tarjimon dunyoda kechayotgan jarayonlardan xabardor bo'lsa, tezkor axborotlarni o'qib tursa, bu unga tarjima jarayonida qo'l kelishi mumkin. Sababi, ba'zan tezkor nashrlarni chop etishda tarjima vaqt ziqligi sabab ba'zan noto'g'ri manbalar orqali qilinishi mumkin. SHu sabab, tarjimonning kunlik axborotlarni ko'rib turish, yuz berayotgan siyosiy va ijtimoiy jarayonlar haqidagi ma'lum bir bilimlarga ega ekanligi o'z ishi uchun ijobiy samara beradi.

8. Analitik bilim: tarjimon birinchi navbatda eng yaxshi kitobxon bo'lishi kerak. Ma'lum bir jummalarni tarjima qilishdan oldin bu so'z, jumla, yoki matn retseptorga qay darajada etib borishi, qanday qabul qilinishini oldindan tahlil qila olishi kerak. SHundagina tarjima o'qishli chiqadi o'quvchi va mijoz mamnun bo'ladi.

9. Tadqiqotchilik mahorati: har bir tarjima bir tadqiqot degani. Tarjimon mahsus sohaga oid tarjimalarni qilish uchun tezkorlik bilan matndagi notanish sohaviy so'zlar lug'atni tuzadi. Har birining ma'nosi ustida ishlaydi. Bu jarayonga u do'stlari, tanish bilishlari soha mutaxassislaridan maslahat so'raydi, internet resurslari va glossariylar bilan ishlaydi.

10. Turli sohalarga oid bilimlarga egalik: tarjimonning qanchalik turli sohalarga ega bilimlari ko'p bo'lsa, u o'z rezyumesida buni aks ettirishi mumkin. Masalan, huquq, meditsina, mexanikaga oid bilimlari yoki uning xobbisi bo'lgan sport haqida bahsga kirisha olishi, shu sohaga oid istilohlar ma'nosini tushuna olishi uning professional kasbiy faoliyatida ham qo'l kelishi mumkin. Tarjimon o'zining qiziqishlaridan kelib chiqib, o'ziga yaqin va tanish bo'lgan sohalarga oid bilimlarini jamlab ularni tarjima tilida qay darajada bilishini sarhisob qilsa va o'z ustida izlansa, bu bilimlar uning professional xaritasining rang-barangligini va u kengprofellik tarjimon ekanligini ko'rsatadi.

11. Qiziquvchanlik: Qiziquvchanlik tarjimonga xos eng yaxshi sifatlardan biri. Tarjimon qiziquvchan bo'lsa o'z ustida ishlaydi, yangi va unga notanish bilimlarni o'zlashtiradi, o'zi ko'p duch keladigan yangi so'zlarni to'plab lug'atlar yaratishi, tarjima muammolarini bartaraf etish yo'llari ustida izlanishi va mijozning ko'nglini topishi mumkin.

12. Xorijiy tillarni bilish savodxonligi: o'zi tarjimani amalga oshiradigan xorijiy tilda ko'p va xo'p o'qishi va uqishi. Ya'ni matnda nima deyilgani emas nima anglashilayotganligini teran nigoh bilan tushuna olishi kerak. Chunki ba'zida matndagi satr osti,botiniy ma'nolarning mavjudligi, tarjimani noto'g'ri yo'llarga burib yuboradi. Bunday holatlarni esa, til savodxonligi baland bo'lgan tarjimongina bartaraf eta oladi. Bunda ko'proq horijiy tilda ilm tamosha qilish, radio eshitish, va kitob o'qish yaxshi samara beradi.

13. AT savodxonligi: zamonaviy texnologiyalar asrida tarjimonlar internet, elektron pochta orqali muloqotga kirishadilar, fayllar bilan ishlashda turli dasturlar, sahifa va formatlash texnologiyalaridan qo'llaydilar. Shuningdek, elektron lug'atlar va tarjima ishini osonlashturuvchi komyuter ta'minotidan foydalanadilar.

Shuning uchun professional tarjimon ilg'or texnika yutuqlarini o'z sohasida samarali qo'llay olish qobiliyatiga ham ega bo'lishi kerak.

14. Madaniyatlararo muloqotdan yaxshi xabardorlik: tarjima jarayonida madaniyatlararo kommunikatsiya yuzaga keladi. Bu kommunikatsiyani to'g'ri amalga oshirish esa tarjimonga bog'liq. Sababi, bir madaniyatda me'yor hisoblangan ba'zi tushunchalar keyingi madaniyat uchun salbiy bo'yoq kasb etishi mumkin.

Nazorat uchun savollar:

1. "Tarjima" istilohi qanday ma'noni anglatadi?
2. AT, AM, TT, TM qisartmalariga izoh bering.
3. Tarjimaga ichki va tashqi yondashuv nima?
4. Badiiy asar tarjimoniga xos sifatlarni sanab bering.
5. Tarjimonga analitik bilim nima uchun kerak?

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. Ingliz tilida yaxshi sifatlarga ega professional tarjimon CV(ma'lumotnoma)sini tayyorlang.
2. Guruhdoshingiz bilan tarjimonga ish beruchi tashkilot rahbari sifatida og'zaki intervyu so'rovnoma o'tkazing.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Douglas Robinson. An Introduction to the Theory and practice of translation. Second Edition. 2003 New York. 318 pp.
2. Nancy Matis. How to manage your translation projects/Translation of French book: Comment gerer vos projects de traduction.(c)Edi.pro.2010. 211 pp.
3. G'afurov I. Tarjimashunoslik mutaxassisligiga kirish.T., 2008. 232 b.

4-Ma'ruza

TARJIMON ETIKASI

Reja:

1. Tarjimonning professional g'ururi
2. Kasbga bahshidalik
3. Tarjimon etikasi
4. Tarjimada tezlik
5. Tarjimonning ish xaqi

Tayanch so'z va iboralar: *tarjimon g'ururi, analitik bilim, tarjimon etikasi, kasb odobi, tarjimada tezlik, professional g'urur, tarjimonning ruhiy holati.*

Tarjimonning professional g'ururi

Tarjimonlik fidoiylilik va mehnatni talab qiladigan o'ta mashaqqatli kasbdir. Tarjimonda professional g'urur bo'lishi kerak. Oddiy hayotda ishchi yoki xizmatkor ishni yakunlaganligi uchun o'z xizmat haqini oladi. Tarjimon esa faqat tayyor bo'lgan ish – tarjima uchun emas, uning jarayoni va kelajagi uchun ham mas'ul. Mutarjim tarjimani yakunlashni emas, qilgan ishidan kishilarning yillar davomida bahramand bo'lishlarini o'ylasagina, ba'zan mashaqqatli mehnati evaziga kam haq to'lanadigan kasbi – tarjimonlikka butun borlig'ini bahshida eta oladi. Zero, kasbiy g'urur bo'lmasa, katta maosh ham kishiga uzoq davom etadigan rohatni bahsh etishga qodir emas. Xususan, badiiy asar tarjimonida bu g'urur birmuncha yuksak bo'ladi. Sababi, agar tarjimon o'z ishini sevmasa undan g'ururlanmasa, ishni shunchaki qo'l uchida bitirib beradi. Ishonchlilik va kafolat ham tarjimonning imidjida nihoyatda muhim sanaladi. Bu imidjni saqlash uchun tarjimonda professional g'urur bo'lmog'i lozim. Masalan, mijoz tarjimani yakunlab topshirish muddatini belgiladi. Tarjima matni qanchalik murakkab, qanchalik izlanish va nolisoniy axborotlarni o'rganib chiqishni talab etmasin, tarjimon ishni belgilangan vaqtda topshirmog'i lozim. Buning uchun u nafaqat kunduzi balki kechasi ham ishlashiga to'g'ri kelishi, yaqin o'rtog'ining tug'ilgan kuniga bora olmasligi, o'sha buyurtma egasiga topshirilmaguniga qadar o'ziga va oilasiga risoladagidek vaqt ajrata olmasligi mumkin. Mijoz ishni qabul qilib olayotganda har bir varaq matn uchun avvaldan kelishilgan muayyan miqdordagi mablag'ni to'laydi. Bu ishga sarflangan kutilgandan ko'ra ko'proq vaqt yoki tarjimonning ishni yakunlashi uchun qilgan fidoiylklarini moliyaviy rag'batlantirmaydi. Agar tarjimonda professional g'urur bo'lmasa, u o'z kun tartibiga xech bir o'zgartirish kiritmaydi, ishni vaqtida topshirish uchun u qadar jonbozlik ko'rsatmaydi. Nolisoniy axborotlar yig'ish va analitik tahlildan o'tkazishni ham ortiqcha deb bilishi mumkin. Asliyat tilini bilmaydigan mijoz biroz kech bo'lsa-da olib ketar, ammo tarjimonning imidjiga bundan putur etadi.

Uzog'i bilan bir-ikki yilda mijozlar uning professionalligiga shubha bilan qaray boshlaydilar. Chunki, tarjima ishi mijozga topshirish bilan yakunlanmaydi. Tarjimon qilgan qusurlar tezda ravshanlashib boradi. Agar bu diplomatik xarakterdagi matn bo'lsa tushunmovchiliklarga, texnik matn bo'lsa, nosozliklarga, badiiy matn bo'lsa tanqidlarga sabab bo'lishi mumkin. Ishni qabul qilayotganda mamnun ko'ringan asliyat tilidan bexabar mijoz qisqa vaqt ichida tarjimonning noprofessional ekanligidan norozi bo'lishi, ba'zan qonun yo'li bilan ish uchun to'langan haqni qaytarishini talab qilishi mumkin. Shu sababdan tarjimon professional g'ururga ega bo'lsagina, ish yakunlangach yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tushunmovchiliklarni oldindan ko'ra biladi. Ishga fidoiyona yondashib o'z obro'si va imidjiga putur yetkazmaydi.

Kasbga baxshidalik

Kasbiga baxshida tarjimon ko'p vaqtini ko'p professional mahorati ustida ishlash bilan o'tkazadi. Tarjimonlik asotsiatsiyalariga a'zo bo'ladi, tarjimashunoslik muammolariga bag'ishlangan konferensiyalarda ishtirok etadi. Hamkasblari bilan fikr almashadi, turli loyihalarda ishtirok etadi, tarjimaga oid malaka oshirish kurslarida qatnashadi. Bu jarayonda tarjimonning mahorati oshib boradi. Tarjima qilish qobiliyati oshadi. Tajimashunoslik va tarjimachilikka oid bilim saviyasi oshadi. Professional g'ururi bor tarjimon o'z ustida tinimsiz ishlaydi. Psixolingvistikada shunday tushuncha borki, A tildan B tilga tarjima qiluvchi tarjimon A tilda og'zaki va yozma nutqini yo'qotib boradi. Shu sababdan tarjimon o'z ustida ishlab, ikki tilda (AT va TT)ham tarjima qila olish mahoratini shakllantira olsa, unga bo'lgan talab nihoyatda yuqori bo'ladi.

Tarjimon etikasi

Tarjimon etikasi, ya'ni odobi deganda birinchi navbatda tarjimonning muallif oldidagi odobi tushuniladi. Tarjimashunos olim Lourens Venatti "Tarjima qanchalik asliyatga yaqin bo'lsa, tarjimon shuncha ko'rinmas uning mehnati esa sezilarli darajada bo'ladi" degan edi. Tarjimon asliyat uslubiga xiyonat qilmasdan tarjima qilishi uning odobidan darak beradi. Zero har bir yozuvchi va shoir o'z uslubi, voqelikni yoritib berishga bo'lgan individual yondashuviga ega bo'ladi. Odobli tarjimon ana shu uslubga xiyonat qilmay, muallif o'ziga xosligini o'quvchiga yetkazishga harakat qiladi. Ba'zi tarjimonlar esa turli uslubda ijod qiladigan mutlaqo bir-biriga o'xshamaydigan yozuvchilar ishlaridan qilgan tarjimalarida bir xil uslubiy vositalar, o'xshatishlar va tasviriy ifodalarni uchratish mumkin. Odobli tarjimon bunga yo'l qo'ymaydi. U har bir muallif uslubining o'ziga xos qirralarini o'rganib chiqadi va o'sha uslubni imkon qadar kitobxonga yetkazishga harakat qiladi.

Tarjimon etikasining yana bir nozik jihati borki, bunda tarjimonning professional va milliy g'ururi bor yoki yo'q ekanligi muhim ahamiyat kasb etadi. Deylik, tarjimonga u yashayotgan davlatda qonunan ta'qiqlangan diniy adabiyot va materiallarni tarjima qilishi uchun mo'maygina pul va'da qilishdi yoki mamlakatning ichki ijtimoiy, ekologik muammolari yoritilgan matbuot matnlarini

chet tiliga o'girib berish so'raldi. Yoki yoshlar onggiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan jangarilik yoki behayo sahnalari mavjud filmlarni ona tiliga tarjima qilib berish uchun ish taklif etildi. O'z millatini sevmaydigan, milliy g'ururi yo'q tarjimon bunday holatda buyurtmachining kim ekanligi va uning nima maqsadda bu buyurtmani qilayotgani bilan qiziqmaydi. Qonun organlari bilan qilayotgan ishining to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligi haqida maslahatlashmaydi. Bu tarjimonning kasb odobiga rioya qilmasligi, va professional g'ururining yo'qligidan dalolat beradi. Chetdan qaraganda ya'ni tashqi eksternal yondashuvda tarjimon tarjima ishi ya'ni har qanday buyurtmani bajarishi kerak. Biroq ichki internal yondashuvda tarjimon har bir buyurtmani olish, tarjima ishini boshlashdan avval, bu ishning qanchalik to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini tahlil qilishi, o'ziga shubhali ko'ringan ishni qabul qilishdan oldin huquqni himoya qilish organlari bilan maslahatlashib ish ko'rishi, uning kasbiy g'ururga ega ekanligini ko'rsatadi. Tarjimon etikasini qay darajada saqlay bilishi tarjimonning professional imidji uchun muhim sanaladi.

Tarjimada tezlik

Tezlik va daromad hamma tarjimonlar uchun ham bir-biriga bog'liq tushunchalar emas. Sababi tarjima tez bajarildi degani, daromad ko'payadi degani emas. Erkin (freelancer)tarjimongina ishni qancha tez bitirsa, unga yangi buyurtma kelib tushadi. Ko'proq buyurtmadan ko'proq daromad qilish imkoniyati yaratiladi. Biroq uyda o'tirib tarjima qiladigan ijodkor tarjimon uchun tezlik muhim ahamiyat kasb etmaydi.

Tarjimonning tarjima tezligi quyidagi omillarlarga bevosita bog'liq:

Harf bosish

1. Matnning murakkablik darajasi (bu turdagi matn bilan avvaldan tanish bo'lish).
2. Tarjimonning xotira tiniqligi.
3. Shaxsiy xohish va uslub.
4. Ishdagi ruhiy holat, ruhiy zo'riqish.

Omillarning tarjima tezligiga ta'siri tabiiy: qanchalik tez harf terilsa tarjima shuncha tez tugallanadi. Qancha murakkab va notanish matn bo'lsa, shuncha tarjima qilish ishi sekinlashadi. Eslab qolish qobiliyati ham tarjimada jarayonini tezlashtiradi biz bu haqda "tarjimon xotirasi" bo'limida mufassal to'xtalamiz. Shaxsiy xohish va va uslub omilining tarjima tezligiga ta'siri deganda, tarjimonning ishga ijodkorona yondoshuvini tushunish mumkin. Ba'zi tarjimonlarning moliyaviy mablag'ga ehtiyoji yo'qligi tufayli bu ishga shunchaki ko'ngil ishi deb qarashadi. Ya'ni qo'shimcha daromadi bor yoki nafaqa yoshidagi tarjimon bu ish bilan shug'ullanishni sevimli mashg'ulot deb qaraydi. Natijada, tarjima tezligiga unchalik ham e'tibor qaratmaydilar. Uyda tarjima qiladigan tarjimonlarga buyurtma beruvchi mijozlarni ishning tez bitishi qiziqtirmaydi. Ishdagi ruhiy holat, ruhiy zo'riqish ham ish tezligi va sifatiga to'g'ridan-to'g'ri

ta'sir o'tkazuvchi muhim omillardan biri bo'lib, agar tarjimon o'z ish joyida ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar (xonaning noqulayligi, sovuq yoki issiqlik, shovqin-suronning ko'pligi, jamoada o'zaro munosabatda kelishmovchiliklarni yuzaga chiqaruvchi kishilar bilan ishlash va h.k.z) qurshovida bo'lsa, uning ijodkorona kayfiyati tushib ketadi. Bu esa tarjimonning tarjima ruhiyatiga kira olmasligiga sabab bo'lishi mumkin. Xulosa qilib aytganda tarjimon ishni to'g'ri tashkil qilish va samarali faoliyat yuritishi uchun, o'ziga yaxshi sharoit yaratib olishi kerak.

Nazorat uchun savollar:

1. Tarjimonning professional g'ururi nima?
2. Kasbga bahshidalik qanday holatlarda namoyon bo'ladi?
3. Tarjimon etikasi deganda nimani tushunasiz?
4. Tarjimada tezlik qanday omillarga bog'liq?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Douglas Robinson. An Introduction to the Theory and practice of translation. Second Edition. 2003 New York. 318 pp.
2. Nancy Matis. How to manage your translation projects/Translation of French book: Comment gerer vos projets de traduction.(c)Edi.pro.2010. 211 pp.
3. G'afurov I. Tarjimashunoslik mutaxassisligiga kirish.T., 2008. 232 b.

5-Ma'ruza

TARJIMON MAHORATIDA XOTIRANING ROLI

Reja:

1. **Tarjimonning xotirasi.**
2. **Xotira turlari.**
3. **Aqliy va hissiy xotira.**
4. **Kontekst.**
5. **Ko'p turli kodlashtirish.**

Tayanch so'z va iboralar: *reprezentativ xotira, protsessual xotira*

Yaxshi tarjimon ulkan hajmdagi lingvistik birliklar, iboralar va matnlarni yod olishi kerak emas. Tarjimon katta hajmdagi madaniy va lingvisik birliklar ummonida bo'ladi. Ammo xuddi to'tidek tushunsa va tushunmasa ham til birliklarini yod olishi kerak emas. Chunki bu narsa befoyda. Dogmatik birliklarni hissiyot va ma'lum hayotiy jarayonlarga bog'lab yodda saqlab qolish kerak.

Shundan kelib chiqqan holda tarjimon murakab tarjima jarayonida avtomatik ravishda soʻz va birikmalarni tanlab qoʻya oladi.

Tarjimonning soʻzma-soʻz tarjima prinsiplariga yopishib olmasdan, kontekst maʼnosidan kelib chiqqan holda moslasha olish qobiliyati nutqiy birliklarni vaziyatdan kelib chiqib ishlata olish tarjima matni sifatini belgilab beruvchi faktor hisoblanadi. Matn xoh yozma, xoh ogʻzaki boʻlsin tarjimon tomonidan toʻgʻri interpretatsiya qilinishi tarjimaning 1-bosqichi boʻlib, undan keyingi bosqichda tarjimani ekvivalent birliklar bilan almashtirish kerak boʻladi.

Xotira turlari

Olimlarning fikricha xotiraning asosiy 2 xil koʻrinishi bor: representativ xotira: ertalab yegan ovqatingiz, kishilar bilan qilgan muloqotni eslab qolish uchun xizmat qiladi. Protseual-jarayoniy xotira: kundalik bajariladigan ishlar: pochmani tekshirish, ishga mashinani haydab borish kabilarni bajarishni eslab qolish uchun javob beradi. Xotiraning mazkur turi ong ostida bajariladigan ish-harakatlar uchun javob beradi.

Tarjimonga har ikkala xotira ham juda kerak. Representativ xotirasi vositasida tarjimon maʼlum bir tildagi soʻzlarni yoki maʼlum vaziyatda bundan oldin bitta boshqa tarjimon tomonidan aniq bir soʻzning oʻrnida ishlatilgan ekvivalent birlikni yodga olish uchun yordam berishga xizmat qiladi.

Protseual xotira esa asliyat matnini oʻqish, tushunish, tarjimani amalga oshirish, kompyuterda terish va xokazo holatlarda ishlatiladi. Representativ xotira vositasida tarjimon lugʻatdan qaragan soʻzini eslab qolib interpretatsiya qilishini taʼminlasa, protseual xotira esa kontekstdan kelib chiqib ekvivalent tanlash va tarjimaning sifatiga javob beradi. Representativ xotira talabaga qoidani imtihon vaqtida eslashga yordam beradi. Protseual xotira esa katta hayotda shu qoidaga boʻysunuvchi amallarni bajarib, muammolarni hal qilishga yordam beradi. Bu holatda talaba hattoki mazkur qoidani yodlaganini eslay ham olmasligi mumkin, ammo ong ostida joylashgan protseual xotirasi mummoning yechimini taʼminlab beradi.

Yuqorida nomlari keltirilgan xotiraning har ikkalasi ham muhim boʻlgani holda, ularning turli holatlarda foydasi turlicha boʻladi. Tarjima qilinishi nazarda tutilgan matnning grammatik, leksik, morfologik sathlari silliq, tushunarli va aniq boʻlsa, tarjimon matn interpretatsiyasi va tarjimani amalga oshirishda qiynalmaydi. Bu oʻrinda u stress holatida boʻlmaydi va tarjimonning protseual xotirasi ishga tushadi. Tarjimon avtomatik ravishda til birliklarini bir tildan boshqa tilga oʻgirib, tarjima matnini hosil qiladi. Representativ xotira esa asosan stressli vaziyatlar: asliyat matnining noodatiy tuzumiga ega boʻlishi, kamchilikka maʼlum boʻlgan birlik va iboralarning ishlatilishi tarjimondan tezlik va sifatni bir vaqtning oʻzida talab qilinshining natijasida hosil boʻlishi mumkin. Bu xotira vositasida tarjimon katta aqliy amaliyotni bajaradi. Noodatiy yechimlarni topadi. Ong ostida bajariladigan protseual xotira tez tarjimani taʼminlab beradi. Representativ xotira esa asosan muammoli vaziyatlarni hal qilishda qoʻl keladi.

Aqliy va hissiy xotira

Olimlar xotirani shakllantiradigan ikki xil asab tolalarining birikishini ham aytishadi. Ulardan bir gipokain bezi orqali o'tib, insonga faktlarni eslab qolish imkonini bersa, boshqasi miyadagi bodomsimon bez orqali o'tib, shu faktlarga insonning hissiy munosabatini belgilab beradi. Bu xususda Goleman shunday deydi: "Aytaylik avto trassada ketayotib biror bir falokatga uchrasak, gipotalamusdagi xotira orqali biz o'sha vaqtda mashinada kim bo'lgani, yo'lning ahvoli, kun qismi kabi faktlarni eslaymiz; bodomsimon bezdagi xotira tufayli esa keyinchalik shu mashina yoki yo'l yo falokatga tegishli istalgan narsa tufayli ko'nglingizga sarosima va g'ashlik cho'kadi. Le Duksning aytishicha, o'z amakivachchangizni yuzini boshqa odamlardan ajratib olishda gipokamp yordam bersa, unga nisbatan hislaringiz bodomsimon bez vositasida amalga oshiriladi.

Shunday qilib, hissiy eslab qolishning nechog'lik muhim ekanligini ko'rishimiz mumkin. O'zingizga yaxshi ma'lumki, biz yoqtiradiagan va zavqlanadigan narsalarimizni juda yaxshi eslab qolamiz. Bizga qizig'i bo'lmagan faktlarni esa tez unutib yuboramiz. Birinchi bo'sa, birinchi muhabbat va to'y kuni, farzand tug'ilishi kabi xotiralar eng kuchli va shaxsiyatingizni shakllantiruvchi xotiralardir.

Bo'lajak tarjimonlar sifatida siz bu faktlardan o'z foydangizga foydalanib qolishingiz mumkin. Siz o'z ishingiz bo'lmish tarjimoni, tilni qanchalik yaxshi ko'rsangiz bu sizni shu sohada nechog'lik yaxshi mutaxassis bo'lishingizni belgilab beradi. Tarjimon bo'lishingizda yaxshi va yomon emotsiyalaringizni o'z o'rni bor.

Bundan tashqari shu narsa ham ma'lumki, matn tarjimon kundalik hayoti, qiziqishlariga qanchalik yaqin bo'lsa, uni tushunib eslab qolish ham shu darajada oson bo'ladi.

Kontekst

Biror bir qismni butunning bo'lagi sifatida eslab qolish ancha osondir. Alohida olingan, kontekstdan tashqari hodisani yoki leksik birlikni yodda saqlab qolishdan umumga bog'lab xotirada saqlash anchayin samaraliroq. Masalan, bir kishi haqidagi ma'lumotni uning xarakteri, kiyinish uslubiga bog'lab eslab qolish ancha osonroq.

Material va madaniy kontekstlar ham ta'lim jarayonining ajralmas qismidir. Biror bir narsani qilishni rejalashtirgan vaqtingizda ma'lum vaqt o'tib nimadir yodingizdan ko'tarilib qolganini ko'rasiz. Agar rejalashtirgan joyingizga qaytib shu narsani eslashga harakat qilsangiz darrov yodingizga tushadi. Talabalar ham o'rgangan bilimlarini o'tirgan xonalarida yaxshiroq eslashadi. Bu narsa fan tilida "holatga bog'liq ta'lim" deb atalib, kishining emotsional ahvoli va uning eslab qolish qobiliyati o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlab beradi.

Yaxshi yoki yomon muhit, o'ziga xos xotiralar –ular o'z navbatida kayfiyat, u esa o'z navbatida o'zini tutish chegarasini belgilab beradi.

Og'zaki tarjima bilan shug'ullanuvchi tarjimonlar har qanday holat va joyda ham o'z konsepsiyasini yo'qotmasdan ishlay olishlari kerak. Tashqi muhit ularning ish samaradorligiga ta'sir ko'rsatmasligi kerak. Yozma tarjimonlar esa odatda o'z ish joylarini yaxshilab tayyorlab, ish uchun barcha sharoitlarni muhayyo qilib oladilar. O'zlari o'tirgan xona, stol ustidagi anjomlar, ish qurollari va shu kabi mayda detallar ham ish unumdorligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Tarjimonga u yoki bu so'zni esga olish uchun o'sha so'zni yod olgan yoki duch kelgan holatini yodga olishi juda qo'l keladi.

Demak, yuqorida ko'rib o'tganimizdek, tarjima yoki ta'lim jarayoni bizga qanchalik yaqin bo'lsa, uni amalga oshirish samaradorligi shuncha yuqori bo'ladi. Xususan, sinfxonada shunchaki vaqtni o'tkazish yoki vazifani bajarish uchun yod olingan dialoglardan ko'ra haqiqiy tajriba va real hayot kontekstini nazarda tutgan tarjimalardagi so'zlarni yodda saqlab qolish osonroq va foydaliroq. Dunyodagi eng ilg'or tarjima kompaniyalari shuning uchun ham o'z ta'lim jarayoniga haq to'lanadigan va real hayotda qo'llanadigan amaliyotlarni joriy qilishgan.

Ko'p turli kodlashtirish

Xotiraning eng muhim qoidasi iloji boricha barcha sezgi organlari va his-tuyg'ularni ishga solib eslab qolishdir. Ko'rish, eshitish, ta'm va hid bilish kabi organlar orqali olingan ma'lumotlar quruq yodlashdan ko'ra ancha vaqt esda qoladi.

Garvard universiteti professori Gavard Gardnerning fikricha, IQ testlari orqali aniqlanadigan matematik va lingvistik ong tuzilishidan tashqari yana kamida to'rt xil ong tuzilishi mavjud:

Musiqiy ong-matematik ongga yaqin ong turidir. U kishiga musiqani eshitish, yaratish, ijro qilish va tushunish imkonini beradi.

Makonga oid ong- zamon va makon tushunalarini anglash va eslab qolish, chizish va yaratish kabilarni a'lo darajada bajaradi. Geometrik uyg'unlik va nafis san'at shaydosi va dahosi ongi.

Kinestetik ong-tana harakatlari bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turlari: mimika, raqs, aktyorlik va hokazo.

Emotsional ong-atrofdagilarning ruhiy holatini tushuna olish, kishilarning og'irini engil qilishga intilib yashash, boshqalarni yaxshi narsalarga undash kabi xususiyatlar.

Mantiqiy-matematik ong- matematik shakl va ramzlarni tushuna olish, hisob-kitob va rejalashtirish xususiyati bor.

Lisoniy ong- tilning o'ziga xos xususiyatlari eshitish, tushunish, qayta yaratish, bir tildan boshqatillarga tarjimalarni yaryata olish xususiyatlariga ega.

Yuqorida ko'rsatilgan ong turlaridan tarjimaga zaruri eng oxirgisi bo'lib tuyulsa-da, yaxshi tarjimondan ularning har biridan bir ozdan bo'lishi kerak.

Tarjima jarayonida har bir tarjimon o'zining uslubini yaratar ekan, yuqoridagilarni yodda tutishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'z ongining turidan kelib chiqqan holda talaba o'zi uchun maksimal darajada foydali bo'ladigan ta'lim olish uslubini tanlab olishi mumkin.

Erik Jensen o'z kitobida individual ta'lim olish uslublari farq qiladigan 4 ta holatni ko'rsatib o'tadi: kontekst, qabul qilish, tushunish va javob berish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Douglas Robinson. An Introduction to the Theory and practice of translation. Second Edition. 2003 New York. 318 pp.
2. Nancy Matis. How to manage your translation projects/Translation of French book: Comment gerer vos projects de traduction.(c)Edi.pro.2010. 211 pp.
3. G'afurov I. Tarjimashunoslik mutaxassisligiga kirish.T., 2008. 232 b.

6-Ma'ruza

TARJIMA ISHINI TASHKIL QILISH

Reja:

1. Tarjimani loyihalashtirishning asosiy bosqichlari
2. Ilk aloqa
3. Loyiha shakli tahlili
4. Ishni narhlash
5. Nazorat qilish bosqichi
6. Loyiha yakuni

Tayanch so'z va iboralar: *Loyihani nazorat qilish, mijoz, loyiha rahbari, tarjimonlar jamoasi, elektron resurslar, sarf-harajatlar smetasi.*

Tarjimani loyihalashtirishning asosiy bosqichlari

Tarjimon ishni boshlashdan avval uni loyihalashtirib oladi. Har bir tarjima loyihasi individual xususiyatlaridan kelib chiqib, turli xil o'ziga xos bosqichlardan tashkil topadi. Biroq har bir tarjima loyihasida quyidagi umumiy bosqichlar mavjud:

Har bir tarjimon loyiha rahbari sanaladi. Loyiha rahbarining menedjerlik qobiliyati va ishtirokchilari ahilligi loyihaning qanchalik silliq va tez tayyor bo'lishini ta'minlaydigan asosiy omillardir.

Ilk aloqa

Har bir tarjima loyihasining boshida mijoz va tarjimon o'rtasidagi aloqa o'rnatiladi. Tarjimaning ilk bosqichida buyurtmachining talab va istaklari, tarjimonning xohishi har ikkala tomon uchun tushunarli va shaffof bo'lishi kerak.

Eskitdan tanish mijoz va ishonchga kirgan tarjima byurosi o'rtasida shartnoma imzolash birmuncha oson kechadi. Lekin aksariyat holatda turli xildagi mijozlar bilan ishlashga to'g'ri keladi va ish bajaruvchi tarjimonlar uyushmasi o'z nizomi, shartnoma shartlarini mijozga tushuntirib berishi kerak.

Loyiha shakli tahlili

Loyihaning hajmi va mazmunidan kelib chiqib, mijoz fayllarni taqdim etadi loyiha rahbari esa mazkur ish asosida yangi loyiha ishlab chiqadi yoki mavjud loyihani yangilaydi. Shu bosqichda loyihaning shakli aniqlashtiriladi(elektron ta'minot, hujjat, veb-sahifasi, multimedia va hkz) loyiha bir yoki bir necha sohaga oid ma'lumotlarni o'z ichiga olishi mumkin(marketing broshyurasi, mahsulot litsenziyasi), har bir bo'lim yoki sahifa ko'zdan kechiriladi (gaplar, sahifalar, rasmlar va grafikli jadvallar va h.kz.) mahsulotni tayyorlash jarayonida bajariladigan ishlar rejasi tuziladi (tarjima, tahlil, surishtiruv, ekspert bilan maslahat va h.k.z) va shundan so'ng elektron resurslar hamda loyihada turli xil maqsadli ishtirokchilarning ro'yxati shakllantirib olinadi. Tarjima ishini loyihalashtirishda tahlil nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Ba'zi loyiha rahbarlari vaqtini yoki ish hajmini to'g'ri o'lchash, ish hajmiga qarab narhni belgilash yoki taqsimlashni yo'lga qo'ya olmaydilar. Natijada, loyiha o'z vaqtida tugallanmaydi yoki turli kelishmovchiliklar kelib chiqishi mumkin.

Ishni narxlash

Ish hajmi umumiy ravishda ko'zdan kechirilganidan so'ng loyihani amalga oshirish uchun ketadigan sarf-harajatlar smetasi tuziladi. O'zaro kelishuvlar asosida tarjima loyihasi ishga tushib ketguniga qadar ketadigan sarf-harajatlar tarjima byurosi mablag'lari hisobidan amalga oshirilishi mumkin. Bu ikki xil holatda: 1. Vaqt juda tig'iz, ish qisqa vaqtda bajarilishni talab qilsa (ya'ni umumiy hisob-kitob va buxgalteriya ishlarini amalga oshirishga vaqt tig'izligi bois mijozning o'z taklifi bilan ishning sarf-xarajatlari ish yakunida qilib beriladi). 2. Mijoz va tarjima byurosi o'zaro bir-birini tanigan va ko'p yillar davomida hamkorlik qilgan bo'lsa, mijoz mazkur byuroning insofli va adolatli ish olib borishiga ishonsa, ketadigan sarf-harajatlar ish yakunlangach qilib beriladi. Boshqa holatlarda ketadigan sarf-harajatlar smetasi haqida mijozni xabardor qilmaslik ko'plab tushunmovchilik, va yuridik aralashuvlarni ham talab qilishi mumkin.

Internet orqali erkin tarjimon, ya'ni frilanser bo'lib, virtual ishga qabul qilinayotgan tarjimon onlayn tarjima agentligining talablari va tarjimonga to'lanadigan haq haqida mazkur agentlik web-saytida tanishib chiqishi mumkin. Ba'zan agentlik nizomi va ishga qabul qilinayotgan tarjimonning huquq va majburiyatlari haqidagi yuridik hujjatlarni o'qishga (vaqtini tejash maqsadida) unchalik ham e'tibor bermaydi. Natijada tarjimon ish haqi bilan bog'liq masalalar mavhum bo'lib qoladi ish yakunida ko'plab kelishmovchiliklar yuzaga kelishi mumkin.

Rejalashtirish

Loyiha har tomonlama o'rganib chiqilib narhlanganidan keyingi bosqich uni o'z vaqtida tugatish masalasidir. Loyiha rahbari loyihaning har bir bosqichidagi ish soatlarini hisoblab chiqishi kerak. Bu jarayonda bir-biriga parallel kelib qolishi mumkin bo'lgan ishlarni jadvalga solib, loyihaning tugash sanasiga mos holatda ish taqsimotini qilib qo'yilishi kerak. Yirik tarjima loyihalarini amalga oshirishda hamma ishtirokchilar o'z vazifalarining bajarilish mexanizmi va bajarilish muddatidan to'liq xabardor bo'lishlari kerak.

Loyihani favqulodda ishga tushirish

Ba'zi bir tarjima loyihalari hech bir tayyorgarliksiz zudlik bilan tarjima qilinishni talab qiladi. Boshqalari esa aksincha mijoz tomonidan fayllar, glossariy va kerakli materiallar bazasi yaratilib, loyihaning maketi ma'qullangach, tarjima qilish jarayoni boshlanadi.

Loyihaning hajmi va mazmunidan kelib chiqib, mijoz fayllarni taqdim etadi, loyiha rahbari esa mazkur ish asosida yangi loyiha ishlab chiqadi yoki mavjud loyihani yangilaydi. Shu bosqichda loyihaning shakli aniqlashtiriladi (elektron ta'minot, hujjat, web-sahifasi, multimedia va hkz), loyiha bir yoki bir necha sohaga oid ma'lumotlarni o'z ichiga olishi mumkin (marketing broshyurasi, mahsulot litsenziyasi), har bir bo'lim yoki sahifa ko'zdan kechiriladi (gaplar, sahifalar, rasmlar va grafikli jadvallar va h.kz.) mahsulotni tayyorlash jarayonida bajariladigan ishlar rejasi tuziladi (tarjima, tahlil, surishtiruv, ekspert bilan maslahat va h.k.z) va shundan so'ng elektron resurslar hamda loyihada turli xil maqsadli ishtirokchilarning ro'yxati shakllantirib olinadi. Tarjima ishini loyihalashtirishda tahlil nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Ba'zi loyiha rahbarlari vaqtini yoki ish hajmini to'g'ri o'lchash, ish hajmiga qarab narxni belgilash yoki taqsimlashni yo'lga qo'ya olmaydilar. Natijada, loyiha o'z vaqtida tugallanmaydi yoki turli kelishmovchiliklar kelib chiqishi mumkin.

Ishni narxlash

Ish hajmi umumiy ravishda ko'zdan kechirilganidan so'ng loyihani amalga oshirish uchun ketadigan sarf-xarajatlar smetasi tuziladi. O'zaro kelishuvlar asosida tarjima loyihasi ishga tushib ketguniga qadar ketadigan sarf-xarajatlar tarjima byurosi mablag'lari hisobidan amalga oshirilishi mumkin. Bu ikki xil holatda: 1. Vaqt juda tig'iz, ish qisqa vaqtda bajarilishni talab qilsa (ya'ni umumiy hisob-kitob va buxgalteriya ishlarini amalga oshirishga vaqt tig'izligi bois mijozning o'z taklifi bilan ishning sarf-xarajatlari ish yakunida qilib beriladi). 2. Mijoz va tarjima byurosi o'zaro bir-birini tanigan va ko'p yillar davomida hamkorlik qilgan bo'lsa, mijoz mazkur byuroning insofli va adolatli ish olib borishiga ishonsa, ketadigan sarf-xarajatlar ish yakunlangach qilib beriladi. Boshqa holatlarda ketadigan sarf-xarajatlar smetasi haqida mijozni xabardor qilmaslik ko'plab tushunmovchilik va yuridik aralashuvlarni ham talab qilishi mumkin.

Internet orqali erkin tarjimon, ya'ni frilanser bo'lib, virtual ishga qabul qilinayotgan tarjimon onlayn tarjima agentligining talablari va tarjimonga

to'lanadigan haq haqida mazkur agentlik web-saytida tanishib chiqishi mumkin. Ba'zan agentlik nizomi va ishga qabul qilinayotgan tarjimonning huquq va majburiyatlari haqidagi yuridik hujjatlarni o'qishga (vaqtni tejash maqsadida) unchalik ham e'tibor bermaydi. Natijada tarjimon ish haqi bilan bog'liq masalalar mavhum bo'lib qoladi ish yakunida ko'plab kelishmovchiliklar yuzaga kelishi mumkin.

Rejalashtirish

Loyiha har tomonlama o'rganib chiqilib, narxlanganidan keyingi bosqich uni o'z vaqtida tugatish masalasidir. Loyiha rahbari loyihaning har bir bosqichidagi ish soatlarini hisoblab chiqishi kerak. Bu jarayonda bir-biriga parallel kelib qolishi mumkin bo'lgan ishlarni jadvalga solib, loyihaning tugash sanasiga mos holatda ish taqsimotini qilib qo'yilishi kerak. Yirik tarjima loyihalarini amalga oshirishda hamma ishtirokchilar o'z vazifalarining bajarilish mexanizmi va bajarilish muddatidan to'liq xabardor bo'lishlari kerak.

Nazorat qilish bosqichi

Loyihalarning bajarilishini nazorat qilish bosqichi eng muhim va e'tibor talab jarayondir. Buning dolzarbligi, ayniqsa, loyihaning ustida bir emas, bir necha kishi ishlayotgan bo'lsa, hamda asliyat tilidan bir necha tilga tarjimalar amalga oshirilishi ko'zda tutilgan bo'lsa, yana bir barobar ortadi. Masalan, loyihani topshirish kuni kelganda, ishtirokchi tarjimonlardan biri, asliyat matnini hatto olmaganligi ma'lum bo'lib qolishi mumkin. Shu kabi ko'ngilsiz holatlarning oldini olish maqsadida, tarjima jarayonida qatnashayotgan har bir kishining elektron manzili va aloqa vositalarini olib, ular bilan doimiy muomalada bo'lib turish talab etiladi.

Butun boshli tarjimonlar guruhini nazorat qilish, bitta tarjimonni nazorat qilishdan qolishmaydigan e'tiborni talab etadi. Agar loyihaning kechish samaradorligini kuzatib borish uchun, masalan, har bir vazifani bajarilganlik darajasini doimiy ravishda qayd etib borish ham qo'l kelishi mumkin.

Masalaning moliyaviy tomonini ham ko'zdan qochirmaslik juda muhim; loyihaga kirishilgandan keyin, yo'l-yo'lakay paydo bo'lib qolishi mumkin bo'lgan qo'shimcha xarajatlar, oldin ko'zda tutilmagan chiqimlar paydo bo'lib qolishi mumkin. Byudjetdan chiqib ketmaslik uchun, moliyaviy xarajatlar smetasini oldindan puxtalik bilan tuzish salohiyati talab etiladi.

Loyiha ustida ishlayotgan kishilarning o'z vaqt samaradorliklarini aniqlab olishga ko'mak beradigan usullardan foydalanib borishlari maslahat beriladi. Bunda ma'lum bir ishga sarflanadigan vaqt miqdorini qayd etib, uni uzluksiz ravishda takomillashtirib borishga erishish mahoratini shakllantirish kelajakdagi loyiha ustida ish boshlashda ham juda qo'l keladi.

Loyiha yakuni

Tarjima loyihasi ustida ishlashni tugatish, tayyor bo'lgan tarjima matnini iste'molchiga jo'natib yuborish bilan tugamaydi. Bundan oldin, tarjimani lozim bo'lgan martagacha qaytadan ko'zdan kechirish, o'zgartirilishi yoki tahrir etilishi lozim bo'lgan qismlariga o'zgartirishlar kiritilishi va iste'molchiga yetkazilgandan so'ng ham oxirgi tahrirni amalga oshirishi lozim bo'ladi. Tarjima loyihasining nihoyaga yetkazilishining shartlaridan biri bu- loyiha uchun to'lovning to'lanishi va hisob-kitobning amalga oshirilishi bosqichlarini o'z ichiga oladi.

Har bir tarjima loyihasi, loyiha koordinatori, oddiy ishtirokchisi yoki tarjimon tomonidan katta diqqat va e'tibor bilan yondashilishi lozim bo'lgan jarayondir. Biror bir xato yoki kamchilikka yo'l qo'yish, mijoz bilan aloqaning yomonlashuviga, ba'zan esa butun boshli biznesingizga katta talafotlar yetkazishi mumkin.

Nazorat uchun savollar:

1. Qanday holatda sarf-harajatlar tarjima byurosi mablag'lari hisobidan amalga oshirilishi mumkin?
2. Tarjima loyihasining qanday shakllari mavjud?
3. Loyiha yakuni qanday bosqichlarni o'z ichiga oladi.

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. Mustaqil ravishda loyiha yozing.
2. Mijoz bilan tuziladigan ikki tomonlama shartnoma nusxasini yarating.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Douglas Robinson. An Introduction to the Theory and practice of translation. Second Edition. 2003 New York. 318 pp.
2. Nancy Matis. How to manage your translation projects/Translation of French book: Comment gerer vos projets de traduction.(c)Edi.pro.2010. 211 pp.
3. G'afurov I. Tarjimashunoslik mutaxassisligiga kirish.T., 2008. 232 b.

TARJIMONNING QUROLLARI

Reja:

1. Tarjimonning eng asosiy qurollari.
2. Tarjima ishini osonlashtiruvchi axborot kommunikatsion texnologiyalar.
3. Tarjimonlar uyushmalari va onlayn tarjima lug'atlar.
4. Tarjimonlarni qo'llab-quvvatlovchi fondlar.

Tayanch so'z va iboralar: *SAT, tarjima dasturlari, elektron lug'atlar, glossariylar, tarjima agentliklari, tarjima byurolari*

Zamonaviy tarjimon zamonga hamnafas va mobil bo'lishi kerak. Eng so'nggi kommunikatsion texnologiyalardan xabardorlik, internet va tarjima dasturlari bilan ishlay olish zamon talabidir. Qadimdan tarjimonning asosiy qurollari – qog'oz, siyoh va par bo'lgan. Qadimda tarjimon hattotlik san'atini ham yuqori darajada bilgan shaxs bo'lgan. Avliyo Ieronim shular yordamida Bibliyani tarjima qilgan ilk tarjimonlardan bo'lgan. Natijada bir kunda bir yoki ikki varaq tarjima tayyor bo'lgan. XIX asrda sharikli ruchkaning ixtiro qilinishi tarjimonlar ishini bir muncha osonlashtirgan bo'lsa-da, bu sohadagi eng zo'r revolyutsiya harf teradigan mashinkaning ixtiro qilinishi bo'ldi. Harf terishni o'zlashtirib olgan odam qo'ldan yozadigan kishiga nisbatan birmuncha tez ish bajarishi ma'lum bo'ldi. Bir daqiqada 250-300 harf terish imkoniyati mavjudligi aniqlandi. Biroq harf teradigan mashinka hamma tarjimonlar o'rtasida keng urf bo'lmadi. Bu kashfiyot tarjima sohasi haqidagi fikrlar tarqoqligining yuzaga kelishiga ham sabab bo'ldi. Mashinkada harf terish tarafdorlari "tarjima – bu ish" deb qarasarlar, unga qarshilar "tarjima – bu ijodiy jarayon", tezlik bu jarayonga halal beradi deb hisoblashdi.

Kompyuterlarning paydo bo'lishi

Zamonaviy dunyoda kompyuter texnologiyalarini bilmaydigan tarjimonning ish topishi nihoyatda qiyin. Ko'pchilik tarjimonlik uyushmalari tarjimalarni tahrir qilib, elektron pochta orqali egasiga jo'natishga qulay bo'lgan elektron formatda qabul qilib oladilar. Albatta, bu so'nggi yillardagi talablardan biridir.

Elektron lug'atlar va glossariylar

Qog'ozdagi yozma ma'lumotlar(lug'atlar)dan foydalanishning ikkita noqulay tomoni mavjud:

Birinchidan, bunga ko'p vaqt sarflanadi. Ko'pchilik tarjimonlar so'z tarjimasini ichki bir hissiyot bilan tushunib tursalar-da buni tekshirib ko'rmoqchi bo'ladilar. Bu esa ko'p vaqtni olishi mumkin. **Ikkinchidan** esa lug'atlar ko'p tomli bo'lishi, katta joyni egallashi va chang bo'lishi, sog'liq uchun ziyon keltirishi mumkin. Xullas, arzonligi va qulayligi bilan elektron lug'atlar birmuncha afzal.

Kompyuter yordamida tarjima qilish

Kompyuterning tarjima dasturlari (CAT- ing. abbrev. computer-assisted translation) tarjimonning ishini birmuncha osonlashtiradi. Sababi TM(inglizchada – translation memory) avvalroq qilingan tarjimalardagi jumlar so‘z birikmalari avtomatik ravishda yig‘ilib boradi. SAT dasturi orqali tarjima qilish va mashina tarjimasining farqi katta. Chunki bu dasturga matn joylashtirilgach, kompyuter matni xotirasida tarjimasi mavjud so‘zlar va so‘z birikmalari bilan tarjima qilib ko‘rishga harakat qiladi. Bu dasturning afzalligi tarjimon tomonidan dastur foydalanilganda so‘z va so‘z birikmalar, gaplar qolipi kompyuter xotirasiga yig‘ilib boradi. Matnni tarjima qilshi buyrug‘i kiritilganda kompyuter o‘z xotirasidagi ma’lumotlarni tezkor tahlil qilib muvofiq keluvchi jumla va gaplarni tarjimasi matnini yaratadi va asliyat bilan qiyoslab ko‘rishni tavsiya qiladi. Dastur xotirasidagi axborotlarni muntazam yangilab, tahrir qilib borish mumkin. SAT dasturining afzallik tomoni shundaki, tarjimon har gal yangi so‘z va istilohlar uchun glossariy va lug‘atlarni titib ovora bo‘lmaydi. Muayyan bir so‘zning gapdagi ko‘chma ma’nolarini ham tarjima jarayonida dastur xotirasiga joylashtirib borishi mumkin. Biroq mazkur dasturni yaratish jarayonida muharrirlar tomonidan qo‘yilgan xatoliklar so‘zning hamma ma’nolarining kiritilmaganligi tarjimani izidan chiqarib yuboradi. Tarjimon bu dasturlarga 30-40 foizgina suyanishi maqsadga muvofiqdir. Ko‘pgina SAT dasturlari so‘zning turli xil ma’nolarda qo‘llanishi va tarjimalarda turlicha o‘girilishini ham ko‘rsatib berish imkoniyatiga egalardir. Shu jihatdan mazkur dastur tarjimonning vaqtini yaxshigina tejaydi deb ayta olamiz. Bugungi kunda eng imkoniyatlari keng SAT dasturlaridan biri bu – SDL Trados bo‘lib, bu dastur bir muncha qimmat turadi. Hamyonboproq tarjima dasturi Wordfastdir. Ammo shuni ta’kidlash joizki, bu dasturlar ingliz-rus, rus-ingliz tarjimasini amalga oshirishi mumkin xolos. Bugungi kungacha o‘zbek-ingliz, ingliz-o‘zbek SAT dasturlari yaratilmagan va biz uchun yaqin kelajak orzusiga aylanmoqda.



Ovoz tarjimasi dasturlari

Tarjima dasturlarining bu turi tarjimonning soatlab kompyuter oldida o‘tirishini tejaydi. IBM kompaniyasining VIA VOICE dasturi ovoz orqali matnni tarjima qilish dasturlari bilan mashhur. Shuningdek, ko‘pgina android telefonlarda mavjud Voice Translator prilojeniyasi ham bir tildan ikkinchi tilga ovozli xabarlarni tezkor tarjima qila oladi. Yuqorida aytilganidek, bu dasturlarga ham o‘zbekcha inglizcha tarjimani kiritish tilshunoslarimiz va dasturchilar oldidagi vazifalardan biridir. Mazkur dasturning talablaridan biri ovoz ortiqcha shovqin suronsiz yozilsa va gaplar fonetik jihatdan to‘g‘ri talaffuz qilinsagina tarjima to‘g‘ri chiqadi.

Matnni o‘qib tarjima qiluvchi dasturlar

Texnika taraqqiy etgani sari tarjimonning ishi ham osonlashib bormoqda. SAT dasturi uchun asliyat matnini kiritish kerak bo‘lsa, matnni o‘qib tarjima qiluvchi dasturlarga matnni ko‘rsatishning o‘zi kifoya. Bu kabi dasturlar matnni skayner qiladi va tarjimaga kirishib ketadi. Bu kabi dasturlar (OCR)tarjimonlar ichida ancha keng qo‘llaniladi. Ularning telefon orqali rasmga tushirib tarjima qilinadigan turi ABBY Text Grabber bo‘lsa, JPG,BMP, PDF holatidagi matnlarni skayner qilish yo‘li bilan istalgan tilga tarjima qilib beradigan dastur bu ABBY Fine Readerdir. Biroq mazkur dasturda qilingan tarjimalarda ko‘plab xatoliklar mavjud bo‘ladi. Bunga sabab skayner qilinayotgan adabiyotning holati ham bo‘lishi mumkin. Rasm holatida o‘qilgan matnni tarjima qilish jarayonida dastur ko‘plab xatoliklarni keltirib chiqaradi. Bu dasturni ishlatishda matn asliyatga yaqinroq chiqishi uchun har bir abzasni alohida o‘qishga berish maqsadga muvofiqdir. Lekin shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, badiiy tarjimada bu kabi kompyuter dasturlaridan foydalanish o‘zini oqlamaydi. Tarjimon bunday holatda elektron lug‘atlardan foydalanish bilangina o‘z texnik imkoniyatlarini cheklashi lozim. Sababi badiiy tarjima ijodkorlik deganidir.

Matn muharriri dasturlari

Tarjimonlar orasida eng keng tarqalgan matn muharri dasturlaridan biri bu Microsoft Word va Open Officedir. Ikkala dastur ham ko‘p funksiyalarga ega bo‘lib, ba’zan tarjimonlar bu funksiyalardan to‘laqonli foydalanmaydilar. Masalan, deylik siz matnda federal qonunchilik degan so‘zni ko‘p ishlatsangiz dastur bu o‘rinda avtomatik ravishda Fdl abbrevaturasini (Federal Law)qo‘ya boshlaydi. Shuningdek, zamonaviy tahrir dasturlarining afzalligi shundan iboratki, ular orqali imlo va punktuatsion xatoliklarni bartaraf etadilar. SAT dasturining muharrirlik imkoniyatlari ham nihoyatda keng bu dastur orqali matnni tarjimaga tayyorlash, paragraflarga bo‘lib tarjima qilish, matn uslubini aniqlash, ilmiy terminlarni ajratib olib glossariy tayyorlash kabi avtomatik funksiyalar mavjud.

Internet resurslar

Internet tarmog‘ida tarjima ishini osonlashtirishda xizmat qiladigan glossariylar, onlayn tarjima dasturlari mavjud saytlar, tarjima muammolari muhokama qilinadigan forumlar va tarjimonlik uyushmalarining web-sahifalari bor. Mazkur resurslar tarjimon uchun nihoyatda kerak hisoblanadi. Google qidiruv tarmog‘i tarjimonlar uchun keng imkoniyatlarini yaratadi. Tarjimon har bir detal har bir ma’lumotni bu tarmoq orqali tekshirib ko‘rishi, eng yirik glossariylar va lug‘atlarni o‘qib, so‘z izohini tekshirib ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladi. To‘g‘ri internetda ishonchli va aniq ma’lumotlar bilan birga noaniq manbaalar ham uchrab turadi. Biroq tarjimon o‘z didi va farosati orqali to‘g‘ri ma’lumotlarni ola bilishi kerak.

Quyida tarjimonlik faoliyatida kerak resurslarni havola etamiz:

2. Tarjimonlar uchun kerakli ma'lumotlar mavjud bo'lgan saytlar;
3. Onlayn lug'atlar, glossariylar, ensiklopediyalar;
4. Tarjima dasturlarini sotib olish imkoniyati mavjud saytlar;
5. Tarjima agentliklari va tarjimonlik uyushmalari.

Tarjimonlar uchun kerakli ma'lumotlar mavjud bo'lgan saytlar:

Home Companion

<http://www.rahul.net/lai/companion.html>

Tarjima yangiliklari, xalqaro yangiliklar, glossariyla, tarjima dasturlari, tarjima mahsulotlari, tarjimon qidirish, tarjimon sifatida ish qidirish, tashkilotlar, tarjima agentliklari, tarjimoni o'qitish, konferensiyalar va seminarlar.

http://www.translation.net/

Professional tarjima xizmatlari, tarjima dasturlari, xorijiy til va tarjima resurslariga ilovalar

<http://www.translationzone.com/>

Translator tips. com

<http://www.translator.tips.com>

dunyo bo'ylab joy lashgan 1,800+ da ortiq tarjima byurolaini onlayn manzili, *Erkin tarjimon bo'lib qanday qilib \$80,000 ishlash mumkin nomli oylik internet jurnali*

WebTranslators. com

<http://www.webtranslators.com/>

Tarjima masalalari muhokama qilinadigan forum va chat. glossariylar, lug'atlar, tarjima uyushmalari, tarjima industriyasi yangiliklari, jahon yangiliklari, konferensiyalar va ta'lim resurslariga havolalar.

Peter Sandrini's Translation Resources

<http://homepage.uibk.ac.at/~c61302/tranlink.html>

Tarjima fani o'qitiladigan o'quv yurtlari va professional tarjimonlar uyushmalari, onlayn jurnallar, agentliklar va kompaniyalar ro'yxati.

On-layn lug'atlar, glossariylar va ensiklopediyalar

Eurodicautom: <http://europa.eu.int/eurodicautom/Controller>

Termium: <http://www.cetrodft.com/translate.htm> Links pages:

Robert Shea: <http://www.serve.com/shea/wortbuch.htm>
Richard Lederer: <http://pwl.netcom.com/~rlederer/rllink.htm>
University of Vaasa:
<http://www.uwasa.fi/c o m m / t e r m i n o / c o l l e c t / i n d e x . h t m l>
Peter Sandrini: <http://translation.uibk.ac.at/termlogy/database.html>
Language Hub: <http://www.cetrodftt.com/translate.htm>
Frank Dietz: <http://www.jump.net/~fdietz/glossary.htm>
Peter Spitz: <http://home8.inet.tele.dk/p-spitz/>
Dieter Wiggert: <http://www.academiaisla.com/links/dwtl.php>
Dieter Waeltermann: <http://www.trans-link.com/page2.html>
<http://www.rhymezone.com/> SHe'riy tarjima uchun qofiya va teskari lug'atlar resurslariga ega onlayn tarjima qilish sayti;

Tarjima dasturlarini sotib olish imkoniyati mavjud saytlar:

Atril (Deja Vu): <http://www.atril.com/>
IBM (Translation Manager): <http://www-4.ibm.com/software/ad/transtat/tm/>
Star (Transit): <http://www.star-transit.com/en/>
SDL (SDLX): <http://www.sdlintl.com/products/sdlx.htm>
TRADOS (Translator's Workbench): <http://www.trados.com/index.asp>

Tarjima agentliklari

<http://www.rahul.net/lai/jobs.html> <http://www.rahul.net/lai/tragsvc.html>
<http://www.foreignword.com/Translators/agencies/agencies.htm>
Yahoo

http://dir.yahoo.com/Business_and_Economy/Business_to_Business/Translation_Services/

Aquarius

<http://www.aquarius.net/>

The Translator's Home Companion

Jobs: <http://www.lai.com/jobs.html> Agencies:
<http://www.lai.com/tragsvc.html>

Association of Translation Companies (ATC)

Suite 10—11, Kent House, 87 Regent Street,
London W1R7HF, UK

[Interp.net](http://www.interp.net)

A network of groups of AIIC consultant interpreters info@interp.net

<http://www.interp.net/> Japan Financial

Translations

<http://www.jfti.org/> [ProZ.com](http://www.proz.com/)

<http://www.proz.com/>

DMOZ Open Directory Project

http://dmoz.org/Business/Business_Services/Translation_Services/Links_and_Resources/

Tarjimonlik uyushmalari

La Federation internationale des traducteurs /International Federation of Translators (FIT) <http://www.fit-ift.org/>

List of FIT member organizations: <http://www.fit-ift.org/liens.html>

European Society for Translation Studies (EST)

<http://est.utu.fi/home.html>

Guild of European Translators

20 ter, rue de Bezons - 92400 COURBEVOIE Tel: 33(0)1.49.97.06.00 Fax: 33(0)1.46.67.37.30 E-mail: president@gilde.net http://www.translator_guild.com/

The Translators and Interpreters Guild

962 Wayne Avenue, #500 Silver Spring, MD 20910, USA Tel: (301) 563-6450 Toll-free: (800) 992-0367 Fax:(301)563-6020 E-mail: info@ttig.org <http://www.ttig.org/>

Canadian Association for Translation Studies (CATS) Association Canadienne de Traductologie (ACT)

Genevieve Quillard

Secretary-Treasurer ACT/CATS

Departement d'Etudes franchises

College militaire royal du Canada

C.R 17000, succ. Forces

Kingston (Ontario) K7K 7B4, Canada

<http://www.uottawa.ca/associations/act-cats/>

American Translators Association (ATA)

225 Reinekers Lane, Suite 590 Alexandria, VA 22314, USA Tel: (703)
683-6100 Fax: (703)683-6122 E-mail: ata@atanet.org <http://atanet.org/>

American Literary Translators Association (ALTA)

The University of Texas at Dallas The Center for Translation Studies

Box 830688 Mail Station MC35
Richardson, Tx 75083-0688, USA
Tel: (972) 883-2092
Fax: (972) 883-6303
E-mail: ert@utdallas.edu
<http://www.utdallas.edu/research/cts/alta.htm>

Translation conferences

<http://www.tolk.su.se/information/konferenser/konfindx.html>

Tarjima markazlari ilmiy izlanish dasturlari

Tarjimashunoslikka oid grant loyihalari haqida batafsil ma'lumot Anthony Pym and Monique Caminade veb-sayti:

<http://www.ice.urv.es/trans/future/ti/tti.htm>

Tarjima tatqiqodlari markazi

Center for Research in Translation (CRIT) Translation Research and Instruction Program (TRIP) Translation Referral Service (TRS)

P.O. Box 6000
Binghamton, NY 13902, USA
Tel: 607 777-6765
E-mail: trip@binghamton.edu
<http://trip.binghamton.edu/TRS.html>

Centre for Translation and Intercultural Studies

UMIST
P.O. Box 88
Manchester M60 1QD, UK

Tel: +44 161 200 3100

Fax: +44 161 200 3099

<http://www.umist.ac.uk/ctis/>

Leuven Research Center for Translation (CETRA)

Professor Jose Lambert Blijde-Inkomststraat

21

B-3000Leuven

Belgium

Tel: 016/32.4847 or 016/32.4848 or 016/32.4832 (within Belgium)

Tel: +32 16 324847 or +32 16 324848 or +32 16 324832 (from outside Belgium)

E-mail: jose.lambert@arts.kuleuven.ac.be

<http://fuzzy.arts.kuleuven.ac.be/cetra/>

Translation Center

Translation Center

442 Herter Hall

University of Massachusetts

Amherst, MA 01003, USA

Tel: (413) 545-2203

Fax: (413)577-3400

Toll free: (877) 77U-MASS

E-mail: transcen@hfa.umass.edu

<http://www.umass.edu/transcen/>

Tarjima muammolari bo'yicha xalqaro nashrlar

International Journal of Translation (IJT)

US Bahri

57 Sant Nagar

East of Kaillash

P.O. Box 7023

New Delhi 110065, India

Language International

Editors Bob Clark and Bert Esselink

John Benjamins Publishing Co

P.O. Box 36224

1020 ME Amsterdam, The Netherlands

Tel: +31 20 630 4747

Fax: +31 20 673 9773

E-mail: language.international@benjamins.nl

<http://www.language-international.com/>

Machine Translation

Editor Harold Somers
Professor of Language Engineering
Head of Department
Centre for Computational Linguistics
Department of Language and Linguistics
UMIST
P.O. Box 88
Manchester M60 1QD, UK
Tel: +44/0 161 200 3107
Fax: +44/0 161 200 3099
E-mail: Harold.Somers@umist.ac.uk
<http://www.ccl.umist.ac.uk/staff/harold/MTjnl/>

Meta

Service d'abonnements: PERIODICA C.P. 444
Outremont (Quebec) Canada H2V 4R6 Tel:
(514)274-5468 Telec: (514) 274-0201

Multilingual Communications and Computing

319 North First Ave Sandpoint, Idaho 83864, USA
<http://www.multilingual.com>

Target: International Journal of Translation Studies

General Editor: Gideon Toury (toury@spinoza.tau.ac.il)
Editors: Jose Lambert, Kirstin Malmkjaer
Review Editor: Li even d'Hulst
John Benjamins Publishing Company
P.O. Box 36224
1020 ME Amsterdam, The Netherlands
Fax: +31-20-6739773
On-line subscriptions: <http://www.benjamins.com/jbp/journals/form.htm>

Translation Journal

Editor: Gabe Bokor (gbokor@accurapid.com)
Accurapid Translation Services, Inc
806 Main Street
Poughkeepsie, NY 12603, USA
Tel: (845) 473-4550
Fax: (845) 473-4554
<http://accurapid.com/journal/tj.htm>

Translation Review

Editor, *Translation Review*
c/o University of Texas at Dallas
P.O. Box 830688
Richardson, TX 75083-0688, USA
<http://www.utdallas.edu/research/cts/tr/>

The Translator

Editor: Mona Baker
St Jerome Publishing
2 Maple Road West, Brooklands
Manchester M23 9HH, UK
Tel: +44 161 973 9856
Fax: +44 161 905 3498
E-mail: stjerome@compuserve.com
<http://www.stjerome.co.uk/journal.htm>

TRANSST

A translation-related newsletter
Editor: Gideon Toury
E-mail :toury@spinoza.tau.ac.il
<http://www.tau.ac.il/~toury/transst>

(Eslatma yuqoridagi ro'yxatdagi veb-sayt manzillari internetda muntazam ravishda yangilanib boradi)

Nazorat uchun savollar:

1. Zamonaviy tarjimonning qurollari qaysilar?
2. Tarjima dasturlaridan qaysilarini bilasiz?
3. Matn muharriri dasturining vazifasi nimadan iborat?
4. Tarjima asotsiatsiyalaridan qaysilarini bilasiz?

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. Tarjima uyushmasiga a'zo bo'lish so'rovnomasini to'ldiring.
2. Matn muharriri dasturining imkoniyatlarini o'rganib chiqing va shu dastur orqali matnni tahrir qilib bering.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. teneta.rinet.ru/rus/pe/parshin-and_theoria-i-praktika-perevoda.htm
2. <http://www.translator-tips.net/tranfreearchive/tf07.html> www.google.ru
3. <http://webcache.googleusercontent.com/search?q=cache:JiVGDDOwUwsJ:www.englspce.com/+&cd=1&hl=ru&ct=clnkwww.youeng.narod.ru>
4. http://www.translation.net/languages/english_translation_software.html
5. <https://translate.google.com/translate?hl=ru&sl=en&u=http://www.translationzone.com/&prev=searchwww.translator-tips.com>
6. <http://www.gbv.de/dms/goettingen/662601432.pdf>
7. https://openlibrary.org/works/OL16360856W/An_approach_to_translation_criticismhttp://www.discourses.org/UnpublishedArticles/Ideology%and%20discourse.pdf

8-Ma'ruza

BADIIY TARJIMA UCHUN MUNOSIB ADABIYOTNI TANLAB OLISH VA BAHOLASH

Reja:

1. Qanday asarni tarjima qilgan ma'qul?
2. Tarjima tili auditoriyasini o'rganish.
3. Asar mualliflarini saralash

Tayanch so'z va iboralar: *muallif, asar, tarjima, kitobxon auditoriyasi, milliy adabiyot, yozuvchi, she'riy va nasriy asar.*

Badiiy tarjimaga kirishishdan oldin munosib adabiyotni tanlash masalasi ham tarjimon oldidagi bosh qotirishni talab qiladigan muhim masalalardan biri hisoblanadi. Agar tarjima buyurtma asosida amalga oshirilsa, tarjimon ish bajaruvchi sanaladi. Biroq, badiiy asarlarni ba'zan tarjimonlar o'z xohishi va ixtiyori bilan tarjima qilishga kirishadilar. Biz dastlabki ma'ruzalarimizda bu sohada tashabbus ko'rsatgan o'zbek tarjimonlari haqida so'z yuritganmiz. Ana shunday tashabbus va milliy g'urur, o'z ona tilida yozilgan badiiy asarni xorijiy tillarga tarjima qilish va targ'ib qilish istagi yuragida jo'sh urgan yosh tarjimonlar to'qnashadigan muammo nimani tarjima qilish?!

Tarjima orqaligina xalq adabiyotining badiiy kamoloti, yozuvchi va shoirlar iste'dodi xorijliklar e'tirofiga sazovor bo'lishi mumkin. Badiiy asar tarjimoni avvalo adabiyotshunos kabi matnni tahlil eta olmog'i lozim. Badiiy tarjima bilan shug'ullanuvchi tarjimon adabiyot nazariyasi, qiyosiy adabiyotshunoslik, lingvokulturologiya, kabi fundamental fanlardan xabardor bo'lmasa, nimani tarjima qilish-u, kimni tarjima qilish masalasida chalkashliklar yuzaga kelaveradi.

Nimani tarjima qilish kerak? Yosh tarjimon xorijlik kitobxon talabini o'rgansa, qanday mavzulardagi asarlar ularning e'tiborini tortishiga guvoh bo'ladi. Masalan, so'nggi yillarda o'tkazilgan ijtimoiy so'rovnomalar natijasida, Buyuk Britaniyalik kitobxonlarni asosan bolalar adabiyoti, fantastika, qo'rqinchili asarlar, mistika, melodramma, ilmiy-badiiy, qisqa badiiy, triller, 15 yoshdan 20 yoshgacha bo'lganlar uchun mo'ljallangan kitoblar qiziqtirish ma'lum bo'ldi. Biz o'zbek adabiyotini o'zimiz uchun emas balki xorijlik kitobxonlar o'qib bahramand bo'lishi uchun tarjima qilmoqchimiz. Shunday ekan, xorijlik kitobxon talabini o'rganib chiqish tarjimonning ishini boshlashdagi ilk qadami hisoblanadi. Mavzular tanlangach, mualliflar saralanadi. Buning uchun yosh tarjimonda o'zbek adabiyoti haqida kengqamrovli tushuncha bo'lishi kerak. Ya'ni qaysi yozuvchi qanday yo'nalishda ijod qiladi, kimning qaysi mavzuda yozgan asarini badiiyligi yuqori-yu, qaysi asarining saviyasi biroz bo'shroq.

Chet ellik kitobxon uchun ko‘proq umuminsoniy g‘oyalar (do‘stlik, hayvonot olami, muhabbat, tabiat hodisalari va hk.z mavzuidagi)tarannum etilgan mavzular qiziqish uyg‘otadi. Tarjimon o‘z xohishi bilan ona tilidan badiiy tarjima qilmoqchi bo‘lsa, avvalo mahsulot, ya’ni tarjimaning xaridorlari – chet ellik kitobxon ehtiyojini ham nazardan qochirmasligi lozim. She’riy tarjimada ham eng avval mavzu tanlanishi maqsadga muvofiqdir. Nazarimda dastavval qanday she’rlarni chet tiliga tarjima qilish kerak? degan savolga javob topish kerak. Millatimizgagina xos bo‘lgan odob-axloq, pand-nasihathodidagi she’rlarda shoir kuyunib urg‘u qaratgan muammo xorijliklar nazdida normal hodisa sanalishi mumkin. Prozaik asar tarjimasida yozuvchining maqsadini bir abzas izoh bilan tushuntirish mumkin. Ammo she’riy tarjimada izohlardan birmuncha qochiladi. 2005-yil Toshkent “Zarqalam”nashriyatida chop etilgan she’riy tarjimalar to‘plami O‘roz aka, Bahrom Ro‘zimhammad va A‘zam Obidovning she’lari va inglizcha tarjimalaridan iborat. Tarjimalar muallifi ham A‘zam Obidov. Shu to‘plamdagi “Ona” deb nomlangan she’rga e’tiborimizni qaratamiz:

Ona
Eshik ochar, kirar farishta,
Mehmon kelib qolar, ehtimol,
Deya uyni qilib sarishta
YArqiratib artib qo‘yar pol.

Yoshi qari, sochlari oppoq,
Og‘riganin aytmaydi belin.
Uyda esa uxlaydi uzoq

Ona bo‘lay deb qolgan kelin.(A miracle is on the way/ A.Obidov,-B38)

Bu she’rda o‘zbek yigitining ona bilan bog‘liq pragmatik asotsiyasi, ya’ni onaning mudom kuymalanib yurishi va kelinning kun uzoq uxlashi muammosi qalamga olingan. Ammo aytingchi, shu muammo ingliz kishisiga qiziqmi? To‘g‘rirog‘i tushunarli va tanishmi? Ularning madaniyatida bu oddiy odatiy hol. Aksariyati bu holat yo‘q sababi ingliz yoshlari ota-onalaridan mustaqil yashashadi. Shu mavzudagi she’rlarni tarjima qilish shartmikin?

Tarjimani o‘qiymiz:

The door is opened early morning,
Maybe comes, as angels, a guest
Mother, cleaning room, is worrying:
“I need to brighten all the rest.”

She is so old, her hairs- white,
Pain in waste she doesn’t say.
Still asleep- but- in the quite-
Waits a child her fiancé.

So‘zma-so‘z tarjimasi:

Ertalab eshik ochiladi,
Balkim farishtalardek bo‘lib mehmon kelar.
Ona uylarni tozalar ekan tashvishlanadi:
Qolganlarini ham yarqiratib qo‘yishim kerak.
U juda qari, sochlari oq,
Belidagi og‘riqni aytmaydi.
Haliyam uxlab yotar lekin ancha
Bola kutadi uning qallig‘i.

Asliyatdagi fiancé so‘ziga makmillan lug‘atida (<http://www.macmillandictionary.com/thesaurus/british/fiance>): your fiancé is the man you are engaged to and are going to get married to- “sening qallig‘ing” sen unashtirilgan va turmush qurayotgan erkak kishingdir. Bu so‘z lotincha fidera so‘zidan olingan bo‘lib, qadimgi fransuz tilida fiancé, keyinchalik fiancer va 19 asr o‘rtalarida fiance tarzida ingliz tiliga kirib kelgan. Fransuz tilining ta‘siridan fiance+e – **fiancee tarzida bir harf qo‘shilishi bilan ayol qalliqni ham anglatishi mumkin.** Ammo yuqoridagi tarjimada erkak qalliq ma‘nosi anglashilmoqda sababi qo‘shimcha harf yo‘q. Balki bu texnik xatolikdir deb, she‘rni ayol qalliq deb tasavvur qilib o‘qib ko‘rsak. Anglashilayotgan ma‘no madaniyatimizga to‘g‘ri keladimi? O‘zbek qizi unashtirilib, to‘y bo‘lmasdan oldin xomilador bo‘lgan kuyi qaynonasining uyida uxlab yotmaydiku? **Binobarinfiancee- rasmiy va cherkovdan nikohdan o‘tilmagan qalliq degani. Ikkinchidan** her fiancé- uning qallig‘i dagiuning(her) olmoshi onaga nisbatan ishlatilmaydi. Bo‘lajak kuyov yoki kelin bir biri uchun her yoki his fiancé (e) bo‘lishi mumkin. Masalan: Her fiancé is Farhod,- uning qallig‘i Farhod, his fiancee is Shirin- uning qallig‘i SHirin kabi. Tarjimon say bilan fiancé ni o‘zaro qofiyadosh qilaman deb, o‘zbek tilida yozgan o‘zining ma‘noli she‘rini inglizchada mayib qilib qo‘ygan. SHu she‘rdagi qalliqni kelin qilib o‘zgartirib, asosiy mazmuni ingliz kishisiga tushuntirib bersangiz “ha nima bo‘pti shunga, uxlasa uxlabdida, charchagandan keyin uxlaydida xomilador bo‘lsa” deyishi tabiiy. Kattalarga hurmat yuksak darajada saqlanadigan o‘zbek xalqi uchun manzur bo‘lishi mumkin mazkur she‘r ingliz kishisida ma‘nisiz tilga olishgayam arzimaydigan detal. Ba‘zida chet ellik yoshi ulug‘ insonlar jamoat transportida yosh kishi joy bersa meni qari deb hisobladingmi deb hafa bo‘lib qolar ekanlar. Shu sababdan tarjima qilinmoqchi bo‘lgan mavzular haqida tarjimon jiddiyroq o‘ylab ko‘rishi kerak.

Yaqinda internetdan nashr etilganligi haqidagi xabarni o‘qidim. Bugungi kunda internet orqali dunyoning istalgan tomonida nashr etilgan ishni ham uydan chiqmay sotib olish mumkin. Xullas amazon. com sayti orqali butun duyoga sotilayotgan mazkur to‘plam mening ham qo‘limga tegdi. 2013-yil Amerikaning “Author-house” nashriyotida chop etilgan o‘zbek hikoyalardan tarjimalardan iborat to‘plam asli Marg‘ilonlik 1990-yilda tug‘ilgan AQSHning Blumingtondagi Indiana universiteti magistraturasini (2012y)bitirgan tarjimon Mahmuda Saydumarovaga tegishli. Mazkur to‘plam uchun tarjimon eng sara o‘zbek hikoyalarni tanlagan. Tarjimon kitob muqaddimasida har bir hikoyani ingliz tilida

sharhlaydi. Masalan, G'ofur G'ulomning "Mening o'g'rigina bolam" hikoyasining qisqacha mazmunini sharhlar ekan, hikoyada tasvirlangan voqelik 1917-yilning oqshomlarida sodir bo'lgan realizmgini ta'kidlaydi. O'g'ringing aslida o'g'ri emas sharoit majbur etgan kishi ekanligi ingliz tilida chiroyli tushuntirib berilgan. Tarjimon har bir hikoyani o'zi sharhlaganmi yohud biror manbadan olganmi bu ishni nihoyatda to'g'ri qilgan. Milliy mentalitetimiz tasvirlangan yuqorida aytganimiz kabi qaynona kelin munosabatlarini yoritadigan Said Ahmadning "Kelinlar qo'zg'oloni" hikoyasini chet elliklar uchun aynan shunday sharhlanganligi ma'qul. Jumladan tarjimon bu hikoya haqida ingliz tilida shunday deydi: "Bu hikoya o'zbek urf-odatlar va an'alarining portreti bo'ladigan hikoyadir. Zero, o'zbek jamiyatida qaynona va kelin munosabatlari mavjud. Bu hikoyaga asoslangan sahna asari teartlarda bir necha yillar davomida namoyish etilgan. Shu mavzuga yaqin keyingi hikoya yosh yozuvchi Nargiza G'ulomovaga tegishli bo'lib, "Shaharlik kelinchak" deb nomlanadi. Bu hikoya mustaqillik yillarida yozilgan"(M.S.-p.viii). Shaharlik kelinchak hikoyasi uchun ham alohida izoh ilova qilingan bo'lib, unda tarjimon o'zbek kelinlarining qaynonasi oldidagi burchlari haqida to'liqroq ma'lumot berib o'tgan: " ..o'zbek qizlarining ko'pchiligi turmushga chiqqach erlarining uyida turmush o'rtoqlarining ota-onasi bilan yashashadi. Oilaga xizmat qilish kelinning vazifasiga kiradi. Bu vazifalarga biz mazkur hikoyada o'qiganimiz ko'cha va ichkari hovlini supurish kiradi(M.S.-P.55). Tarjima qilingan Nargiza G'ulomovaning "Shaharlik kelinchak" hikoyasida kelinchak ra'no va uning eri Umid o'rtasida bir dialog bor:

"Ra'no, sendan bir narsani iltimos qilsam maylimi? Ra'no savol nazari bilan eriga qaradi.

— Onamni «oyijon» degin. Ra'no chuqur xo'rsindi.

— Bilasizmi, onam mening eng yaqin dugonam, sirdoshim, maslahatchim. Ular juda ajoyib ayol. Men esa, afsuski, biror marotaba ularni «oyijon» deb atamabman."

Shu qisqa muloqotni ingliz tiliga tushunarli tarjima qilish qanchalik mushkulligini bilsangiz edi. Tarjimon Mahmuda Saydumarova bu o'rinni quyidagicha o'giradi:

"Rano, can I ask a favor of you?" he asked again. Rano looked at her husband with a questioning look. "Call my mom 'mother', he said.

Rano signed deeply. She said, "You know, my mother is my best friend and advisor. I tell her all my secrets. She is a very amazing woman. And yet, until this day, I've never called her 'mother', even once" (M.S.-P.46).

Kuyovning talab qilayotgani oyi so'ziga qo'shiladigan "jon" erkalash suffiksining analogi ingliz tilida yo'q. Shu sabab tarrjimada kuyov go'yoki onasini ona deb chaqirishini kelindan so'rayapti. Kelin esa hattoki o'z onasini biror marta ham ona deb chaqirmaganligini aytayapti. Bu muloqot hikoyani ingliz tilida o'quvchilarda biroz tushunmovchilik tug'diradi. Nega endi o'z onasini ona deb chaqirmagan ekan degan. Shu sababdan tarjimon kuyovning so'rovidagi(**"Call my mom 'mother', he said;**) va Ra'noning javobidagi (**I've never called her 'mother', even once**) "oyijon" o'rnini bosayotgan "ona" so'zini apostrop bilan bergan. Ammo Umid va Ra'no o'z onalari haqida gapirayotganlarida bu apostrop

yo‘q - Call my **mom** ‘mother’, he said; You know, my **mother** is my best friend and advisor). SHundan so‘ng hikoya so‘ngida apostrofdagi ona so‘zi qanday ma‘noda kelayotganligi va sababi ingliz tilida quyidagicha izohlangan: “O‘zbek tilidagi muloqotda kishilarga murojaat qilishda kishi nomi yoki ona va ota degan so‘zga “jon” qo‘shimchasi qo‘shiladi. Jon qo‘shimcha hurmat muhabbat va g‘amho‘rlikni anglatadi. Biz “jon” ingliz tilidagi “dear” qadrli so‘ziga ekvivalent bo‘ladi deb ayta olamiz. Shunday ekan hurmat ma‘nosida inglizcha “dear mother”- o‘zbek tilida – oyijon va “dear father” dadajon bo‘ladi”(M.S –P.55 (Inglizcha izoh tarjimasi.G.O)

Kitob so‘ngida esa hikoya mualliflari haqidagi biografik ma‘lumotlar keltiriladi. Tarjimonning qo‘llagan bunday tadbiri juda ma‘qul. Umuman mutarjimning mazkur to‘plamni yaratishda alohida ixlos bilan ishga yondashganligi sezilib turibdi. Tarjimalarda asliyat mazmuni aniq yetkazib berilgan. Muhimi o‘zbek adabiyoti vakillarining Abdulla Qahhor, G‘afur G‘ulom, Said Ahmad, Xayriddin Sultonov, Tog‘ay Murod, Normurod Norqobilov, Oydin Hojjeva, Farhod Musajonov, Nargiza G‘ulomova, Sa‘dulla Siyoyevlarning hikoyalari tanlangan. Va bu to‘plamni haqli ravishda “The collection of Uzbek short stories” (O‘zbek qisqa hikoyalari to‘plami) deb atash mumkin. Tarjimalar sifati va saviyasi haqida gapiradigan bo‘lsak, tarjima tili sodda ravon. Tarjima tili esa ingliz tilini o‘rtacha (intermediate) darajada biluvchi kishilar uchun mo‘ljallab adaptatsiya qilingan. Britaniya fanlar akademiyasi professori Devid Kristalning ta‘kidlashicha, dunyo bo‘yicha uch ingliz tili vakili bo‘lmagan (none native speaker) kishiga, bir ingliz tili vakili(native speaker) to‘g‘ri kelar ekan. Demak, dunyo bo‘yicha ingliz tilida so‘zlovchi shu til vakili bo‘lmagan kishilar soni haqiqiy ingliz tili vakillariga qaraganda uch barobar ko‘proqni tashkil etadi. Ingliz tili vakili bo‘lmagan inglizxonlarning ko‘pchiligi aynan o‘rtacha (intermediate) ingliz tilidagi kitoblarni mutolaa qiladilar. SHunday ekan, keng omma hukmiga havola etishni ixtiyor etsak, tarjimalarni aynan shu darajaga moslab amalga oshirish kerak bo‘ladi. Undan ortig‘i (advanced English)ga yaqin o‘n yillikda tajriba va malaka kamlik qiladi.

Xulosa o‘rnida quyidagilarni keltirib o‘tamiz: zamonaviy tarjimon
1.Nimani? 2.Kimni? 3.Qanday? degan savollarga aniq javob topa olsagina, o‘z adabiyotining xorijdagi targ‘ibotini to‘g‘ri yo‘lga qo‘ya oladi.

Nazorat uchun savollar:

1. So‘nggi yillarda ingliz kitobxonlarini qanday yo‘nalishda yozilgan asarlar qiziqtirmoqda?
2. Tarjimon yozuvchilarning asarlariga baho berishi uchun qanday bilimlarga ega bo‘lishi kerak?
3. Qanday mavzudagi asarlarni tarjima qilmagan ma‘qul?

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. Amerika kitobxonlari xohishi bilan tanishib chiqing, amerikaliklar orasida so‘nggi yillarda qanday yo‘nalishdagi kitoblar urf bo‘lgan
2. Hayvonot dunyosi haqidagi o‘zbek yozuvchilarining sara asarlarini aniqlang. O‘zbek yozuvchilaridan kimlar bu mavzuda salmoqli va samarali ijod qilganligi haqida prezentatsiya tayyorlang.
3. 15-20 yoshli kitobxonlarga mo‘ljallangan qanday o‘zbek adabiyotining qanday sara asarlarini bilasiz? Qisqacha mazmunini hikoya qilib berishga tayyorlaning.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Robinson, Douglas Becoming a Translator. An Introduction to the Theory and Practice of Translation, London/New York: Routledge. 2003
2. Nancy Matis. How to manage your translation projects/Translation of French book: Comment gerer vos projets de traduction.(c)Edi.pro.2010. 211 pp.
3. Susan Bassnet. Translation studies. 3rd edition. Taylor & Francis e-Library, 2005.188 pp.
4. Baker Mona. Translations Studies. University of Manchester, 2009. 1571 pp.
5. Lance Hewson. An Approach to translation criticism. ETI, University of Geneva, 2000.

9-Ma’ruza

TANLANGAN MATERIAL UCHUN MA’NOVIY BILIMLARNI YIG‘ISH

Reja:

1. Tarjimadagi ekstralingvistik faktor.
2. Fon bilimlari va uning tarjimadagi roli.
3. Tezaurus, fon bilimlari va ma’naviy bilimlar istilohi.
4. Tarjimada ma’naviy bilimlarning ahamiyati.
5. Fon bilimlari klassifikatsiyasi: umumiy fon bilimlari va kontekstual fon axboroti.

Tayanch so‘z va iboralar: *fon bilimlari, kontekstual fon axboroti, mikrolingvistika, makrolingvistika.*

Badiiy matndagi har bir so‘z leksik yoki frazeologik birikmalar har bir kitobxon tomonidan turlicha qabul qilinishi mumkin. Bu har jihatdan retseptorning dunyoqarashi, etnik kelib chiqishi, psixologiyasi, mentaliteti, yashash sharoiti kabi

ko‘plab omillarga bog‘liq. Bu haqda Smirnitkiy shunday deydi «znachenije slova sushestvuet, kak opredelennoye yavleniye v soznaniye i predstavlyayet soboy funktsiyu mozga» Smirnitkiyning fikriga yuzlanadigan bo‘lsak, har bir so‘z ma‘nosini anglashda miya faoliyati va har bir shaxs uchun individual hisoblanadigan tasavvur doirasi muhim rol o‘ynaydi. Ammo bizningcha badiiy matn ijodkori faqatgina kitobxonlar ongi va tafakkuriga ishonib ish tutsa, o‘ylagan maqsadga erisha olmaydi. Sababi shoir yoki adibning tasavvur dunyosi o‘quvchikidan tubdan farqlanishi mumkin. Zotan nemis faylasufi Gete “ bir shaxsning vafoti bilan bir olam yo‘q bo‘ldi” degan edi. Bu xikmatdan har bir shaxsning bir olam ekanligini hamda predmet va axborotlarni har kim o‘zicha qabul qilishi haqidagi fikrni ham uqish mumkin. Darhaqiqat adibning tasavvur olami o‘quvchiliki bilan mos tushishiga xech kim kafolat bermaydi. Masalan: **Daraxt** – deganda o‘zbek kitobxoni tasavvuriga asosan olma, o‘rik yoki bodom daraxti kelsa, rus kitobxoni dub, qayin, emanni, yapon kitobxoni sakurani, hind kitobxoni esa palma, banan yoki bambukni tasavvur qilishi mumkin. Demak, daraxt – deganda kitobxonlar umumiy bir predmetni emas, eshitgan predmetlariga mantiqan yaqin ammo shakli rangi va hajmi har xil predmetmetlarni tasavvur qilishdi. R.Shorin va S.Chemodanov o‘z olib borgan tadqiqotlarida ba’zida bir so‘zlarning retseptor ongida butunlay ayri-ayri, ya’ni o‘sha so‘zning leksik-semantik ma‘nosiga yaqin ham kelmaydigan tasavvur hosil qilishi mumkinligini aytadilar. Masalan, bir eksperimentda **religiya** so‘zini o‘ylash orqali bir kishi tasavvuriga xabash (negr) kelgan bo‘lsa, bir kishi **serber** (1.yovuz qorovul. 2. qadimgi grek mifologiyasida do‘zah eshigini qo‘riqlovchi qopag‘on it) so‘zini eshitib xayoliga semiz xotinni tasavvur qilgan ^{14[1]}. Demak bir so‘z o‘quvchi va tinglovchi tomonidan butunlay noto‘g‘ri tushunilishi mumkinligi ehtimoldan holi emas. Tilda har bir so‘z ma‘nosini retseptor dunyoqarashiga havola etish maqsadga muvofiq emas va bu badiiy matn mazmunini anglashda chalkashliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Smirnitkiyning fikriga atoqli tilshunos L.S.Barxudarov quyidagicha e’tiroz bildiradi: “Znacheniya yazikovix yedinitis sushestvuet ne v chelovecheskom soznaniye, a v samix etix yedinitisax, to yest ne v mozgu cheloveka a v rechi” ^{15[2]}.

Darhaqiqat, personaj nutqi, leksik birikmalar asosiy mazmunni tushunishga xizmat qiluvchi vositalardir. Agar leksik birikmalar ma‘nosi har bir shaxs tasavvurida ma‘lum tushuncha uyg‘otadi desak, nutqimizdagi kishi ongida tasavvur hosil qilmaydigan tushunchalar **sabab, vaqt, munosabat** kabi so‘zlar. Kelishik qo‘shimchalari, **so‘z yasovchilar, olmoshlar** kabi lingvistik atamalar nomlari kabilarning mavjudligi bu qarashni o‘z-o‘zidan inkor etadi. Shuningdek, nutqimizda shunday holatlar uchraydiki, ular gapiruvchida ham tinglovchida ham hech qanday tasavvur uyg‘otmaydi. M: **Kecha Akmal Chimkentga ketdi** deganimizda bizning ham tinglovchining ham ongida Akmal haqida ham Chimkent haqida ham, Akmalning jo‘nash sababi haqida ham hech qanday tasavvur hosil bo‘lmaydi. Ammo “Akmal davolanish uchun Chimkentga ketdi” deganda,

^{14[1]} Бу хакда каранг: Л.С Бархударов. Язык и перевод. М., Международные отношения, 1975. – С.56.

^{15[2]} Л.С.Бархударов, ўша манба. – С.56.

Akmalning xastaligi va Chimkentda qandaydir sihatgoh borligi haqida qisman tasavvur paydo bo'ladi.

Masalan quyidagi gapni o'zbek tiliga tarjima qilishda "**Saint Spiridon save me!**" he implored loudly. (Gerald Durrell "My family and other animals" chapter-5 page-35) matn mazmunini anglash uchun Saint Spiridon – Korfu orolini balo qazolardan asrovchi, himoya qiluvchi avliyo haqida ma'lumotga ega bo'lish talab etiladi. Asar qahramonining ayni vaziyatda ilohiy ko'makka muhtojligi va uning ichki ruhiy holati Saint Spiridon – madadkor avliyoga iltijosida namoyon bo'lmoqda. Tarjimon mazkur avliyoning qaysi xususiyati uchun yodga olinayotgandan bexabar bo'lsa, personajning ichki holati tarjimada to'la ochib berilmasligi mumkin. Ba'zida adiblar badiiy asarlarda personajning didi, hayotga bo'lgan qarashlarini va holatini ifodalash uchun adabiyot, tarix, musiqa va boshqa ko'plab sohalar bilan bog'liq shunday nazariy ma'lumotlarni keltiradilarki, tarjimon bu kabi matnlarni faqatgina lisoniy yo'l bilan tarjima qila olishi mushkul. Masalan: He had no conception of Imperial England, and **Rule Britannia** was just a joke to him. ("England, my England" by D.H.Lawrence page-134) bu parchada qahramon tavsif etilar ekan, uning tarixga past nazar bilan qarashiga urg'u beriladi. Rule Britannia – "Britaniya xaq" nomli XVIII asrda yozilgan kuyga bastalangan vatanparvarlik qo'shig'ini oddiy hazil sifatida qabul qilishi, vatanparvarlikka hushi yo'qligi ifodalamoqda. Agar tarjimon **Rule Britannia** qo'shiq nomi ekanligidan boxabar bo'lmasa, u qahramon xarakterini yanada bo'rttirib, "uning uchun Britaniyani boshqarish hazildek bir gap" tarzida tarjima qilib qo'yishi mumkin. Bunda qahramon xarakteriga oid salbiy bo'yoq asliyatdagidan ancha oshib ketadi. O'zbek shoiri Rauf Parfining eski adabiyot darsliklaridagi tarjimai holida "onam savodsiz bo'lsada, harholda Navoiyga tishi o'tardi"jumlasini berilgan. "Navoiyga tishning o'tishi" aslo savodsizlikni emas, balki adabiyotda did ning nozikligini, "savodsiz" so'zi esa kinoya tarzida davr taqazosidan aytilganini anglatadi. Shu kabi nozik holatlarni tushinishda va tarjima qilishda ma'naviy bilimlarning ahamiyati katta. Quyidagi parchada ayol qahramonning shoirta'bliigi va nozik didi shunday ifodalanadi: Miss Balaifal, as I began to say, was a cultered woman a reader of the poems of **Robert Browning** and other poets and a very sensitive woman.(by W.Saroyan)

Robert Browning – ingliz shoiri bo'lib, ko'plab she'r va dramatik monologlarning muallifi hisoblanadi. Bu parchada ayol qahramonning ta'sirchanligi, ta'sirchan monologlar ustasi bo'lgan Robert Browning she'riyatining muxlisi ekanligida ochib berilmoqda. Ingliz auditoriyasi uchun ma'lum bo'lgan shoir nomiga mazkur parchada hech qanday izoh berilmagan. Ammo uni o'zbek tiliga tarjima qilishda personaj (Miss Balaifal) haqida yetarlicha tasavvur hosil qilish uchun shoir Robert Browning ijodidan qisqacha xabardor bo'lish talab etiladi. Bu ma'lumot tarjimada shoir nomiga izoh keltirish orqali yoki boshqa bir usulda muallif maqsadini ochib berishda asqotadi. Quyidagi misolda esa bir obraz xarakteriga oid xususiyatlar boshqa tarixiy personajlarga muqoyasa qilish orqali ochib beriladi: "A great man" replied Muscari, "as brave as your **Robin Hood**" ("Adventure stories" page – 64).

Mazkur parchada Robin Hood – XII asrda yashagan inglizlarning sevimli qahramoni jasurlik va botirlik timsoli sifatida tilga olingan bo‘lib, Robin Gud haqida ma‘lumotga ega bo‘lmay turib, u muqoyasa qilinayotgan asar qahramoni haqida to‘liq tasavvur hosil qilib bo‘lmaydi. Chunki “as brave as”- qiyosiy darajasi o‘z ma‘nosida qo‘llanayaptimi yoki kinoyali tarzda dastlab aniqlab olinishi zarur.

We can sketch his portrait in a few words. Imagine a **Don Quixote** of eighteen, dressed in a faded woolen jacket; his face long and brown, with high cheek bones, intelligent eyes, and a determined chin.

(The three Musketeers by Alexandre Dumes. page-7) Mazkur parchada muallif asar qahramoniga ta‘rif berar ekan “O‘n sakkiz yoshli Don Kixotni tasavvur qiling” deydi. Keyingi jumalalarda qahramon tuzilishiga yetarlicha ta‘rif berilsa-da, kimlar uchundir Don Kixotni xayolan eslash, u muqoyasa qilinayotgan obraz tasvirini tiniqlashtiradi. Demak, o‘quvchining nazariy bilimlari ham personajning fe‘l-atvori va xarakterini tasavvur qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tarjimonda bu kabi ma‘lumotlar bazasining yo‘qligi tarjima ishining saviyasini pasaytirishi shubhasiz. Ba‘zi tarjimonlarimiz TTuchun yot bo‘lgan so‘zlar realiyalarni (garchi asliyat matnida izohda havola etilmagan bo‘lsada) tarjimada retsptor uchun tushunarli bo‘lishini o‘ylab izohlab o‘tadilar:

Having thus decided, he rolled over on his side and dropped off to sleep, a hue son of his all-conquering race, a **Samson** among the philistines.

Shunday qarorga kelgan Makkenzi o‘zini Samsondek kuchli his qildi-da yonboshiga o‘girilib uyquga ketdi...

***Samson**-Bibliyadagi favqulodda kuchli qahramon.

....the country was stampeded and staked by a tidal-wave of **the checha-quas**, and when the **Klondike's** only claim to notice was its salmon fisheries.

....Shunda Skrut Makkenzi hayetida yuz bergan voqea beixtiyer hali Klondayk oltin vasvasasini hamda che-chakaus bosqinini ko‘rmagan va faqat lasos balig‘i bilan shuhrat qozongan o‘sha olis davrlarni yodga soladi.

Jek London. Bo‘ri ugli. Jahon adabiyoti. 2010y №12 81-83 betlar

***Klondayk**- Yukon daryosining irmogi 1896 yilda u yerda ko‘pdan-ko‘p oltin sochmalari topilgan

***Che-cha-kaus**-yangi kelganlar

Jek London. Bo‘ri o‘g‘li. Jahon adabiyoti. 2010Y №12 81-83 betlar.

Yosh tarjimon Gulhayo Muhammadaliyeva tarjimasidagi mazkur hikoyada o‘zbek kitobxonlari uchun notanish so‘z va iboralar ekvivalentsiz leksikani uzatish yo‘llaridan biri hisoblangan izohli tarjima orqali amalga oshirilgan. Ammo diqqatga sazovor joyi shundaki, tarjimon asliyat matnida uchramaydigan nazariy ma‘lumotlarni izlab topgan va tarjima kitobxonga tushunarli chiqishini ta‘minlagan.

Ba‘zida badiiy asarlarda qahramon nutqida asliyat tiliga mansub bo‘lmagan boshqa tillardagi iboralar uchraydi. masalan:

“This way, my young friend “ said, “**vetigia nulla retrorsum**”(The lost world” Arthur Conan Doyle page -80) vetigia nulla retrorsum – lotinchadan “orkaga yo‘l

yo'k" deb tarjima qilinadi. Bu kabi so'z va iboralarning ba'zilari asliyat tili uchun izohsiz tushunarli qabul qilinadi. Ammo asliyat tilini mukammal bilgan tarjimon ham bu kabi iboralar mazmuni anglash uchun boshqa tildan olingan so'zlar(masalan lotin) tarjimasini ko'rib chiqishi va uning nima sababdan kontekstda qo'llanganligini aniqlashi talab etiladi.

Demak, badiiy matn mazmunini anglashda so'z birikmalari, nutq birliklari, tasviriy vositalar, territorial xususiyatga ega so'z milliy koloritga xos atributlar va elementlar faol xizmat qiladi. Tarjimada asarning badiiy-estetik qimmatini to'g'ri aks ettirish uchun tarjimon muallif davrini, ijtimoiy, psixologik jarayonlarni o'rganadi. Zero, tarjimon asarning tili, leksikasi, grammatik, fonologik va sintaktik o'ziga xosliklarini bilsa-yu, asar ruhiyatini idrok eta olmasa, adekvatlikni ta'minlashi qiyin. Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonini nemis tiliga o'g'irgan hamda shoir haqida tadqiqotlar olib borgan Alfred Kurilla "Tarjima nazariyasi va amaliyoti" nomli maqolasida "...Men ayrim sifat, ot va fe'llar uchun har bir so'zning ostiga bir nechtdan sinonimlar yozib, "ko'p qavatli" yo'lma-yo'l tarjima qilib berishlarini so'radim. Agar maxsus qog'oz bo'lganda edi, men she'rning qanday jaranglashini ham qog'ozga tushirib berishlarini so'ragan bo'lardim. Lekin boshqa bir usulga murojaat etdim. Men taniqli o'zbek shoiri G'afur G'ulom huzuriga bordim. U mening o'zbekcha asliyatga xos musiqani, ohangni his etishim uchun ikki soat mobaynida menga Alisher Navoiy she'rlarini o'qib berdi. Bu esa menga musiqaviy pardalarni anglashimga yordam berar edi. Shundan so'ng shoir yashagan davrni o'rgandim. O'sha davrga xos rasm va miniatyura yig'dim, shuningdek, boshqa manbalarga ham murojaat etdim. Shu yo'l bilan asliyat ruhiga kirishga intildim"^{16[3]}, - deb ta'kidlagani bejiz emas. Nemis tarjimonining zukkoligi va asar ruhiyatiga kirish maqsadida qo'llagan tadbiri Sharq she'riyati tarjimonlari uchun muhim ko'rsatmadir. Mashhur tarjimonlar qo'lidan chiqqan asarlar tarjimasini o'qiy turib, original matn yaratilgan davrni his qilasiz. Tarjimonning yuksak mahorati va tinimsiz mehnati evaziga yaratilgan originalga teng asarni o'qishga musharraf bo'lasiz. Shoir G'afur G'ulom Vladimir Mayakovskiyning "Hayqiriq" asarini o'zbek tiliga tarjima qilarkan, avvalo, rus tilini atroflicha va chuqur bilishga, davr tarixini o'rganishga alohida e'tibor qilgan bo'lsa, Shekspirning shoh tragediyalaridan "Otello" va "Qirol Lir"ni bilvosita tarjima qilar ekan, inglizlarning o'sha davrdagi hayoti, tarixiy mavqei, madaniyati va qisman, tilini bilishga harakat qilgan. Xuddi shu gapni mashhur nemis shoirlari I.Gyote, G.Geynening she'rlari, fransuz dramaturgi Molyer asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan yozuvchi Oybek haqida ham aytish mumkin^{17[4]}. Asar ruhiyatining tarjimada adekvat berilishi bu jarayondagi muhim omillardan biri hisoblanadi. Tarjimashunoslik tarixidan shu narsa ma'lumki, klassik tarjimaning asl jilosi u yaratilgan davrga oid "peyzaj"ni, ya'ni tarixiy sharoitning bir bo'lagini bugungi kun nigohi bilan emas o'sha davr ko'zi bilan ko'ra bilishdadir. Tarjima qilingan asarning badiiyligi esa ana shu ruhiyatning nechog'lik aniq ifoda etilganligiga bog'liq. Buning uchun tarjimon qo'lidan kelishi

^{16[3]} Кўчирма куйидаги китобдан олинди: Каримов Ш. Диллардан дилларга. – Т., 1980. – Б. 128-129.

^{17[4]} Саидов С. Давр тақозоси / Таржима санъати. 3-китоб. Тўпловчи Т.Жўраев. Мақолалар тўплами. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1976. – Б. 203-204.

mumkin bo'lgan hamma chorani ko'rishi, o'zligini unutib, butun borlig'i bilan asar ruhiyatiga singib ketishi, tilshunoslar ekstralingvistik deb hisoblovchi faktor nazariy bilimlarga ega bo'lishi kerak. Mutarjim ma'lum asarni tarjima qila turib, undagi bosh g'oyani tushunib olmas ekan, tarjima aniq chiqmaydi. Asar g'oyasini fahmlash uchun tarixiy sharoit, muallif pozitsiyasi va o'sha davr ruhiyati bilan chuqur tanishib chiqish lozim. Ba'zida asar ruhiyatiga kirish uchun nazariy bilimlarning o'zi ham kamlik qilishi mumkin. Shu sababdan ba'zi tarjimonlar asar yozilgan davlatga va aynan voqea tasvirlanayotgan hududlarga tashrif buyurish holatlari ham tarixda kuzatilgan. Bunday tashabbus asliyat bilan tenglasha olgan o'lmas tarjimalar yaratishga xizmat qilgan. Buyuk shoir va tarjimon V. A. Jukovskiy hayotidan mashhur bir naql bor. U ingliz shoiri Tomas Greygning (1716-1771) "Qishloq qabristonida yozilgan marsiya"ni tarjima ustida ishlaganda hech ishi unmagani. 1939-yilning may oyida Angliyaning Vindzor qishlog'iga, aynan T. Greygga ilhom bag'ishlagan qishloq qabristoniga boradi. V. Jukovskiy o'sha qishloqda Greyg poemasini qayta qo'lga oladi va tarjimani benuqson amalga oshiradi.

Asl nusxa ruhiyatini tarjimada butun borlig'icha aks ettirish uchun tarjimon o'sha davr muhiti, ya'ni asar yozilgan yillardagi ustuvor siyosiy-tarixiy sharoitdan xabardor bo'lishi tarjima sifatiga ta'sir qiladi. Buning uchun esa tarjimondan alohida nazariy bilim talab qilinadi. "Faust"ning birinchi fransuz tarjimoni Jan Batist Lemarkan asarning "qorong'u" joylarini yoritib berishni Gyotedan so'ragan edi. Jukovskiy "Odisseyani"ni nemis tilidan tarjima qilgan ekan, grek tili va adabiyoti bo'yicha mutaxassis, professor Grasgof maslahatiga amal qiladi. Tadqiqotlarda aniqlanganidek, o'zbek tarjimonlari "Yo'lbars terisini yopingan pahlavon"ni rus tilidan gruzin rustavelishunosi K.Chichinadze yordamiga tayangan holda o'girishgan bo'lsa, adabiyotshunos olimlar, A.Qayumov va A.Hayitmetovlar rus tarjimoni V.Derjavinga "Saddi Iskandariy va "Hayrat ul-abror" dostonlarini rus tiliga o'girishda ilmiy maslahatlar bilan ko'maklashdilar. Doktor Yan Komorovskiy "Alpomish"ni slovak tiliga o'girishda professor V.M.Jirmunskiyning ko'magi bilan ish ko'rdi^{18[5]}. Yuqoridagi misollar tarjimondan talab qilinuvchi ma'naviy bilimlar va asar asliyatiga yaqinlashuvga olib keluvchi chora-tadbirlarning nechog'li muhim o'rin tutishini kuzatdik. Tarjimonning asar yozilgan davr tarixi o'sha davlatdagi siyosiy jarayonlardan bexabarligi o'quvchi uchun asarni tushunishda ko'plab pragmatik muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, bir zamonaviy rus serialida bugungi kun ishbilarmoni hisoblangan yigit auksionda katta bir korxonani sotib oladi. Davlat tasarrufidagi bu korxonani jinoiy to'da vakili auksionga qo'ydirgan va o'zi sotib olishni mo'ljallagan edi. Korxonani eng baland bahoda sotib olgan tadbirkor yigitga jinoiy to'da vakili o'z noroziligini bildiradi va korxonani qaytarishi kerakligini ishora qiladi. Shunda tadbirkor "Devenositiye uje po zadi" – deydi. Birgina jumlaning o'zida Rossiya tarixidagi mash'um davr – 90-yillar voqealari ya'ni tadbirkorlarning va davlat korxonalarining jinoiy to'da va reket guruhlarini tomonidan talangani, hamda bu davr allaqachon ortda qolganligi ta'kidlanmoqda. Bu jumla ma'nosini

^{18[5]} Жураев К. Таржима санъати. – Т.: Фан, 1982. – Б. 18.

tushunish uchun esa tilshunoslar ekstralingvistik deb hisoblovchi ma'lumotdan xabardorlik talab etiladi. Aks holda bu jumlaning sof lingvistik yo'l bilan "to'qsoninchilar allaqachon ortda qoldi" deb tarjima qilish mumkin. Bu tarjima hamma kitobxonga ham tushunarli bo'lavermaydi. Agar tarjimonda bu jumla mazmuniga oid nazariy ma'lumotlar yetarli bo'lsa uni kitobxonga tushunarli yetkazish uchun tarjima transformatsiyalaridan "qo'shish" metodini qo'llab "to'qsoninchi yillar voqealari allaqachon ortda qoldi" tarzida tarjima qilishi mumkin.

Badiiy matn ijodkori asar mazmunini anglatishda qo'llagan ma'naviy bilimlari doirasi so'z boyligi, tasviriy ifodalar va ko'pgina uslubiy vositalar badiiy tarjimada ham o'z aksini topishi lozim. Ba'zi tilshunos olimlar tarjimadagi badiiy, nazariy bilimlar ahamiyatini inkor etsalar, ba'zilari uni tilshunoslikning aspekti deb hisoblaydilar.

Bu borada ham tilshunos tarjimashunoslar o'rtasida boradigan bahslar hanz o'z yakunini topgani yo'q. Tarjimani faqatgina lingvistika bilan bog'liq deb hisoblovchi tilshunos olimlar tarjimani o'rganuvchi ikki soha – mikrolingvistika va makrolingvistikani yaratdilar. **Mikrolingvistika** F.De Sosyur ta'biri bilan aytganda, "v samom sebe i dlya sebya" ni o'rganadi. Ya'ni matnni sof lingvistik aspektlar fonetika va fonologiya, grammatika, leksikologiya va semasiologiya kabilar asosiy planda tadqiq etiladi. **Makrolingvistika** esa matndagi ko'plab tilshunoslar tomonidan ekstralingvistik faktor deb hisoblangan omillarni psixolingvistika, sotsiolingvistika, etnolingvistika, lingvistik geografiya kabilarni tadqiq etishi aytiladi ^{19[6]}. Komissarov esa o'z tadqiqotida buni biroz ixchamroq xulosalaydi. Ya'ni tarjimondan lingvistik bilimlardan tashqari o'sha asar tarixi, etnografiyasi, madaniyati va boshqa ko'plab ekstralingvistik hisoblangan ma'lumotlardan xabardorlik talab etiladi deydi. Biz yuqorida sovet davri lingvistlarining qarashlarini tahlil qildik. Bizningcha, muammoni tarjimaning adabiyotshunoslik yoki lingvistikaga tegishli ekanligini isbotlash maqsadida uni ikki yoqqa qarab tortish yoki uni bir mutaxassislik doirasida qismlarga ajratib murakkablashtirib yuborish biroz noto'g'ri. Olimlar bu bahslarda faqat "o'z manfaati" ya'ni tarjimani o'z sohalariga nechog'lik tegishli ekanligini isbotlashga urinishga shu qadar berilib ketdilar, natijada bu sohaning ijodkori bo'lgan tarjimon ko'pqavatli terminlar orasida o'ralashib, boshi-berk ko'chaga kirib qolishi mumkinligini inobatga olmaydilar. So'ngida mutarjim tarjima ishini aniq tushunib olmay turib unga qo'l uradi va qilingan tarjima yana ikki oqimi lingvistlar yoki adabiyotshunoslar tomonidan "toshbo'ron" qilinadi. Bu hol davosi aniqlanmagan kasallikka o'xshaydi. Har kim o'z bilganicha "muolaja" qilganidan bo'lsa kerak, tarjimon qayta-qayta shu "kasallik"ga chalinaveradi. Mustaqillikdan keyingi yillarda har bir sohada islohotlar olib borilgani kabi ta'lim va fan sohasida avvalgi uslublardan voz kechilib, har bir kishi uchun tushunarli, ixcham va samarali natija beradigan standart modullar tanlab olinib amalda joriy etilmoqda. Nazarimizda badiiy tarjima sohasida ham ana shunday standart modul yaratish vaqti keldi.

^{19[6]} Л.С Бархударов. Язык и перевод. М., Международные отношения, 1975. – С.29.

Albatta, badiiy tarjima ijodkorlikni talab etadi va uni bir qolipga solib bo'lmaydi biz bunday fikrdan yiroqmiz. Ammo bugungi kun yoshlari zamonaviy fikrlaydi va har sohada aniq maqsad va natija qandayligini oldindan tushunib bir ishga kirishadilar. Bizningcha, tezkor informatsion texnologiyalar almashinuvi asrida yosh tarjimonlarga tarjimaning qaysi soha (lingvistika yoki adabiyotshunoslik)ga aloqadorligini isbotlovchi biryozqlama qarashlar emas, balki badiiy asar tarjimasi jarayonida qanday nazariy bilimlar talab qilinishini tushuntirib beruvchi yo'nalish kerak. 70-yillarning boshlariga kelib, hatto ba'zi tilshunoslarning o'zlari ham o'z hamfikrlarining qarashlariga qarshi chiqib, badiiy tarjimada tilshunoslar ekstralingvistik deb hisoblovchi nazariy bilimlar nechog'lik muhimligini ta'kidladilar **“Tarjima tilini va tarjima qilinayotgan tilni bilishning bilishning o'zi yetarli emas tarjimon, shuningdek bu tillarda gaplashadigan xalqlarning madaniyatidan boxabar bo'lishi lozim”**^{20[7]}. Amerikalik lingvist N.Xomskiy o'z fikrini yanada aniqroq ifodalab beradi: “Tillarning hammasi bir namuna asosida yaratilganiga shubha qilmaslikka asos yetarli bo'lsa-da, muvofiq tarjima yaratish mumkinligiga shubha bor. “Muvofiq tarjima yaratish”deganda men o'zida ekstralingvistik ma'lumotlarni jamlamagan tarjimani, ya'ni “qomusiy ma'lumotlar”ga ega bo'lmagan tarjimani aytayapman”^{21 [8]}. Shunday ekan masalaga chuqurroq nazar tashlagan sari munozaralar davrasi kengayib boraveradi. Ya'ni adabiyotshunoslar va tilshunoslar; tilshunoslar va tilshunoslar o'rtasidagi bahslar. O'zbek tarjimashunoslaridan Sh.Sirojiddinov fon bilimlarini “ma'naviy bilimlar” deb atashni tavsiya etadi. Bizningcha, barcha baxs va munozaralardan umumiy xulosa yasab tarjimonning vazifalari va u bilishi kerak bo'lgan ma'naviy bilimlar doirasini quyidagicha ko'rsatib berish mumkin:

1. Tarjimon bilishi lozim bo'lgan asosiy nolingvistik ma'lumotlar sirasiga quyidagilar kiradi – a. predmet (mavzu) haqida ma'lumot, ya'ni mazkur matnda nima haqida so'z borishi; b. muloqot holati (ya'ni til kommunikatsiyasi amalga oshirilayotgan janr); v. nutq ishtirokchilari: “jo'natuvchi”(gapiruvchi yoki yozuvchi) va “qabul qiluvchi” (retseptor ya'ni kitobxon tafakkuri qaysiki lingvistik yoki nolingvistik malaka va turlicha dunyoqarashga ega shaxslar.
2. Badiiy asardagi asosiy personajlarning xarakteridagi milliy kolorit va milliy mentalitetga oid so'z va leksik elementlar tarjimon tomonidan ajratib olib o'rganib tahlil qilinishi;
3. Badiiy asardagi davr ruhiyatiga oid leksik elementlar, arxaik so'zlar tarixiy manbaalar orqali tekstologik tahlil qilinishi ;
4. Asliyat ohangi(she'riy va epik dostonlar tarjimasida)ni tinglab ko'rilishi. Bunda asar tili millatidan bo'lgan kishi(yazikonositel) xizmatidan foydalangan ma'qul;
5. Badiiy asardagi har bitta obraz haqida muayyan tushuncha hosil qilish uchun tarjimon, har bir asar qahramonini individual ravishda o'rganadi. Buning uchun asardagi asosiy obrazlar ajratib olinadi va har bir obraz nomi ostiga asar davomida shu qahramon xarakteriga oid tasviriy ifodalar va holatlar saralab olinib yozib

^{20[7]} Э.М.Уленберг (Машхур голланд тилшуноси) . *Lingua*, V.18,№2(1967)pp.201-202

^{21[8]} Н.Хомский *Аспекты теории синтаксиса*. – М.: изд-ва М.Губ, 1972 . – С.187.

chiqiladi. Qahramon tipaji oydinlashgach, tarjimon, obraz haqidagi ma'lumotlarni xulosalaydi. Masalan "O'tgan kunlar" romanidagi Kumushga oid ta'riflar so'nggida shunday xulosa berish mumkin:

Kumush – sharqona go'zallikka ega, maftunkor, jasoratli, sabrli, o'ziga ishongan, oqko'ngil, zodagoncha tarbiya ko'rgan, so'zga usta. Tarjima jarayonida mutarjim ana shu xulosa doirasida ish olib borsa, qahramonning shaxsiyati tarjimada asliyatdagidek tiniq ochib beriladi;

Badiiy asarda qo'llangan she'riy san'atlar, frazeologik birikmalar va tarjima tili uchun yot bo'lgan leksik birikmalar(realiyalar)ni o'rganib chiqilishi.

Bugungi kunda tarjimalar saviyasining pasayib ketishiga bu mas'uliyatli sohaga qo'l uchida yondoshib pala-partish ishlarni chop etish evaziga "tarjimon" maqomini olayotgan havasmand til bilgichlarning ko'payib ketganligidir. Badiiy tarjima nazariyasi badiiy tarjima prinsiplari va tarjimonning vazifalarini aniq belgilab beruvchi va badiiy tarjima muammolarini o'rganadi.

Fon bilimlari klassifikatsiyasi: umumiy fon bilimlari va kontekstual fon axboroti.

Umumiy fon bilimlari- asliyat tili va madaniyatiga oid yuqorida qayd etilgan ekstralingvistik bilimlar majmui. Kontekstual fon axboroti esa vertikal kontekst bilan tanishish orqali hosil bo'ladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Fon bilimlari istilohiga ta'rif bering.
2. Tarjimon bilishi kerak bo'lgan ma'noviy bilimlar qaysilar?
3. Tarjimonlar asar ruhiyatiga kirish uchun qanday ma'lumotlar bilan tanishganlar?

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. Tarjima qilayotgan asaringiz haqidagi fon bilimlarini ketma-ketlikda yozib chiqing.
2. Tarjima jarayonidagi ekstralingvistik faktorlar va ularning echimi haqida taqdimot tayyorlang.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Robinson, Douglas Becoming a Translator. An Introduction to the Theory and Practice of Translation, London/New York: Routledge. 2003
2. Nancy Matis. How to manage your translation projects/Translation of French book: Comment gerer vos projects de traduction.(c)Edi.pro.2010. 211 pp.
3. Susan Bassnet. Translation studies. 3rd edition. Taylor & Francis e-Library, 2005.188 pp.
4. Н.Хомский Аспекты теории синтаксиса.–М.: изд-ва М.Губ, 1972.

ГЛОССАРИЙ

Атама	Термин	Terminology	Изоҳи
Адекват	Адекват	Adequate	“adequate” сўзидан олинга бўлиб, тўла мос, айнан ўша деган маъноларни англатади.
Академик дисциплина	Академик дисциплина	Academic discipline	академик фан
Аруз	Аруз	Aruz	туркий ғазал системаси
Аналитик билим	Аналитическая навъика	Analysis	воқеа-ҳодисаларни аналитик таҳлилдан ўтказиш малакаси
Аслият тили(АТ)	Язык оригинала (ЯО)	Source language	ахборотни узатаётган тил
Ботиний маъно	Имплицитное значение	Implicit meaning	бадий матнда қўлланган шеърый санъатлар ва метафоралар ичига яширинган маъно
Воситачи тил (ВС)	Язык посредник (ЯП)	Meta-language	ахборотни бир тилдан қабул қилиб, иккинчи тилга узатаётган тил
Зоҳирий маъно	Эксплицитный значения	Explicit meaning	бадий матнни ўқиганда англашиладиган умумий маъно
Ички ёндашув	Внутренний подход	Personal view	Таржимага таржимон нигоҳи билан профессионал баҳо

			бериш
Лойиҳани назорат қилиш	Контролировать проект	Project controlling	Лойиҳани жадвал асосида назорат қилишни йўлга қўйиш
Прагматика	Прагматика	Pragmatics	тил коллективларининг бирор ахборотга нисбатан субектив муносабати
Профессионал маҳорат	Профессиональная компетенция	Professional competence	Таржимоннинг йиллар давомида шаклланган қобилияти
Профессионал ғурур	Профессиональное достоинство	Professionalism	Таржимоннинг ўз касбидан фахрланиши, уни севиши
Процессуал хотира	Процессуальная память	Procession memory	Йиллар давомида йиғилган назарий маълумотлар, эслаб қолинган воқеалар
Рецептор	Рецептор	Recipient	ахборотни қабул қилувчи шахс
Репрезентатив хотира	Репрезентативная память	Representative memory	Элементар воқеа ва ходисаларни эслаб қолиш хотираси
Силлабо-тоник	Силлабо-тоническая	Syllabic-tonic	тоник- инглиз шеъринг вазн системаси
Таржимачилик	Переводоведение	Translation studies	таржима қилиш жараёнлари, босқичлари, ютуқ ва нуқсонлари, таржимонлар ҳақидаги маълумотларни ўз ичига олади
Таржимашунослик	Язык перевода	Translation science	таржима назарияси ва амалиётини академик фан сифатида қабул қилиш босқичларидан тортиб, мазкур фанни илмий тадқиқ қилиш, фаннинг назарияси ва амалиёти муаммолари, фаннинг тадқиқотчи олимлари ва уларнинг

			концепцияларини ўз ичига олади
Таржима тили (ТТ)		Target language	ахборотни қабул қилаётган тил
Таржимон	Переводчик	Translator	форсча “тарзабон” сўзидан олинган бўлиб чиройли сўзловчи нотик киши деган маънони англатади.
Таржимоннинг сохта дўстлари	Ложные друзья переводчика	False friends of translators	аслият тилидаги сўзларнинг таржима тилида ҳам мавжуд бўлиши аммо бутунлай бошқа маънони билдириши.
Ташқи ёндошув	Взгляд из вне	External attitude	Таржимага нотаржимон нигоҳи билан баҳо бериш
Трансформация	Трансформация	Transformation	таржима амалиётида матнни маълум мақсад учун қайта қуриш
Турок	Турак	Turok	ўзбек шеърий вазн системаси
Фон билимлари	Фоновые знания	Knowledge	аслият тили, миллати, маънавиятига тегишли билимлар мажмуи
Эквивалент	Эквивалент	Equivalent	лотинча “equalence” сўзидан олинган бўлиб, ўхшаш деган маънони англатади

